

O'zbekiston Respublikasi Sog'likni Saqlash Vazirligi

Tibbiy ta'limdi rivojlantirish markazi

Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti

TIBBIYOT TARIXI FANI BO'YICHA O'QUV QO'LLANMA

(pediatriya,tibbiy-pedagogika fakulteti talabalari uchun)

TOSHKENT - 2012y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

«Tasdiqlayman»
o'zbekiston Respublikasi Sog'likni
Saqlash bosh boshqarmasining
xodimlar bo'limi va o'quv ishlari
bo'yicha boshlig'i Sh.E.Ataxanov

«_____» 2012 y.
Bayonnomma №_____

«Kelishilgan»
o'zbekiston Respublikasi Sog'likni
Saqlash Vazirligi tibbiy ta'lismi
rivojlanterish markazi direktori
M.S.Yusupova

«_____» 2012 y.
Bayonnomma №_____

Tibbiyot tarixi fani bo'yicha o'quv qo'llanma
(pediatriya,tibbiy-pedagogika fakulteti talabalar uchun)

Toshkent-2012 y.

**o'kuv qo'llanmaning maqsadi – Toshkent Pediatriya Tibbiyot Insituti
(ToshPTI) muallimlari va talabalariga Uzbekiston Respublikasi Soglikni Saklash
Vazirligining tuzilmasiga kiruvchi DPMIlar tuzilishi va vazifalarini kullagan xolda,
jamoat salomatligini va soglikni saklash tizimini boshkarish xamda
tashkillashtirish tusikllarida kullaniladigan interaktiv usullarni kullashga yordam
berish.**

**Tuzuvchilar: Tosh PMI Jamoat salomatligi, soglikni saklash tizimini
tashkillashtirish va boshkarish kafedrasini mudiri t.f.d., professor**

Sh.T. Iskandarova.

**Tosh PMI Jamoat salomatligi, soglikni saklash tizimini
tashkillashtirish va boshkarish kafedrasining dotsenti t.f.n. N.F.Rasulova**

**Retsenzentlar: Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Jamoat salomatligi soglikni
saklashni tashkillashtirish va boshqarish kafedrasini mudiri professop,
t.f.d., X.E.Rustamova.**

**Tosh PMI Jamoat salomatligi, soglikni saklash tizimini tashkillashtirish va
boshkarish kafedrasining professori t.f.d., N.M.Maxmudova.**

**Ushbu uslubiy kullanma jamoat salomatligi, soglikni saklash tizimini boshkarish
va tashkillashtirish fanidan interaktiv usullarni kullash buyicha ToshPTI ning
pediatriya, xamda Tibbiy-pedagogika fakultetlari talabalari uchun ishlab
chikilgan.**

Kullanma ToshPTI ning MUK da muxokama kilingan. Bayonnomma № , 2012y.

Kullanma ToshPTI ning Ilmiy Kengashida tasdiklangan. Bayonnomma № , 2012 y

ToshPTI Ilmiy Kengashi Ilmiy kotibi E.A.Shomansurova _____

Mavzu: Tibbiyot tarixi fani uning maqsad va vazifalari, boshqa bilimlar qatorida tutgan o'rni. Insoniyat jamiyatida tibbiyotni kelib chiqishi. Davolash muolajalarining kelib chiqishi.

Maqsad: Talabalarni tibbiyot tarixini maqsad va vazifalari, kelib chiqishi va boshqa tibbiy fanlar qatorida tutgan o'rni bilan tanishtirish. Insoniyat jamiyatida tibbiyotni kelib chiqishi. Ilk davolash usullarining kelib chiqishi, tibbiy asbob uskunalarining yaratilishi va amaliyotda qo'llanilishi bilan tanishtirish.

Vazifalari (kutilgan natijalar)

Mashg'ulotni o'tib bo'lgach talabalar quydagilarni bilishlari shart:

- tibbiyot tarixini fan sifatida shakllanishi va mazkur sohaga hissa qo'shgan olimlar bilan tanishtirish,
- tibbiyot tarixini ikki qismga bo'lib o'rganishi va ularga ta'rif berish,
- tibbiyot tarixini o'rganishdagi manbalar va ularni ahamiyatini o'rganish
- fetishizm, animizm, tetemizm tushunchalariga ta'rif berish.
- ilk tibbiy muolajalarining ishlab chiqilishi va tibbiyotni kasb sifatida shakllanishi

Nazariy qism

Tibbiyot tarixi fani 2 qismga umumiyligi va xususiy tibbiyot tarixiga bo'lib o'rganilishi. Mazkur fanni rivojlanishida biologiya, fizika, mikrobiologiya kabi fanlarni o'rni katta ekanligi, tibbiyot tarixi fan sifatida shakllanishida insoniyat ongining, aqlidirokinning oshirilishi maqsad va usullarini qo'llanilishi muhim rol o'ynagan. Arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadi, qadimgi odamlar toshga ishlov berish natijasida teshuvchi, kesuvchi pichoqlar yaratib yiringli joylari yorib yiringini chiqarish, chaqaloq kidnigini kesishda ishlatishgan. Diniy mistik nazariya bu tibbiyotni din bilan bog'lab o'rgangan (Anemizm, fteshizm, titemizm) mazkur tushunchalar o'sha davr odamlari uchun katta rol o'ynagan.

Ilmiy materialistik nazariya esa tibbiyotni ilmiy jihatdan asoslab berish masalan: difteriya, dizenteriya, sil, gepatit va boshqa kasalliklarni mikrob va viruslar

chaqirishini ilmiy jihatdan isbotlanishi tushuniladi. Insoniyat birinchi tibbiy muolajalarni hayvonlarni hayotini kuzatish yo'li bilan o'rgangan masalan klizmani qushlardan, mumiyoni topish va davolashni kiyikdan va h.k. Tibbiyotni kasb sifatida shakllanishida ibtidoiy jamoa tuzimi oxiri quzdorlik davri boshlarida alohida tibbiyot bilan shug'ullanuvchi odamlar paydo bo'la boshlangan ular singan va chiqqan suyaklarni davolash, turli dorivor o'simliklar bilan davolash bilan shug'ullanishgan.

Tibbiy bilimlar qatorida tibbiyot tarixi fani alohida o'rinni egallaydi. U tibbiyotning tarixiy rivojlanish yo'llari va uning hozirgi kungacha etgan darajasi haqida umumlashtiruvchi tushuncha beradi, tibbiyotning taraqqiyot qonunlarini ochadi va shunga asosan uning kelgusidagi yo'naliш yo'llarini ko'rsatib beradi. Tibbiyot tarixi umuminsoniyat tarixining muhim qismidir.

Bo'lajak shifokor uchun tibbiyot tarixini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Tibbiyot tarixi fani tibbiyotning rivojlanish yo'llarini chuqur o'rganishda, uning erishgan yutuqlarini to'g'ri anglashda talabalarga dastur bo'lib xizmat qiladi, ularning bilim darajasi va saviyasini oshiradi. Umuman, tibbiyot tarixi fani talabalarning kasbiyestetik, ma'naviy-g'oyaviy va madaniy jihatdan yuksak darajadagi mutaxassislar bo'lib etishishlarida katta rol o'yaydi.

Tibbiyot tarixi tibbiyotning kelib chiqishi va rivojlanishini ijtimoiy-iqtisodiy hayot bilan bog'liq holda o'rganuvchi fan hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot tibbiyotning rivojlanish darajasini belgilaydi. Masalan, ibtidoiy jamoa davrida yashagan kishilarning hayoti juda past darajada rivojlangan edi. Ular yashash uchun hech narsa ishlab chiqarmay, faqat tabiatdagi mavjud mahsulotlar (o'simliklar, ularning mevalari, ildizlari va h. k.) ni eb yashaganlar. Shuningdek, ular tibbiyot sohasida ham hech narsa kashf etmay, tabiatda mavjud bo'lgan shifobaxsh o'simliklarni shundayligicha eb davolanganlar. Binobarin, bu davrda tibbiyot ham juda past darajada bulgan. Undan keyingi ijtimoiy hayotni o'zgarishi bilan tibbiyot ham rivojiana borgan. Bu o'zining ilg'or nazariy asoslari va yuksak prnntsiplari bilan undan oldin o'tgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlardan tubdan farq qiladi.

Tibbiyotning rivojlanishi boshqa ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham bog'liq. Masalan, tibbiyotning rivojlanishida falsafa fani ham muhim o'rinni egallaydi. Tibbiyot faqat ilg'or materialistik falsafa asosidagina rivojlanishi va yutuqlarga erishishi mumkin. Masalan, o'rta asrlarda Ovrupoda idealistik falsafa va sxolastika hukmron bo'lgan. Shunga ko'ra, o'sha vaqtdagi tibbiyot ham sxolastik xarakterga

ega bo'lgan. hozirgi zamonamizda fanda materialistik tushuncha hukmron. Shuning uchun hozirgi zamon tibbiyoti yuksak materialistik fan asosida yuqori darajada rivojlangan.

Tibbiyotning rivojlanishida tabiiy fanlar ham muxim rol o'ynaydi. Tabiiy fanlarning har biri tibbiyotni boyitib, rivojlantirib boradi. Masalan, kimyo, botanika fanlarining rivojlanishi dori-darmonlarning ko'payishiga hissa qo'shdi. Biologiya, parazitologiya, mikrobiologiya fanlarining rivojlanishi tufayli ko'pgina kasalliklarning sababchilari (mikroblar, parazitlar) aniqlandn. Fizika fanining rivojlanishi natijasida yangi-yangi tashxis (diagnostika) va davolash usullari (mikroskop usuli bilan tekshirish, rentgen-radiy nurlaridan foydalanish, elektrokardiografiya va h. k.) ishlab chiqildi. Shu misollardan ko'rinib turibdiki, tibbiyotning rivojlanishi xaqiqatan ham ijtimoiy va madaniy hayotning deyarli barcha sohalari rivojlanishi bilan bog'liq. Binobarin, biz tibbiyot tarixini ijtimoiy hayotning hamma sohalari rivojlanishi bilan bog'liq; holda o'rganamiz. Bunda tibbiyotning kelib chiqishidan boshlab, uning bosib o'tgan barcha bosqichlari bilan tanishamiz.

Tibbiyot tarixi umumiy va xususiy qismlarga bo'linadi.

Umumiy tibbiyot tarixi tibbiyotning paydo bo'lishidan hozirgi kungacha rivojlanishini umumiy o'rganadi, uning taraqqiyot qonuniyatlarini kashf etadi, tibbiyotning kishilik jamiyati rivojlanishining har bir davridagi o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi.

Xususiy tibbiyot tarixi tibbiyotning ayrim sohalarining kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganadi, ayrim yirik tibbiyot olimlarining hayoti va faoliyati bilan tanishadi. Masalan: terapiya, xirurgiya, pediatriya, endokrinologiya va boshqa klinik fanlarni tarixini chuqur o'rganadi va tahlil qiladi.

Umumiy tibbiyot tarixi bilan xususiy tibbiyot tarixi o'rtasida ma'lum farq mavjud, shu bilan birga ular bir-biri bilan bog'liqdir. Umumiy va xususiy tibbiyot tarixi o'zaro birlashib, tibbiy-tarixiy fanni tashkil etadi.

Tibbiyot tarixi XIX asrda alohida fan shaklini oldi. Lekin tibbiyot tarixiga oid dastlabki asarlar ancha ilgari yozila boshlagan. Masalan, "Gippokrat to'plami" nomli mashhur kitobga kiritilgan "qadimgi tibbiyot haqida" nomli maqola tibbiyot tarixiga oid birinchi asar hisoblanishi mumkin. Bu maqolani Gippokratning o'zi yozgan, deb hisoblaydilar. Maqolada Gippokrat tibbiyot masalalarida o'tmishdagi har xil fikrlarga sharh beradi. Ammo birorta ham hakimning ismini keltirmaydi.

Shuning uchun bu maqolani shartli ravishda tibbiyot tarixiga oid birinchi asar deyish mumkin.

Tibbiyot tarixiga oid birinchi asarlar sharq mamlakatlarida o'rta asrlarda paydo bo'ldi. Bu sohada bir qancha olimlar ijod qildilar. Tibbiyot tarixi sohasida barakali ijod etgan olimlardan Abul hasan al-Bayxaqiy, Ibn al-Kiftiy, Ibn Abi Usaybia, Abu Bakr ibn al-Xallikon kabi mualliflarni ko'rsatish mumkin.

Bu mualliflarning asarlarida qadim zamonlarda yashagan mashhur tabiblarning hayoti va ijodi haqida qiziqarli ma'lumotlar bayon etilgan. Masalan, biz shu olimlarning asarlarida Abu Bakr ar-Roziy, Abu Ali ibn Sino, Sharafuddin Iloqiy, Najibuddin Samarqandiy, Ismoil Jurjoniy kabi mashhur tabiblar haqida ancha to'la ma'lumotlar topamiz.

XIX asrning oxirlarida mustaqil tibbiyot tarixi kafedralariga asos solindi. 1894 yilda Moskva dorilfununiing tibbiyot qulliyotida tibbiyot tarixi kafedrasini ochildi. So'ng boshqa dorilfununlarda ham shunday kafedralar ochila boshladi. Shunday qilib, tibbiyot tarixi mustaqil fan sifatida shakllandi.

o'rta Osiyo jumhuriyatlarida dastlab tibbiyot tarixidan lektsiyalarni boshqa soha mutaxassislari o'qiganlar. Masalan, 1930 yillarda Samarqand tibbiyot oliy bilimgohida tibbiyot tarixidan gistologiya va embriologiya kafedrasining mudiri G. M. Semenov lektsiya o'qigan. 1940 yillarda bunday lektsiyani biologiya kafedrasining mudiri P. M. Faktorovich o'qigan. 1945—1950 yillarda esa tibbiyot tarixidan V. I. Rudnev dars bergan.

Mustaqil tibbiyot tarixi kafedrasini birinchi marta 1948 yilda Toshkent tibbiyot oliy bilimgohida, 1981 yilda esa Samarqand tibbiyot institutida tashkil etildi. Shunday kafedralar boshqa o'rta Osiyo tibbiyot institutlarida ham ochildi. 1957 yilda o'zbekistonda tibbiyot tarixchilari jamiyati tashkil topdi. 40—60 yillarga kelib, o'rta Osiyoda ham tibbiyot tarixi fani mustaqil fan sifatida rivojlandi.

Sobiq ittifoq davrida tibbiyot tarixini o'rganish ishlari 1950—70 yillarda keng miqyosda olib borildi. Bu sohada yirik tibbiyot tarixchilari etishib chiqdi. F. R. Borodulin, I. D. Strashun, M. K. Kuzmin, B.M. Potulov, M, P. Multanovskiy, P. E. Zabludovskiy kabi olimlar tibbiyot tarixida katta hissa qo'shdilar. o'zbekistonda esa A. A. Abdullaev, A.A. qodirov, M.A. Goipov, M. Mahmudov, N.M. Mahmudova, A.K. Xusanbaeva, O.I.Ismailov va boshqalar tibbiyot tarixini o'rganishdi va rivojlantirdi.

Tibbiyot tarixi darsini o'qitishdan maqsad, tibbiyotnnng dastlabki paydo bo'l shidan boshlab to bizning kunimizgacha bosib o'tgan yo'lini to'g'ri tahlil qila bilishni va bu sohada aniq fikr yuritishni talabalarga o'rgatishdir. Tibbiyot tarixi fani o'lkamizning boy tibbiyot tarixiga ega ekanligini ko'rsatib, talabalarda bu tarixga nisbatan fahrlanish va qiziqish tuyg'usini uyg'otadi. Tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'rta Osiyo xalqlari uzoq, o'tmishda yuksak madaniyatga erishganlar, shu jumladan, tibbiyot ham yuqori darajaga ko'tarilgan. Tibbiyot tarixi fani shularni aniý dalillar bilan isbotlab berdi.

Tibbiyot tarixi fanining asosiy vazifalaridan yana biri, talabalarga bizning mamlakatimizda va jahon miqyosida tibbiyotning qanday kelib chiqqani va rivojlanganligini xronologik ravishda tanishtirishdan iborat. Shuningdek tibbiyot tarixi haqida mavjud bo'lган turli xil fikrlar va nazariyalar tahlil qilinadi, ularga baho beriladi.

Tibbiyot tarixi fanining yana bir vazifasi jahonda tibbiy fanlarning rivojlanishida mamlakatimiz, olimlarining qo'shgan hissasini ko'rsatib berishdir.

Tibbiy bilimlar qatorida tibbiyot tarixi fani alohida o'rinn egallaydi. Bu fan tibbiyotning tarixiy rivojlanish yo'lini har taraflama chuqur va keng o'rganadi. Tibbiyot tarixi fani tibbiyot sohasida umumlashtiruvchi tushuncha beradi, Ayrim tibbiy bilimlar esa o'z sohasi bo'yicha tor ma'nodagi tushunchani beradi. Bunday bilimlarni o'rganish natijasida tibbiyotning umumiyy mohiyatini va uning rivojlanish qonuniyatlarini ochib bo'lmaydi. Tibbiyot tarixi fani esa uni ochib beradi.

Tibbiyot tarixi fani boshqa tibbiy bilimlardan metodologik jihatdan ham farq qiladi. Ayrim tibbiy bilimlar, masalan, anatomiya, fiziologiya va klinik fanlar asosan, laboratoriya usullari, har xil qurol asboblar yordamida tekshirish ishlari olib boradi. Tibbiyot tarixi fani esa xodisalarning mohiyatiga chuqur falsafiy jihatdan yondashadi. Bunda u tarixiy materializm metodologiyasidan foydalanadi. Ayrim klinik fanlar alohida bemor kishini tekshiradi, uning kasalini aniqlaydi va davolaydi. Tibbiyot tarixi fani esa tibbiyotning butun mamlakat va jahon miqyosidagi yutuqlarini o'rganadi va bu sohadagi umumiyy qonuniyatlarini ochadi. Binobarin, tibbiyot tarixi fani ayrim tibbiy bilimlardan farqli ravishda, tibbiyotning umumiyy rivojlanish yo'llarini keng, chuqur va har taraflama o'rganadi. Shunday qilib, tibbiyot tarixi fani boshqa tibbiy bilimlar qatorida masalani qamrab olish, uni har taraflama o'rganish va metodologiya jihatidan ham etakchi o'rinn egallaydi.

Tibbiyot tarixini o'rganishda biz ko'p manba'lardan foydalanamiz.

Bu manba'lardan birinchisi—arxeologiya fanidir. Arxeologiya fani qadimgi zamon odamlari va ularning tarixiga oid masalalarini arxeologik qazilmalar orqali o'rjanuvchi fandir. Arxeologik qazilmalar vaqtida tibbiyotning kelib chiqishi va uning dastlabki rivojlanishiga oid ashyoviy materiallar (qadimgi odamlar suyaklari, ular ishlatgan qurollar, xususan, tibbiy muolajada foydalanadigan asboblar, har xil idishlarda saqlanib qolgan dorivor moddalarning qoldiqlari va h. k.) topilgan. Shu ashyoviy materiallarga qarab, u yoki bu mamlakatda, u yoki bu davrda tibbiyot qanday darajada rivojlanganligi, qanday davo usullari qo'llanilganligini aniqlash mumkin.

Arxeologiya fanining bir qancha tarmoqlari bor. Shulardan birinchisi — antropologiyadir. Bu fan qadimgi odamlarning gavda tuzilishi, uning biologik xususiyatlari, yashash sharoitlarini tekshiradi. Shu yo'l orqali ham o'sha zamon tibbiyotining rivojlanish darajasi haqida ma'lum tushunchaga ega bo'lish mumkin.

Ikkinchisi—paleopatologiyadir. Bu fan qadimgi zamon odamlarining suyaklarini tekshirib, ularning qanday kasalliklar bilan og'riganliklarini aniqlaydi. Bunda rentgenologik va radiologik usullardan foydalанилди.

Uchinchisi—paleobiologiyadir. Bu fan qadimgi zamon odamlarining suyaklarini radio-biologik va immunologik usullar bilan tekshirib, o'sha zamon odamlarining organizmidagi biologik xususiyatlarni aniqlaydi. Masalan, odamning qon gruppasini aniqlash mumkin.

Ikkinci manba'—yozma asarlardir. Yozma asarlar ikki guruhga bo'linadi: 1. qo'l yozma asarlar. 2. Bosma (chop etilgan) asarlar.

qo'lyozma asarlar juda qadim zamonlardan yaratila boshlangan. Bularga qadimgi Misr papiruslari, Assuriya va Vaviloniya (Babilmonda) shohlarining toshga o'yib yozilgan qonunlari, qoyalarga yozilgan xatlar va suratlar, teriga va nihoyat, qog'oz kashf etilgandan so'ng qog'ozga yozilgan xatlar kiradi. Shu xatlar orasida tibbiyotga oid qo'lyozmalar ham ko'p uchraydi. Shuningdek, Sharq tibbiyot allomalari ar-Roziy, Ibn Sino, Ismoil Jurjoniy, Umar Chag'miniy va boshqalarni asrlari ham qo'lyozma asarlarga kiradi.

Bosma asarlar bosma dastgoh kashf etilgandan so'ng (XV asr) paydo bo'ldi. qog'oz va bosma dastgoh kashf etilishi tibbiyot bilimining tez va keng rivojlanishiga asos bo'ldi. Jumladan, tibbiyot tarixiga oid asarlar ham ko'p bosilib chiqarila boshladi.

Tibbiyot tarixini o'rganishda xalq tibbiyoti ham yordam beradi. Biz xalq tibbiyoti bilan tanishib, qaysi mamlakatda, qaysi davrda tibbiyot qay darajada rivojlanganligi haqida ma'lum tushunchaga ega bo'lamiz.

Tibbiyot tarixini o'rganishda bu asosiy manba'lardan tashqari, qo'shimcha manba'lardan ham foydalanishimiz mumkin. Bular jumlasiga umumiylar tarixga oid asarlar, badiiy adabiyot, amaliy san'at asarlari (rasmlar, xaykallar, uy jihozlari va h. k.), xalq og'zaki adabiyoti, folklor, xalq eposlari kabi tarixiy materiallarni kiradi.

Ibtidoiy jamoa davrida tibbiyot yaxshi rivojlanmagan edi. Ibtidoiy odamlar yarim yalang'och holda hayot kichirishgan. Erkaklar ov bilan shug'ullangan bo'lsa ayollar uy yumishlari bilan shug'ullanishgan. Ibtidoiy jamoa davrini matriarxat davrida oila va kabilaga ayollar boshchilik qilganlar va qabila a'zolarining sog'lig'i haqida qayg'urganlar.

Masalan: tug'ayotgan ayolga yordam ko'rsatish, chaqoloqning kindigini bog'lash va kesish, jarrohatlangan a'zolarni bog'lash qon to'xtatish va boshqa muolajalarni amalga oshirganlar. Patriarxat davriga kelib tibbiyot bilan erkaklar shug'ulana boshlaganlar. o'sha davrda asosan ikkita nazariya tafavut qilingan.

1. Diniy-mistik nazariya.

2. Ilmiy materialistik - nazariya. Diniy-mistik nazariya tarafdarlarining fikricha, tibbiyot dastlab ibodatxonalarda paydo bo'lgan. Davolash ishlari bilan birinchi bo'lib koxinlar (ruhoniylar) va rohiblar (monaxlar) shug'ullanganlar. Ular insonning har xil kasallikkardan azob chiqayotganligini ko'rib, ularga rahmlari kelgan va rahm-shavkat yuzasidan bemorlarni davolay boshlaganlar. Ammo, bu nazariya unchalik to'g'ri emas, chunki tibbiyot insoniyat tarixida din kelib chiqishidan ancha ilgari mavjud bo'lgan. Ibtidoiy jamoa davrida yashagan odamsimon, mahluqlar turli xil kasalliklar bilan kasallanganlar va o'ziga xos usul bilan davolanganlar. U vaqtarda esa hali hech qanday din va koxinlar yo'q edi. Binobarin, tibbiyotning kelib chiqishi dinga bog'liq bo'lmagan, u dindan oldin paydo bo'lgan.

Ilmiy-materialistik nazariya. Ilmiy-materialistik nazariyaga asosan tibbiyot, insoniyat jamiyati rivojlanishining dastlabki bosqichida zarurat tufayli, yashash uchun kurash jarayonida kelib chiqqan. Mazkur nazariya qo'l bilan ushlab ko'z bilan ko'rib ilmiy asoslangan nazariya xisoblanadi. Masalan: difteriya kasalligini kuzatuvchisi difteriya tayoqchalari, dizenteriya kasalligini kuzatuvchilari shigella yoki fleksnerlar va hakoza.

Insoniyat jamiyatida tibbiyotning kelib chiqishi haqida yuqoridagi ikki nazariyadan tashqari, yana uchinchi tushuncha ham mavjud. Masalan, ba'zi mualliflarning fikricha ibtidoiy odamlar juda ham baquvvat va sog'lom bo'lganlar, ular hech narsaga muhtojlik sezmaganlar. Chunki atrof tabiatida insonning yashashi uchun hamma narsa bo'lgan. Shuning uchun qech qanday kasallik bilan kasallanmaganlar va davolanishga zarurat sezmaganlar. Bu davr qandaydir "oltin davr" bo'lgan, Tibbiyot esa ancha keyin, insoniyatning madaniy rivojlanish mahsuli sifatida paydo bo'lgan. Bu fikrni mashhur (frantsuz faylasufi Jan Jak Russo olg'a surgan edi. Ammo tarixiy va ashyoviy (arxeologik) ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, o'tgan zamonda hech qanday "oltin davr" bo'lgan emas. Ibtidoiy odamlar juda og'ir sharoitda yashaganlar va juda ko'p kasalliklarga uchrab, davolanishga. Muhtoj bo'lganlar. Angliyalik tabiatshunos olim Devid Ettenbarro avstraliyalik tub joy kishilarining og'ir hayoti misolda ibtidoiy odamlarning qanchalik og'ir ahvolda yashaganliklarini yaqqol ko'rsatib berdi. Ular kiyim-kechak, oziq-ovqatlar va turar joylarga ega bo'limganlar hamda qiyin ahvolda yashaganlar. haqiqatda esa tibbiyot ibtidoiy davr odamlarining yashash uchun kurash jarayonining mahsuli desa bo'ladi.

Dastlabki tibbiy muolajalarni kelib chiqishi ularning rivojlanishida inson organizmizni tuzilishi va uning biologik xususiyatlari muxim rol o'ynagan. Buni quyidagi misolda yaqqol ko'rish mumkin. Bizga ma'lumki, har bir tirik mavjudotning organizmi kasalliklarga qarshilik ko'rsatuvchi biologik xususiyatga ega buni mashhur xakim Gippokrat ham sezgan edi. U "Tabiat davolaydi- tabib esa yordam beradi", - degan edi. Bu erda Gippokrat "tabiat" deganda organizmning tibbiy (biologik) xususiyatini ko'zda tutgan. Kishi tanasining bunday xususiyatga ega ekanligini qadimgi sharq mutafakkirlari ham sezganlar. Masalan, mashhur olim va adib Jaloliddin Rumiy: "Tabib o'z davosi bilan bemor tanasida mavjud bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish xususiyatni oshiradi", - deb yozgan edi. A.Navoiy esa "Dori bemor tanasida xastalikka qarshi kurashish xususiyatini saqlanib qolgandagina ta'sir qiladi", -degan edi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra ba'zi bir oddiy: davolash tadbirlari er yuzida odamlar paydo bo'lmasdan oldin ham ma'lum bo'lgan. Masalan, ba'zi xayvonlar jarohatlangan yoki biror kasallik holati yuz berganda, shifobaxsh o'simliklarni topib eb, kasallikdan qutulib ketganlar, Bu haqda tibbiy-tarixiy adabiyotda ko'p misollar keltirilgan. Masalan, ilon, yovvoyi quyon, puma kiyik, tog' echkisi, ba'zi ular kasal bo'lib qolganlarida yoki shikastlanganlarida shifobaxsh o'simliklarni topib eb, kasallikdan tuzalib ketganlarini ko'p ko'rghanmiz. Bu masalada maymunlar alohida o'rin egallaydi.

Ularning davolash usullari boshqa hayvonlarga nisbatan ko'proq takomillashgan. Yu. Ratsius degan tabiatshunos olim bir gibbon (kichik odamsimon maymun) og'zida yara-chaqa (stomatit) paydo bo'lganida, u o'rmondan qandaydir shifobaxsh o'simlikni topib kelib, uni hamirsimon massaga. aylanguncha chaynaganini ma'lum qiladi keyin kuzatishsa yara chaqadan asar ham qolmaganligi kuzatilgan. hayvonlar bir-birlariga yordam berishni bilganlar. Mashhur tabib Sayid Muhammad Xasrat bu haqda quyidagi misolni keltiradi. "Daryo bo'yiga ikki kush kelib qo'nib, biri tumshugi bilan suv olib, ikkinchisining orqa teshigiga yubora boshlagan. U bir necha marta shu muolajani qaytarib qushning ichagini tozalagandan so'ng, ular yana uchib ketganlar. Sayid Muhammad Xasrat bu misolni keltirib, "odamlar klizma qilishni hayvonolardan o'rgangan" - deb yozadi.

Bizning eng qadimiy ajdodlarimiz o'z a'zolarining o'ziga xos tuzilishi (tik yura olish. har qanday narsani ushlab oladigan qo'l panjasining mavjudligi, hayvonlardan ko'ra yaxshi rivojlanishi davom etib, biogenez bosqichidan-antropogenez davriga o'tdilar. Buning natijasida odamlarning aqliy qobiliyati ham rivojlandi va ularning hayvonlardan farqli ravishda faol harakat qila boshladilar. Masalan, har xil shifobaxsh o'simliklarni qidirib topib, ulardan foydalana boshlaganlar. Er yuzida birinchi bo'lib, muolaja usullarini ishlab chiqqan odamsimoい mahluklar neandertallar hisoblanadi. Shunday mahluklarning suyaklari Afrika va. Osiyo, shu jumladan, o'rta Osiyo xududida topilgan Dunyoda birinchi qadimgi odam suyagi mashhur arxeolog Luis Liki tomonidan 1959 yilda Olduvay dasasidan (Tanzaniyada) topilgan. Bu mahluk ikki million yil muqaddam yashagan.

o'zbekiston xududida bunday odamsimon mahluk suyagi 1987 yilda janubiy Farg'onadagi Sel'ungur gorida topildi. Bu mahluk bundan 800-700 ming yil muqaddam yashagan ekan.

Ma'lumki ilgari odam maymundan aynan shimpanzedan kelib chiqqan, deb faraz qilinardi, Shimpanzening ko'nikmalari shu jumladan muolaja usullari ham odamga o'tgan, deb o'ylardilar. hozir bu fikr inkor etiladi. Darhaqiqat, tarixda hech qachon bir hayvonotning ikkinchi hayvonotga aylanganligi kuzatilgan emas. Bo'ri bo'riligicha, ayiq-ayiqligicha, binobarin, maymun ham maymunligicha qolgan. U hech qachon odamga aylangan emas; uning muolajalari ham odamga o'tmagan. Antropoidlarning maymunga o'xshashlik sababi shuki, ularning har ikkovi bitta negizdan, bir daraxtning shoxidek o'sib rivojlangan. Antropoid avval boshidan tik yuruvchi maxluq sifatida yaratilgan. Uning qo'llari bo'lgan, ular bilan tibbiyotdagि

buyumlarni ushslash va foydalanishni bilgan. Lekin, dastlabki davrda antropoidlarning rivojlanish darajasi juda past bo’lgan. Ularning davolash usullari ham maymunlarning, xususan, shimpanzening davolash usullaridan deyarli farq qilmagan. Ammo antropoidlar o’z davolash usullarini rivojlantirishda davom etganlar. Maymunlar “tibbiyoti” esa o’zgarmay qolavergan.

Shu yangi ma'lumotga binoan tibbiyotning kelib chiqishi haqida tushuncha ham o’zgardi, ya’ni tibbiyotni kelib chiqishiga, maymunlar emas) antropoidlar sabab bo’lganlar, degan fikr paydo bo’ldi. Biz ko’rsatib o’tganimizdek er yuzida antropoidlar Z mln. yil muqaddam yashaganlar. Demak, tibbiyotga ham shuncha yil ilgari asos solingan.

Antropoidlarda hayot uchun kurash, yangi davo usullarini ishlab chiqish, ular hayotining barcha bosqichlarida davom etdi.

Evolyutsion jarayonning ma'lum bosqichiga kelib, antropoidlarda insonlarga xos bo’lgan xususiyatlар paydo bo’la boshlaydi. Ularda idrok ham o’zgarib, ancha rivojlanadi. Lekin bu xususiyatlarni antropoidining odamlarga aylanishi yo’li bilan emas balki uning jismoniy va aqliy imkoniyatlarning rivojlanishi va takomillashi bilan amalga oshgan. Antropoid odamga aylanmaydi, balki uning o’zida mavjud bo’lgan insoniy xususiyatlар rivojlanadi.

Antropoidlar tibbiyotining insonlar tibbiyotiga o’tish chegarasi qurol ishlatilgai kundan boshlanadi. Arxeolo-antropololog olimlarning fikricha, quroldan birinchi bo’lib, avstralopitek deb ataluvchi maxluqlar foydalanganlar. Ularning quroli oddiy tayoq, hayvonlar suyagi va ishlov berilmagan toshlardan iborat bo’lgan. Chunki avstralopiteklar qurol yasashni bilmaganlar. Ular tabiatda mavjud bo’lgan buyumlardan foydalanganlar, xolos.

Pitekantroplar birinchi bo’lib quronga ishlov bera boshlaganlar. Masalan, toshning bir chekkasini urib tushirib, undan kesish quroli sifatida foydalanganlar Bunda yiringlagan joylarni kesish, kindik kesish kabi muolajalarda keng foydalanganlar. Shunday qilib, pitekantroplardan boshlab aktiv davolash usuli amalga oshirila boshlangan. Ular shifobaxsh o’simliklarni ham qidirib topib, ishlata boshlaganlar. Bu bilan insonlar tibbiyotiga birinchi qadam qo'yilgan. Pitekantroplar bundan 800-700 ming yil muqaddam yashaganlar.

Tarakkiyotning bundan keyingi bosqichi biz yuqorida ko’rsatib utgan sinantroplar davridir. Ular odamlarga yana ham yaqindirlar. Sinantroplar qurol yasashda pitekantroplardan ustun turganlar. Masalan, ular tosh va suyakdan o’tkir qurollar

yasay olganlar. Ushbu yasagan asboblaridan tibbiy muoalajalar uchun keng foydalangan. Masalan yiring boylagan joylarni kesish, jarohatlarni bog'lashda shifobaxsh o'simliklarning yaproqlarini ishlatishgan.

Ularning muolaja usuliga kelsak, bu masalaga oid materiallar hozircha kam uchraydi.

Neandertal odamning muxim xususiyati shundan iboratki, ularda so'zlash qobiliyati paydo bo'lган. Bu esa tibbiyat rivojlanishida muxim rol o'ynagan. Masalan, bemor o'z kasalligi haqida ma'lumot berish, qaeri og'riyotgani, nima bezovta qilayotganini aytib bera olish imkoniyatiga ega bo'lган va shunga binoan davo choralari ko'rilgan.

Mezantroplarning eng katta kashfiyoti kamon o'qi bo'lган. Bu quroq bilan har qanday hayvonni ham uzoqdan turib otib o'ldirish imkoniyatiga ega bo'lганlar. Ular shu yo'l bilan hayvon go'shtini eb; moy, sut, jigari, terisini esa davolash maqsadida ishlata boshlaganlar.

Mezantroplar birinchi bo'lib ba'zi hayvonlarni (echki, qo'y, sigir) qo'lga o'rgata boshlaganlar. Bunday chorvachilik bilan bir qatorda ular birinchi bo'lib, erga ekin ekish usulini ham o'rganib olganlar. Tabiatdagi o'simliklarni yig'ib-terib ishlatishgan, ekinlarni sun'iy o'stirishga o'tganlar. Bunday ekinlar qatorida shifobaxshlari ham bo'lган. Shunday qilib bizning uzoq o'tmishdagi ajdodlarimiz davolash maqsadida o'simlik va hayvon mahsulotlarini o'zları tayyorlab ishlatishni o'rganib olganlar. Antropoidlarning odam tomon rivojlanishidagi oxirgi bosqichi-neantroplar davridir. Bular neolit, ya'ni tosh davrida yashaganlar. Neantroplar tashqi ko'rinishda insonning hamma belgilariga ega bo'lганlar. o'zları uchun kiyim tikish va ovqat pishirishni bilmasdan oldinroq ba'zi muolaja usullarini o'rganib olganlar.

Ibtidoiy jamoa davrida yashagan odamlar ham o'simliklardan olinadigan moddalarning xususiyatini yaxshi bilganlar. Ibtidoiy jamoa davrining oxiriga kelib, tibbiyat kishilarning zaruriy faoliyatlaridan biriga aylandi. Bu ish bilan shug'ullanuvchi kishilar uni o'zlariga kasb qilib olganlar. Shunday qilib, tibbiyat kishining faoliyatining alohida sohasida aylanadi va tibbiyat kasbi kelib chiqadi. Tibbiyat kasbining kelib chiqish mehnat taqsimotining natijasi edi. Binobarin, o'sha zamondayoq kishilar o'rtasida mehnat taqsimoti vujudga kelgan edi. Dastlabki davrda mehnat taqsimoti oddiy bo'lган. Masalan, ayollar bilan erkaklar o'rtasida, bolalar bilan kattalar o'rtasida qariyalar bilan yoshlар o'rtasida mehnat

taqsimlanganlar. Ayollar ko'proq o'z o'choqlari yonida qolib, ba'zi bir kundalik zaruriy ishlar bilan shug'ullangailar, bolalarni boqqanlar. Bolalar onalariga va kattalarga yordam bergenlar, qariyalar esa og'ir ov mehnatidan qutulib, yoshlarga hayotiy ishlarni o'rgatish bilan shug'ullanganlar. Dastlab tabibchilik bilan sartaroshlar shug'ullangan. Ular og'rigan tishlarni sug'urib olish, xatna qilish, zulik solish kabi muolajalarni amalga oshirishgan. Shu tarzda tabiblik kasb sifatini oladi. 'Tabiblikka ham hamma kasblar kabi boshdanoq oilaviy xususiyatga ega bo'lган. Bu kasb avloddan-avlodga o'tib boradi. har bir tabib o'z davolash usullari va o'zi ishlatadigan dorilariga ega bo'lishga harakat qilgan. Bu usul va dorilar boshqalardan sir saqlangan. Tabiblar kasalliklarni to'g'ri aniqlash va muvuffaqiyatli davolash yo'llarini axtarganlar undan kelib, tashxis (diagnoz) va davolash usullarini takomllashtirib borgan. Tabiblar kasalliklarning sabablari bilan ham qiziqa boshladilar. Bu haqda ma'lum fikrlar paydo bo'lган.

Kishilar kasallik qanday va qaerdan keldi degan savol bilan shug'ullanmaganlar. Ular bemor qanday qilib kasal bo'lib qoldi deb surishtirib o'tirmay, uni davolayverganlar. Masalan, bemornint ichi ketayotgan bo'lsa, bu ich ketish sababi nimada deb surishtirib o'tirmay, ich to'xtatuvchi dori berar edilar xolos. Kishilarda abstrakt fikrlash qobiliyati paydo bo'lганidan keyin ular tabiatdagi xodisalarga qiziqa boshladilar. Bu xodisalarning mohiyati va sababini anglashga intildilar. Ammo tabiiyki, u vaqt dagi odamlarning aql-idrok darajasi bu xodisalarни anglashga ojiz edi. Kishilar tabiatdagi vaximali xodisalar (chaqmoq, momakaldiyoq, er qimirlash, sel yog'ish, suv toshqini) ta'sirida edilar. Ular asosan suv, olov, quyosh va boshqalarga sig'inishgan va ulardan shifo topish uchun madad so'raganlar.

Malumki, ibridoiy jamoa davrining oxiriga kelib din paydo bo'ladi va. barcha. xodisalar dinga bog'lana. boshlaydi. Din tibbiyat sohasiga ham yoyiladi. hamma narsa, jumladan kasallik ham xudodan. deb faraz qila boshlaydilar. Shunga ko'ra davolanishda xudo va payg'ambarlarga. sajda qila, boshlaydilar, har xil diniy marosimlarni o'tkazadigan bo'ldilar. Ammo amaliy tibbiyatda hayot tajribasiga asoslangan to'g'ri fikrlar ham shakllanadi. Tabiblar og'ir jismoniy va ruhiy hayot kechirayotgan moddiy jihatdan ta'min etilmagan va og'ir mehnat sharoitida ishlovchi kishilarda har xil kasalliklar ko'p uchrashini ko'zdan kechirib, shu omillar. Kasallik keltirib chaqirar ekan, deb to'g'ri xulosa chiqarganlar, Bu masalada avvalo ovqatlanishga alohida e'tibor bergenlar. Sifatsiz ovqat iste'mol qilish, to'yib ovqat emaslik yoki aksincha batxo'rlik kasallik keltirib chiqarishini, iqlim, ob-havo va boshqa tabiiy omillar ham odamga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi mumkinligini aniqladilar. Ammo kasallik paydo bo'lishida ilohiy kuchlar ishtirok etishi haqidagi

tushuncha ham saqlanib qoladi. Shu tushunchaga muvofiq davo choralari ham ishlab chiqiladi.

Amaliy tibbiyotda esa davo sifatida ishlatiladigan dori-darmonlar soni ancha ko'payadi, ular bir necha yuzga etadi. o'simliklar qatoriga mineral moddalar ham qo'shiladi. Shu asosida tibbiyot boshqa kasblarga nisbatan ancha tez rivojiana boshlaydi, chunki tibbiyotda bo'lgan muhtojlik katta bo'lgan. Tabiblarning o'zi ham bemorlarni davolashdan manfaatdor bo'lganliklari uchun bu kasbni kengroq rivojlantiradilar.

Vazifa №1

Arxeologik topilmalar – tibbiyotdan so'zlaydi.

Vazifa №2

Birinchi tibbiy muolajalarni yaratilish tarixi.

Vazifa № 3 Tibbiyot tarixini « BG` BOG` B, » grafik organayzer yordamida urganishni ibtidoiy jamoa tuzumi davrida tibbiyotni rivojlanishi mavzusida ishlab chikish

Bilaman

Bilmokchiman

Bilib oldim

Manbalar

Arxeologik manbalar

Kadimgi odamlar skeleti, tibbiyotga oid kadimiy asboblar

BG`BXG`B JADVALI

Bilaman

Bilmokchiman

Bilib oldim

Manbalar

Arxeologik manbalar

Kadimgi odamlar skeleti, tibbiyotga oid kadimiy asboblar

Arxeologiya

Antropologiya, polepatologiya, polebiologiya

Kadimgi odamlardagi nuksonlar lordoz, kifoz, skalioz,

Kadimgi odamlarni kasallangan suyagi, suyak sili kon guruxlari va.x.k.

Tibbiy-tarixiy nazariyalar

Diniy mistik va ilmiy materialistik

Tibbiyotni din bilan boglab urganish (duoxonlik) ilmiy materialistik bu ilmiy jixatdan asoslangan (mikroblar kasallikkarni kuzgatuvchisi v ax.k.)

Ontologik tushuncha

Anemizm, fetishizm, totemizm

Anemizm-ruxlarga signish fetishizm –jonsiz predmetlarga (tosh, xaykal) signish totemizm – xayvonlarga signish.

Interaktiv usullar

«Ruchka stol o'rtasida» usuli

Barcha guruh talabalariga topshiriq beriladi. har bir talaba varaqga javoblarni yozib uni guruhdoshiga uzatadi va o'zining ruchkasini stol o'rtasiga surib qo'yadi.

Neondertal odamlar va ilk tibbiyat muolajalarini o'zaro bog'liqligidagi asosiy sabablar nimalardan iborat? Tibbiyat tarixini o'rganishda yozma manbalarni ahamiyati qanday?

Tibbiy asbob uskunalarini yaratilishi tarixini gapirib bering?

Materiarxart va pateriarxat davrida tibbiyotni rivojlanishiga xos xususiyatlarni gapirib bering?

Ilk tibbiy muolajalarini ishlab chi'kilish tarixi hikoya qilib bering.

Test savollari

1.Tibbiyat trixini o'rganishda qaysi manbalarga tayanamiz?

- A) arxiologiya, yozma asarlar
- B) yozma asarlar, shifoxonalar
- V) qo'lyozma asarlar, poliklinikalar.
- G) lazaretlar, qabilalar
- D) Antropologiya, turli asboblar

2.Insoniyat jamiyatida tibbiyotning kelib chiqishidagi nazariyalar?

- A) Diniy – mistik, ilmiy materialistik
- B) Materialistik, ibtidoiy jamoa
- V) Idealistik, quldorlik
- G) Kapitalistik, diniy mistik.
- D) Feodalizm, diniy mistik

3.Er yuzida birinchi bo'lib, muolaja usullarini ishlab chiqqan odamsimon mahluqlar?

- A) Antropoidlar
- v) Sinantroplar
- d) Mezontroplar
- B) Pitekantroplar
- g) Paleoantroplar
- e) Neantroplar

4.Antropologiya nimani tekshiradi?

- A) qadimgi odamlarning gavda tuzilishi, biologik xususiyati, yashash sharoitlarini
- B) qadimgi odamlarning kasallanishi va davolanish choralarini
- V) qadimgi odamlarning tibbiy asboblardan foydalanganligini
- G) Ibtidoiy jamoa tuzulishidagi odamlarni
- D) quldorlik davridagi tibbiyotga oid eski asarlarni.

5.Yozma asarlar nechaga bo'linadi?

- A) qo'lyozma asarlar, bosma (chop etilgan) asarlar
- B) Eski yozuvlar, jurnallar
- V) Bosma asarlar, toshga o'yib yozilgan asarlar
- G) ilmiy asarlar, eski kitoblar

Kontrol savollar

Neondertal odamlar va ilk tibbiyot muolajalarini o'zaro bog'liqligidagi asosiy sabablar nimalardan iborat? Tibbiyot tarixini o'rganishda yozma manbalarni ahamiyati qanday?

Tibbiy asbob uskunalarini yaratilishi tarixini gapirib bering?

Materiarxart va pateriarxat davrida tibbiyotni rivojlanishiga xos xususiyatlarni gapirib bering?

Ilk tibbiy muolajalarini ishlab chi'kilish tarixi hikoya qilib bering.

Mavzu: qadimgi g'arb mamlakatlarida tibbiyotni rivojlanishi (Asklepiy, Gippokrat, Antil, Galen va boshqalar).

Maqsad: quzdorlik davrida qadimgi g'arb mamlakatlarida Yunoniston, Rimda tibbiyotni shakllansishi va rivojlanishi va buyuk ixtirolarni kashf etilishi va ularni amaliyotda qo'llanilish tarixi bilan tanishtirish.

Vazifalari (kutilgan natijalar)

- Yunonistonda ilk bor ilmiy tibbiyotga asos solinishi va tibbiyotni yuksalishini ko'rsatib berish,
- Gigiya va Panakeyani tibbiyotda tutgan o'rnnini hikoya qilib berish
- Kroton, Knidos, Kos maktabalarini ahamiyatini ko'rsatish

Nazariy qism

qadimgi g'arb mamlakatlarida tibbiyotning rivojlanishi (Yunoniston, Rim).

KOS tibbiyot maktabi KOS orolida tashkil topgan. Uning eng yirik vakili Gippokrat bo'lgan. Gippokratni tibbiyotning otasi, deb bilishadi.

Bu maktab praktik yutuqlarga erishgan. Jarrohlik uslublari yaxshi ishlab chiqilgan bo'lsa-da, Sushruta maktabiga darajasiga etolmagan. Ular churroni davolay olmaganlar va plastik operatsiyalarni yasashni bilmaganlar. Gippokrat eramizdan avvalgi 460-372 y. Kos shahrida tuzilgan. Uning otasi - geraklid-vrach, onasi-Fenarata akusherka bo'lgan. Gippokrat uylanganidan keyin Afina shahriga ko'chadi. o'sha vaqtarda Afina fan va madaniyat markazi bo'lgan. U erda ko'plab olimlar, tarixchilar, shoirlar, vrachlar yashaganlar. Bular mashhur tarixchi Gerodot, shoir Pindar, dramaturglar Sofokl, Evripid, Aristofan, xaykaltaroshlar - Miron, Fidiy, Pachiklet va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Jahonda birinchi marta atom nazariyasini kashf etgan Demokritni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Bundan tashqari, Anansagor, Protagor, Sokratni ham ko'rsatib o'tish mumkin. Gippokrat bularning hammasi bilan tanishib, ularning dunyoqarashini o'rganadi. Unga ayniqsa Demokritning materialistik falsafasi zo'r ta'sir ko'rsatadi.

Gippokratning vrachlik va olimlik nazariyasi Demokritning materialistik qarashlariga asoslangan.

Gippokrat ko'p mamlakatlar bo'y lab sayohat qilgan. U Misr, Kichik Osiyo, o'rta dengiz mamlakatlari bo'y lab yurib, u erdag'i xalqlarning turmushini o'rgangan, ularning kasalliklarini sinchiklab tekshirgan.

Shuning natijasida Gippokrat o'z mahoratini va bilimini oshirgan. Gippokrat odamlarni tur toifaga ajratgan. Bu fikrini o'zining "havolar, suvlar, mamlakatlar" degan kitobida bayon etgan. Bundan tashqari, u Aforizmlr, Prognostika, Epidemiyalar degan asarlarini yozgan.

Epidemiyalar kitobida yuqumli kasalliklarning haqida fikr yuritgan. Bu kitobda 42 kasallikning nomi keltirilgan.

Gippokrat o'z dunyo qarashiga binoan materialist bo'lgan. Uning fikricha hamma borliq atomdan iborat bo'lgan. hayot esa atomlarning xarakatidan kelib chiqadi degan fikirda bo'lgan. Gippokrat kishilarning turmush tarzlarida o'zgarishlarining bo'lismeni, ularning ko'p yoki kam ovqat eyishiga, ichkilikka nisbatan qanday munosabatda bo'lismiga, mehnatni sevish yoki sevmasligiga e'tibor berishni tavsiya etgan. Chunonchi, urf odatlarning ham kishi og'ligiga ta'sir etishini takitlab o'tiladi. Masalan ba'zi xalqlarda chiroyli bo'lish maqsadida yosh bolaning boshini tang'ib qo'yib, kalla suyagini cho'ziq shaklga keltirishga harakat qilgan. Bu esa

tibbiyot nuqtai nazardan miyalarning yaxshi rivojlanmasligiga va boshqa salbiy oqibatlarga olib kelgan. Bunda albatta ko'p xolatlarda nasliy kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Umuman kasalliklarni kelib chiqish masalasida Gippokrat boshqa yunon vrachlari singari "kraziya" (organizmdagi qarama-qarshi kuchlarning muvozanatda qo'shilgan bo'lishi) va "diskraziya" (shu muvozanatning buzilishi) nazriyalariga asoslangan.

Gippokratning fikricha har xil temperamentli kishilarga bo'lingan odamlar turli kasalliklarga nisbatan sezgir bo'ladilar. Masalan flegmatiklar quruq va issiq harorat kunlari o'zlarini yaxshi xis etib kor yomg'irlilik kunlarda o'zlarini yomon xis etadilar. Xolerliklarni iqlimi quruq bo'lgani uchun ular havo nam bo'lganda, o'zlarini yaxshi sezadilar. quruq va issiq xaroratga chidash bermaydilar. Melonxoliklar kasalliklarga tez-tez chalinib turadi. Sangviniklar eng chidamli toyifadagi odamlar hisoblanadi. Gippokrat dunyoda birinchi bo'lib har bir kasalga kasallik tarixi varaqasini joriy etgan. U vrachlar qasamiyodini kiritgan. Shuningdek tibbiyot bo'yicha eng yirik asari "Gippokrat to'plami" hisoblanib har bir vrach uchun asosiy qo'llanma hisoblangan. Gippokrat "Davolashdan oldin o'ylab ko'r, davolayman deb bemorga zarar etkazma" degan dono iborasi tibbiyotda davolovchi shifokorlar uchun shior bo'lib qolishi kerak.

Gippokrat umrini oxirida Larisase shahrida yashagan va shu erda vafot etgan.

Klavdiy Galen qadimgi Rim vrachlar orasida eng mashhuri bo'lgan. U Pergam shahrida arxitektor oilasida dunyoga kelgan. Galen falsafa va tibbiyotni chuqr o'rgangan. Shundan so'ng gladiatorlar maktabida olti yil davomida vrach sifatida faoliyat ko'rsatgan. U Rimga kuchib kelgandan keyin imperator Mark Avreliy saroyida xizmat qiladi va uning favotidan so'ng o'g'liga xizmat qilgan. Galen tibbiyot sohasida 200 dan ortiq asar yozgan shundan, bizgacha 140 tasi etib kelgan. Galen organizmida ruh borligini e'tirof etgan. Uning fikriga qaraganda ruh organizmdagi barcha jarayonlarni idora qilib turadi. Agar organizm va ruh o'rtasida kelishmovchilik bo'lsa kasallik kelib chiqadi deb gumoral nazariyaning tarafdori bo'lgan. Galen anatomiya fanini rivojlantirib asosan, ko'proq cho'chqa va maymunlarning qorin bo'shlig'ini yorip eksperiment o'tkazilgan. Bunda u organizmdagi 2 turdagи to'qimlarni kashf etadi.

1. muskul, pay, tomir va nervlar.

2. jigar, o'pka, yurak.

Galen bir qancha yangi muskullarni jumladan orqa muskul, bo'yin, umurtqa, ko'z, chaynov, xiqildoq, qo'l va oyoq panjalarining muskullariga yaxshi ta'rif bergan. Galen miyadan chiqqan nerv tolalari miya muddasining o'zidan hosil bo'lishini birinchilardan bo'lib isbotlangan. Shuningdek u "nervus vagusning" tolalarini o'pka va oshqozon sohalarda borligini aniqlaydi. Olim fiziologiya sohasida ham tekshirishlar olib borib, orqa miyani kesib organizmdagi o'zgarishlarni batafsil yozgan va orqa miyada sezuvchi va xarakatlantiruvchi nerv tolalari borligini tasdiqlangan. XIX asrga kelib Charlz Ber va Majandilar buni yana bir karra isbotladilar. Shu sababli ham Galen jahon tibbiyotiga o'zining klinik qarashlari bilan ilmiy materialistik nazariya asosida yuksak muvoffaqiyatlarga erishgan.

g'arbda klassik qudrlik jamiyati dastlab Yunoniston va Rimda paydo bo'lган. Antik Yunoniston meditsinasida mustaqil vrachlar va vrach omillari paydo bo'lган. Bu davr eramizdan avvalgi XII asrga to'g'ri keladi.

Bizning ma'lumotlarimiz etarli emasliga qaramay, ba'zi manbalarga suyangan holda o'sha vaqtdagi yunonlar meditsinasи haqida ma'lum tushuncha xosil qilish mumkin. Masalan: ba'zi ma'lumotlarni Gomerining "Iliada" sidan, Troya shahrining qanday qilib man qilganlarini va uni zabit etganlarini bilish mumkin. Shu urushda Yunonlar armiyasi safida bir qancha shifokorlar ham qatnashganlar. qadimgi yunon afsonalariga ko'ra bu mamlakatda birinchi vrach Asklepiy bo'lган. So'ngroq "vrachlarning xudosi" degan nom olgan.

Uning ikki qizi va ikki o'g'li bo'lган, ular ham ota kasbini davom ettirishgan. Ug'lliarining birinchi ismi Maxaon, ikkinchisini esa Padameriy bo'lган. qizlarini ismi Gigiya va Panakeya bo'lган. Gigiya kasalliklarning oldini olishni juda ham yaxshi bilardi. Shuning uchun hozir o'rganadigan fan g`profilaktikani o'rgatadigang "gigiena" deb ataladi.

Panakeya har xil dorilarni tayyorlashga usta bo'lган. U tayyorlaydigan dorilarni "panatseya", ya'ni hamma kasalliklarga da'vo, deganlar. "Panatseya" so'zi Panakeyaning ismidan hosil bo'lган. Ammo haqiqatda bir davo usuli ko'p kasalliklarga yordam bermaydi, chunki turli kasalliklarning sababi turlichadir.

Afsonalarga qaraganda, Asklepiy onasidan tug'ilmagan. Uning otasi Appolon g`quyosh xudosig` o'z xotinini, Kronidaning qornini yorib, Asklepiyni chiqazgan. Afsona-afsona-yu, lekin undan greklarda o'sha zamonlardayoq tibbiyotning naqadar yuksak darajada rivojlanganligini anglashimiz mumkin.

o'sha vaqtarda qadimiy greklar "keserevo sechenie" operatsiyasini qilishni bilganliklari aniqlangan.

Aklepiy qulida ilon uralib olgan: hassa ushlagan chol sifatida tasvir etilgn. Aklepiyning qizi - Gigiya esa qo'lida kosachadan suv ichib turgan go'zal qiz sifatida tasvirlanadi. "Gigiya" ni salomatlik xudosi deb bilishadi. hozirgi vrachlarning emblemasidan uning kosacha va ilonini ko'rsa bo'ladi.

Ilon qadimdan aqlilik ramzi, deb qabul qilingan. Buning ma'nosi shuki, vrach aqli va qobiliyatli bo'lishi kerak.

Vazifa №1

qadimgi davolash ishlarini zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyati.

Vazifa №2

Gippokratni hayot va faoliyati.

Vazifa №3

Galen va uni tibbiyotda tutgan o'rni

Vazifa №4

qadimgi g'arb tibbiyotidagi olamshumul ixtiolar.

Vazifa №5

Tibbiyot tarixini «Klaster» grafik organayzer yordamida urganishni Kadimgi Garb mamlakatlarida (Gippokrat, Galen) tibbiyotni rivojlanishi mavzusida ishlab chikish

G`

interaktiv usullar

«qorbo'ron» usuli

Gurppa 2 ta guruhchaga bo'linadi va bitta muammo yoki vaziyatni muhokama iladi. har bir to'g'ri javob ball sifatida ushbu guruhga «qorbo'ron» shaklida yozib boriladi. Eng yuqori ball to'plagan guruhga a'lo baho qo'yiladi.

1.qadimgi Yunonistonda tibbiyotni rivojlanishi va unda Galen va Gippokratni tutgan o'rni?

2.Mazkur tibbiyot allomalarini olamshumul ixtiolarini aytib bering.

3.«Iliada» va «Gippokrat to'plami» asarlarini jahon tibbiyotida tutgan o'rni?

4.Tibbiyot maktablarini jahon tibbiyotida tutgan o'rni.

5.Rim tibbiyotini rivojlanishi va unda Galenni tutgan o'rni Tibbiyot tarixini o'rganishda yozma manbalarni ahamiyati qanday?

Test savollari

1. Gippokratning vrach ahloq-odobga atalgan asarning nomini ko'rsating.

- A) «Aforizmlar».
- B) «Prognostika» (bashorat ilmi)
- V) «havo, suv va joy haqida»
- G) «Epidemiyalar»
- D) «Mijozlar haqida»

2. qadimiy Yunonistonda «Tib xudosi» deb atalmish kimsaning ismini ko'rsating.

- A) Asklepiy (Eskulap)
- B) Apollon
- V) Gippokrat (Suqrot)
- G) Aristotel
- D) Galen (Jolinus)

3. Gippokratdan bizgacha etib kelgan asarlarning sonini ko'rsating

- a) 70
- b) 52
- v) 112
- g) 205
- d) 404

4. Galenga xos yanglish g'oyani ko'rsating.

- A) Erkakning ung 12-kobirg'asidan ayol kishi yaratilgan
- B) Yurakning chap qorinchaсидан jon saqlanadi, shuning uchun uning devorlari qalin bo'lib, muvozanatni saqlaydi.

V) qon jigarda ishlab chiqarilib, yuraka o'tadi va unda pnevma bilan aralashib, tanaga yoyilib, shimilib ketadi.

G) Odam tanasi 4 qismdan tashkil topgan – havo, suv, er va olovdan

D) miya yurakni sovutib turadigan suyuqlik ajratib turuvchi katta bezdir.

5.Gallenning shoh asari nomini ko'rsating.

A) «Odam tanasining a'zolarini foydasi haqida» (17 tomlik)

B) Tabobat haqida» (8 tomlik)

V) «Tib mahorati qonunlari» (5 tomlik

G) Odam tanasining tuzlishi haqida (7 tomlik)

Kontrol savollar

1.qadimgi Yunonistonda tibbiyotni rivojlanishi va unda Galen va Gippokratni tutgan o'rni?

2.Mazkur tibbiyot allomalarini olamshumul ixtiolarini aytib bering.

3.«Iliada» va «Gippokrat to'plami» asarlarini jahon tibbiyotida tutgan o'rni?

4.Tibbiyot maktablarini jahon tibbiyotida tutgan o'rni.

5.Rim tibbiyotini rivojlanishi va unda Galenni tutgan o'rni Tibbiyot tarixini o'rGANISHda yozma manbalarni ahamiyati qanday?

Mavzu: qadimgi Sharq mamlakatlarida tibbiyotni rivojlanishi (o'rta Osiyo, Misr, Eron, Xitoy, hindiston va boshqa mamlakatlar)

Maqsad: quzdorlik davrida qadimgi Sharq mamlakatlarida tibbiyotni rivojlanish tarixi, mashhur olimlarni buyuk ixtirolarni kashf etilishi va ularni amaliy tibbiyotda qo'llanilish tarixi bilan tanishtirish va ularni yutuqlari belgilash.

Vazifalari (kutilgan natijalar)

Mashg'ulotni o'tib bo'lgach talabalar quyidagilarni bilishlari shart:

- Imxoteb ibodatxonasi va bemorlarga tibbiy yordam berish uchun xonalarni ajratilishi,
- Sharq mamlakatlarida kasallik sababi masalalari
- qadimgi Xitoy tibbiyoti, Van Shu Xe ni tibbiyotda tutgan o'rni,
- qadimgi Xitoy tibbiyotidan kirib kelgan muolaja usullari va uning hozirgi tibbiyotda qo'llanilishi
- qadimgi hindiston tibbiyoti va uning asoschisi Sushrutani olamshumul ixtirolari.

- qadimgi hindiston tibbiyotida Traeton va uni tibbiyotda tutgan o'rni
- o'rta Osiyoda «Avesto» asarida tibbiyot masalalari va uni tub mohiyati.

Nazariy kism

qadimgi sharq insoniyat taraqqiyotining beshigi hisoblanadi. Ilm-fanning hamma sohalari, shu jumladan tibbiyot ilmi ham dastlab Sharq mamlakatlarida paydo bo'lgan. Buni arxeologik qazilmalar vaqtida topilgan ashyoviy dalillar va tarixiy ma'lumotlar isbotlaydi. Masalan, Afrika va Osiyo qit'alarida olib borilgan arxeologik qazilmalar chog'ida qadimgi ajdodlarimiz qanday kasalliklar bilan og'riganlar va qanday usulda davolanganliklarini ko'rsatuvchi juda ko'p dalillar topilgan. Shularga asosan biz uzoq o'tmishning ayrim davrlarida, ayrim mamlakatlarda tibbiyot qanday darajada rivoj topganligi haqida ma'lum tushunchaga ega bo'lishimiz mumkin. Biz tubanda qadimiay ayrim Sharq mamlakatlarida tibbiyotning rivojlanish tarixi bilan tanishib chiqamiz.

Markaziy Osiyoda fan va madaniyatning gullab yashnashi, xususan, tibbiyotning ravnaq topishi eramizning X-XIII asralariga to'g'ri keladi. Ayniqsa Markaziy Osiyoda Somonilar hukumronlik qilgan davrda fanning turli tarmoqlari gurkirab rivojlanadi, bir qator qomusiy allomalar etishib chiqadi. Bular sirasiga Muhammad al-Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy va mashhur tibbiyot olimi Abu Ali ibn Sinolar bo'lib, ular o'z sohalari bo'yicha olamga dong taratgan. IX asrda Markaziy Osiyoda atoqli falakiyatshunos Abul Abbas Ahmad ibn Katar al-Farg'oniy yashab ijod qilgan bo'lsa, X asrning birinchi yarmida Buxoroda mashhur geograf va tarixchi – Narshaxiyalar yashab ijod qilgan. XI asrda yashagan taniqli solnomachi Maxmud qoshg'oriy va boshqa ko'plab olimlarni misol qilib keltirish mumkin. Vatanimizda tibbiyot sohasida esa X-XI asrlarda Abu Ali ibn Sino, XII asrda Ismoil Jurjonyi va XII-XIII asrda yana bir tibbiyot olimi Umar Chag'miniylar katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Markaziy Osiyoda, xususan, hozirgi o'zbekiston xududida tibbiyot X- XI asrlarga kelib fan sifatida shaklanadi, bu fanining rivojlanishi va dunyo miqyosida ravnaq, topishi birinchi galda Abu Ali ibn Sino faoliyati bilan bog'liqdir. X asrdayoq buyuk tibbiyot olimlarimiz yaratgan asarlar va ularning faoliyatlari bizning tibbiyotimizni jahon tibbiyotining namunalari darajasiga ko'tardi.

Shunday qilib, X – XI asrlarda Sharq va g’arb mamlakatlarida mashhur tibbiyot olimi Abu Ali ibn Sino (980 – 1037) uzining ilmiy–amaliy ishlari bilan katta hurmat qozonib, xirurgiya faniga beqiyos hissa qo’shgan. U Evropa adabiyotlarida Avitsenna nomi bilan mashhudir. Chunki, kurrai zaminda mashhur tabib sifatida taniladi. Uning nomi jahon fani tarixi va madaniyati tarixida antik davr donishmandlari Gippokrat, Suqrot, Aflatun, Arastu, Ar-Roziy, shuningdek, yurtdoshimiz Abu Rayxon Beruniy kabi buyuk allomalar bilan bir qatorda turadi.

Bundan ko’rinib turibdiki, Abu Ali ibn Sino nafaqat tibbiyot fani bilan, balkim boshqa fanlarni ham katta mahorat bilan o’zlashtirib olgan qomusiy bilim egasi bo’lgan. Shunindek, Abu Ali ibn Sino besh kitobdan iborat bo’lgan mashhur “Tib qonunlari” asarini, taxminan, 1000 yillarda Xorazmda yoza boshlab, 1020 yillarda tugatgan. Mazkur asar dunyoning ko’p tillariga tarjima qilingan. Zotan “Tib qonunlari” muqammad tibbiyot dasturuamal hisoblanib, XVIII asrgacha Sharq va g’arb mamlakatlarining tibbiyot olamida asosiy qo’llanma sifatida xizmat qilgan.

Ibn Sinoning tavalludiga 1000 yil to’lishi munosabati bilan “Tib qonunlari” ning ikkinchi tuzatilgan nashri 1981 yilda qayta chop etildi. Abu Ali ibn Sinoning xirurgiya sohasidagi xizmatlari juda muhim ahamiyatga ega bo’lib, “Tib qonunlari” asarining III va IV kitoblari xirurgik kasalliklarni davolashga bag’ishlanlan. “Tib qonunlari”ning III kitobidagi paragraflari ayrim xirurgik kasalliklarning diganostikasi, va xirurgiyasi, ularni davolash usullari haqida ma'lumotlar beradi. “Tib qonunlari”ning IV kitobida esa o’sma kasalliklari va mutasillikning buzilishi kabi dolzarb mavzular yoritiladi. Shuningdek, shikastlanishlar va yallig’lanishlar moxiyati, ularni davolashda tadbiq etiladigan davo usullari mufassal yoritilgan. Abu Ali ibn Sino tibbiyotni, nazariy va amaliy qismlarga bo’lib o’rganadi. Darhaqiqat, Ibn Sino bu ikki qism bir-biridan ajralmas, ya’ni bir butun fan sifatida, birinchisi – tibbiyotning asosi haqida fan xisoblansa, ikkinchisi – fan bilan amaliyotdagi qanday shug’ullanish kerakligini ko’rsatadi, deb ta’kidlaydi. Ibn Sinoning bu so’zlari barcha klinik fanlarga, shu jumladan, amaliy xirurgiyaga ham taaluqlidir.

“Ibn Sino bemorlarning umumiyligi ahvolini o’rganishni kasallikka tashxis qo'yishning ostonasi deb hisoblagan” Ibn Sinoning fikriga qaraganda, bemorlarning ahvoli, faolligi, chehrasiga aks etgan belgi, ovqatlanishi bemorni yaxshilab so’rov qilish va boshqalar muxim diagnostik ahamiyatga ega bo’lgan. Bundan tashqari, olim bemorlarga tashxis qo'yishda tomir urishi, paypaslab ko'rish, dukullatib urib ko'rishga ham alohida e'tibor bergenligi Ibn Sino hayoti va faoliyatiga

bag'ishlangan kitoblarda o'z aksini topgan. Chunki, Ibn Sino mashhur "Tib qonunlari" asarida shaxsiy kuzatuvlari va tajribalari natijasida xirurgik kasalliklarga ta'rif bergen va birinchilardan bo'lib ushbu kasalliklarga ta'rif bergen va birinchilardan bo'lib ushbu kasalliklarga qiyosiy tashxis qo'ygan. U o'z tabiblik faoliyatida ko'plab kasalliklarning kechishi ustida kuzatuv ishlari olib boradi, tekshiruv o'tkazadi va natijada kasalliklarning kechish xususiyatlarini o'rganib davolashning eng samarali usullarini ishlab chiqadi.

V.K. Jumaevning yozishicha, "Ibn Sino xirurgik kasalliklardan kuyish, yiringli yallig'lanish, suyak chiqishi va sinishi, siydik kopchasidagi toshni olib tashlash, churra va boshqa xirurgik kasalliklarni davolashga ko'p e'tibor berdi va venesektsiyani yozdi". Bunday ma'lum bo'ladiki, Abu Ali ibn Sino turli xirurgik muolajalarni amalga oshirgan va xalq orasida shuhrat qozongan tabib va olim bo'lган.

Darvoqe, Ibn Sino kasalliklarga tashxis qo'yish masalasida bemor peshobi va najasiga baho berish muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Ibn Sinoning yozishicha, go'sht yuvindisini eslatuvchi "qizil rangdagi peshob" buyrak kasalliklari uchun xarakterli bo'lsa, tiniq qizil rangli peshob esa siydik qopchasi va siydik yo'llari kasalliklari uchun xarakterlidir (qon aralash). Peshobning nisbiy cho'kmasi Ibn Sinoning yozishiga "qumga o'xhash cho'kma borligi haqida yoki qattqlashish davridan dalolat berishi mumkin", deb ta'riflaydi.

Abu Ali ibn Sino haqiqatdan ham anatomiya fani xirurgiyaning asosi ekanligini teran anglaydi. o'sha davrda murdalarni yorib o'rganish qat'yan taqiqlanar edi, olim shunga qaramasdan yashirin ravishda bo'lsa ham murdalarni yorib, odam anatomiyasini yaxshi o'zlashtirib oladi. Shundan keyin esa o'z tajribalarini bemorlarga muolaja ko'rsatishda qo'llaydi.

"Olim xirurgiya sohasida ko'pgina yangi usullarni kiritdi. Masalan, u elka bug'imi chiqqanda uni o'ziga xos usul bilan davolash usulini ishlab chiqqan. Bu usul Ibn Sino usuli deb atalib kelingan. qovuqdan toshni operatsiya usuli bilan olish texnikasini o'sha zamonda Ibn Sinodek mukammal yozgan olim qadimgi Misr madaniy hayot va ilm-fanning rivojlanishi jihatidan boshqa Sharq mamlakatlariga nisbatan etakchi o'rinnegallagan. Misr tibbiyat sohasida ham eng qadimgi tarixga ega. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Misrda eramizdan oldingi IV ming yillikdayoq birinchi tibbiy maskanlar barpo etila boshlagan. Masalan, 3600 yilda Fili orolida Memfis shahrida afsonaviy tabib Imxoteb sharafiga maxsus ibodatxona qurilib, u erda bemorlarga tibbiy yordam berish uchun xonalar ajratilgan. Bu erda maxsus

tibbiy ta'lif olgan koxinlar bemorlarni parvarish qilish va davolash bilan shug'ullanganlar. Xeliopolis va Sais shaharlarida tabiblar tayyorlaydigan maxsus maktablar bo'lган. Bu maktablarda har xil dorilar tayyorlash, ularni ishlatish, bemorlarni tekshirish, kasalga tashxis qo'yish va davolash ishi o'rgatilgan.

qadimgi Misr tibbiyoti papirus deb ataluvchi yozma manb'alarda bayon etilgan. Tarixchi olimlar tibbiyatga oid bir necha papirus yozuv manba'lari mavjudligini aniqlaganlar. Shulardan birinchisi Imxoteb papirusidir. Buni Imxotebning o'zi yozgan deb faraz qiladilar. Bundan tashqari, yana Georg Ebers, Edvin Smit, Brugsha degan olimlar nomi bilan ataluvchi papiruslar hamda Britaniya tibbiy papirusi bor. Yana bulardan tashqari, Kaxun papirusi mavjudligi haqida ma'lumotlar bor.

Bu papiruslar qatorida ayniqsa diqqatga sazovori Georg Ebers papirusidir. Bu papirus eramizdan oldingi 1500 yillarda yozilgan, deb taxmin qiladilar. Papirusda asosan turli dorilar, ularni qaysi kasalliklarda va qanday usulda ishlatilishi bayon qilingan, dorilarni qo'llashda yil fasli, bemor yoshi, kasal og'ir yoki engilligi, bemor ahvoli hisobga olinishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan. Chunki, dorining ta'sir etishi shu omillarga bog'liq deyiladi, kitobda. Kishi yoshiga alohida etibor berilgan. Masalan, bolalar yoshiga qarab dorini ishlatish usuli boshqacha bo'lган. Chunonchi, bir xil kasallik bilan og'rigan turli yoshdagi bolaga dori turli usulda berilgan. Katta yoshdagi bolaning ichi ketganda unga dori xab shaklida berilsa, shu kasallik bilan og'rigan chaqaloqqa dori maydalanib, sutga qo'shib berilishi kerakligi ko'rsatilgan. qadimgi Misr tibbiyatining xarakterli xususiyatlaridan biri shu ediki, har bir kasallik uchun juda turli-tuman retseptlar ishlatilar edi. Tabib moxirligi kasalga mos retseptni tuza olish bo'lган.

qadimgi zamondagi misrliklarda har xil johil ruhlar kasallik paydo qiladi, degan tushuncha saqlanib qolgan edi. Shunga ko'ra, dastlab har xil sehrli usullar bilan uni tanadan chiqarib yuborish chorasini ko'rish kerakligi ukdirilgan, so'ng esa shu johil ruh bemor tanasida qoldirgan kasallik asoratlarini yo'qotish uchun dori-darmon berish kerak, deb yozilgan. Shuning uchun bu dorilar simptomatik ta'sirga ega bo'lган. Misr tabiblari afsungarlik va sehr qilish usullarini bilishlari zarur edi. Shu sababdan Misr tabiblari din arboblari bilan yaqin munosabatda bo'lганlar.

Misr tabiblari asosan har xil shifobaxsh o'simliklardan foydalanganlar, qisman hayvonat mahsulotlarini ham ishlatganlar. Masalan, ich og'rig'i kasalligi bilan og'rigan bir bemorga berilgan retsept tarkibiga quyidagi moddalar kiritilgan:

sigir suti-1 qism, un-2 qism, asal-1 qism. Shularni aralashtirib 3 kun iste'mol qilingan. Misr tabiblarining fikricha, har bir kasallikda qo'llanadigan dori retsepti albatta murakkab bo'lishi zarur. Ba'zi retseptlar 30-40 ingredientlardan, ya'ni alohida moddalardan tashkil topgan.

qadimgi misr tabiblari qorinda gjijalar bo'lishini ham bilganlar. Juda ko'p retseptlar qorin kasalliklarini davolaydigan va gjijani haydab chiqaradigan moddalardan iborat. har bir retseptga avvalo u qanday kasallikda ishlatalishi yozib qo'yilgan, so'ng esa moddalar ruyxati va ularning har biridan qancha miqdor olish kerakligi ko'rsatilgan. Oxirida esa dorini qanday va necha kun davomida qabul qilish ko'rsatilgan. Bundan ko'rindiki, qadimgi Misr tabiblari yozib beradigan retseptlar tuzilishi hozirgi retseptlarga o'xshaydi, balki undan ham to'laroqdir. Chunki dori qanday kasallikda qo'llanishi ham ko'rsatilgan.

Georg Ebers papirusida o'sha vaqtida ma'lum bo'lgan kasalliklar va ularni davolash usullari ma'lum bir tartibda bayon etilgan. Xususan, har bir a'zoning kasalligi, uning belgilari va shu kasallikda ishlataladigan dorilarning retseptlari berilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, kitobda ayollar kasalliklariga alohida to'xtalib o'tilgan.

Jarrohlik kasalliklaridan — har xil jarohatlar, chiqqan-singanlarni davolash va xatna kilish bayon etilgan.

Jarrohlik sohasida Edvin Smit papirusida to'laroq; ma'lumot berilgan. Undan har xil a'zolarning jarrohlik kasalliklari boshdan boshlab, tananing quyi tomonlaridagi a'zolarigacha bat afsil bayon etilgan. Bundan jarohatlanish kasalliklari uch guruhga bo'lingan: 1) davolab bo'ladigan kasalliklar; 2) davolanishi qiyin bo'lgan jarohatlar; 3) davolab bo'lmaydigan jarohatlar. Uchinchi guruhga kiruvchi kasallikni tabiblar davolashdan qochganlar. Smit papirusida dastlab, har bir a'zoning anatomik tuzilishi bayon etiladi, so'ng uning kasallik xolati va davolash usullari ko'rsatilgan.

Misr tabiblari alohida kasalliklar bo'yicha ixtisoslashganlar. Masalan, qadimgi Misrda ko'z kasalliklari, bosh kasalliklari, ichki a'zolar kasalliklari, ruhiy kasalliklar bo'yicha mutaxassislar va jarohlar bo'lganlar. Tabiblar kosmetika bilan ham shug'illanganlar. Tish kasalliklari bo'yicha mutaxassislar kasal tishni davolash va tuzatib bo'lmaydiganini olib tashlash bilan cheklanib qolmay, tishni plombalash usulini ham bilganlar. Masalan, ular oltin simlar bilan tishlarni bir-birlariga musahkamlab qo'yanlar.

Misrliklar tushunchasiga ko'ra, odam o'Igandan keyin uning ruhi yashashda davom etadi va va Maxshargohda bu ruh odam tanasiga qaytishi mumkin. Shu

tushunchaga asosan fir'avnlar, saroy amaldorlari va juda badavlat kishilar o'lganlaridan so'ng ularning jasadi balzamlangan. Buning uchun jasadni yorib, uning tomiriga balzam yuborilgan. Shu asosda odam organizmining tuzilishini misrliklar boshqa xalqlarga nisbatan yaxshiroq bilganlar.

Eramizdan oldingi IV asr boshlarida makedoniyalik Iskandar Misrni bosib oladi va bu erda Iskandariya deb nom olgan shaharni barpo etadi. Bu shahar tez orada o'sha davrdagi ilm-fan markazlaridan biriga aylanadi, madaniyat yuksaladi. Bu madaniyatga qadimgi Yunon va Sharq madaniyati qo'shilib ketdi. Bu erda fanning hamma sohalari, shu jumladan, tibbiyot ham yuksak darajada rivoj topdi. Yirik olimlar, donishmandlar paydo bo'ldi. Bular qatorida mashhur xakimlar ham bo'lган xakimlardan ikki kishi — Erazistrat va Xerofil ayniqsa mashhurdir.

Erazistrat asli o'zi kichik osiyolik, eramizdan oldingi III asrda yashagan. III asr boshlarida Iskandariyaga ko'chib kelib, shu erda yashab, ijod etgan.

Erazistrat dastlab, odam organizmining xususiyatlari, xususan xarakat jarayonini o'rGANISHdan boshlanadi. Shu maqsadda u ko'p anatomik tekshirishlar o'tkazadi va buning natijasida bir necha kashfiyat qiladi. Masalan, odam bosh miyasini tekshirib, unda qattiq va yumshoq miya pardalari borligini, miya satxi tekis emasligini, u egri-bugri va mayda chuqurcha — egatlardan iborat ekanligini, miya massasi ichida, o'zida suyuqlik saqlovchi chuqurchalar borligini, miyada xarakatlantiruvchi va sezuvchi nerv tomirlari borligini aniqladi.

Eristrat yurak va qon-tomirlarini ham anatomik va fiziologik jihatdan tekshirdi, yurak xarakatini ko'zdan kechirdi. Yurak va yurak dahlizi hamda yurak va aorta tomiri o'rtasida qopqoqchalar borligini aniqladi. Knorin bo'shlig'idagi a'zolarni tekshirib, ichak peristaltikasini ko'zdan kechirdi. Peristaltika tufayli ovqat mexanik jihatdan ishlanishi haqida fikr yuritdi. Bu fikr so'nggi tekshirishlarda tomonila tasdiqladi.

Shunday qilib, Erazistrat birinchi bo'lib, odam anatomiyasini va a'zolar funktsiyasining ba'zi muhim masalalari haqida to'g'ri fikr yuritgan va buni anatomik tekshirishlar yo'li bilan isbotlab bergen. Bu tibbiyot faniga qo'shilgan katta hissa edi.

Iskandariyalik ikkinchi olim Xerofil edi. Bu olim eramizdan oldingi 300 yilda tug'ilgan. Xerofil ham o'z faoliyatini anatomiyanı o'rGANISHdan boshladi. U miya, jigar va yurakni sinchiklab, tekshirdi. Miyaning to'rtinchi qorinchasi kattaroq ekanligini aniqladi. Yurakni tekshirib, uning xarakatida uch davr — sistola, pauza

va diastola davrlari bo'lishini kuzatdi. Arteriya qon tomirlarining urib turishini tekshirib, yurak ishiga aloqadorligini ko'rsatdi. Un ikki barmoqqa teng keladigan ichakni birinchi martda qayd etdi.

Xerofilning fikricha, har bir kasallikning o'ziga xos maxsus dorisi bo'lishi kerak. Olim juda murakkab retseptlar ishlatgan.

o'sha davrda Iskandariyada yana bir mashhur tabib — Koslik Filipp yashagan edi. U Xerofilning shogirdi bo'lган. Bu olim tibbiyotda "empiriklar maktabi" nomli jamiyatni tashkil etgan. "emperik"lar organizmning tuzilishi va uning tabiatini tekshirib o'tirishning xojati yo'q, u to'g'rida har xil nazariy fikr yuritish ham ortiqcha. Tabib vazifasi mumkin qadar foyda keltiruvchi dorilar izlab topish va uni qo'llashdan iboratdir, deb uqtirilgan.

Xuandi savol bergen, Van Shu Xe javob bergen. Kitobda odam organizmining tuzilishi, uning tabiati, salomatlik va kasallik sabablari, kasallik alomatlari, tashxis va davolash usullari bayon etilgan.

Odam organizmining tuzilishi va uning tabiati haqida, qadimgi Xitoy tabiblari, samoviy elementlar nazariyasini pozitsiyasida turganlar, ya'ni ular butun borliq to'rt samoviy elementdan iborat bo'ladi, binobarin, odam organizmining asosini ham shular tashkil etadi, deb o'ylaganlar.

Salomatlik va kasallik sabablari masalasida qadimgi Xitoy tabiblari ikki qarama-qarshi kuch tushunchasida turganlar. Bu tushunchaga binoan butun haet ikki qarama-qarshi kuch ta'siri ostida bo'ladi. Odam organizmida ham shu ikki kuch doimo bir-biri bilan o'zaro "olishuv"da bo'ladi. Bulardan biri "Yan", ikkinchisi "In" deb atalgan. Yan faol, xarakatchan kuch, In esa suet, inert kuch, deb faraz qilingan.

qadimgi xitoyliklar "Yan" deganda aktiv xarakat qiluvchi pnevmani tushunganlar. In esa o'z holicha xarakatsiz suyuqlik, uni pnevma xarakatga keltiradi va tomirlarda oqishga yordam beradi. Agar shu ikkala qarama-qarshi kuchning bir-biriga ta'siri muvozanatda bo'lsa, odam organizmi o'z sog'lig'ini saqlaydi. Agar bu kuchlardan biri ustun kelsa, muvozanat buziladi va kasallik paydo bo'ladi.

Kasallik belgilarini ko'zdan kechirish va tashxis qo'yish masalasida qadimgi Xitoy tabiblari bir qancha original usullarni ishlab chiqqanlar. Ular bemorni juda ham sinchiklab tekshirganlar, erinmay soatlab kuzatganlar. Xitoy tabiblari bemor tomirini tekshirishda, ayniqsa, yuksak mahoratga erishganlar. Tomirni har xil

xolatda — bemor yotgan, o'tirgan yoki tik turganda, ovqatdan oldin va ovqatdan keyin, bemor tinch xolatida yoki jismoniy xarakatidan keyin uzoq vaqt tekshirganlar. Tananing har bir nuqtasidagi tomirni bir-biriga solishtirib ko'rganlar. Buning natijasida bemor tomir urishida ro'y bergen juda ham nozik, bilinar-bilinmas o'zgarishlarni aniqlay olganlar. Bundan tashqari, bemor ahvoliga, uning tashqi ko'rinishiga, ruhiy xolatiga ham alohida ahamiyat bergenlar. Bunday sinchiklab tekshirish natijasida qadimgi Xitoy tabiblari ko'pincha kasallikni to'g'ri aniqlaganlar, ular juda kam yashaganlar.

qadimgi Xitoy tabiblarining fikricha, odam tanasida 360 ta nuqta bo'ladi. Shu nuqtalarga igna sanchilsa, bemor og'riq sezmaydi va kasallikdan sog'ayadi.

Igna sanchib davolab usuli ham retseptorlarga ta'sir qilish printsipiga asoslanadi. Ammo qadimgi Xitoy tabiblari bu usulga boshqacharoq baho bergenlar. Ular sanchiladigan ignalar ichini kovak qilib yasaganlar va organizmdagi qarama-qarshi kuchlardan biri ko'payib ketsa, u shu kovak orqali chiqib ketadi, agar etishmasa yana shu ignadagi kovak orqali organizmga kiradi, deb faraz qilganlar.

qadimgi Xitoy tabiblari dori-darmonlardan foydalanishda ham juda muhim muvaffaqiyatga erishganlar. Ular tibbiyotda umuman ma'lum dori-darmonlardan tashqari yangi, juda ta'sirchan o'simlik va hayvonlardan olinadigan dorilar ham kashf etganlar. Masalan mashhur jenshen o'simligi Xitoy tibbiyotining eng buyuk kashfiyotlaridan biridir. hayvonlardan olinadigan dori moddalaridan birinchi o'rinda targ'il kiyik shohidan olinadigan panti moddasini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, Xitoy limonnigi deb ataluvchi dori ham mavjud. Xitoy tibbiyotida o'sha davrdayoq mingdan ortiq har xil dorivor o'simliklar, mineral moddalar va hayvonlar tanasidan olinadigan dorilar ishlatilgan. Xitoy olimlari tomonidan tuzilgan 52 jildlik formokopiya kitobi mavjud.

qadimgi Xitoy tibbiyotining muxim yutigi shundan iboratki, unda organizm bir butun sistema ekanligi e'tirof etiladi. Shunga asosan, biror a'zo kasallansa, butun organizm xastalikka uchragan, deb qaralgan. Xitoy tibbiyoti afarizmlaridan birida shunday deyiladi: " agar bemorning boshi og'riyotgan bo'lsa, bosh og'rig'igina, oyog'i og'riyotgan bo'lsa faqat oyog'inigina davolash bilan cheklanma, bemor odamni bust-butun davola". Bu fikr hozirgi zamon ilg'or tibbiy fan printsipiga tamomila mos keladi.

o'sha zamonda Xitoy tabiblari qatorida Van Shu Xe dan boshqa ham buyuk tabiblar bo'lgan. Shulardan Byan Sio, Xua Tu nomli tabiblar alohida etiborga sazovarlar.

Byan Sio eramizdan oldingi VI asrda yashagan. Uning "qiyinchilik haqida kitob" nomli asari ma'lum. Bu asarda muallif odam anatomiysi, fiziologiyasi, kasallik sababları, belgilari, tashxis va davolash usullarini bayon etadi. Byan Sio igna sanchib davolashda juda ham moxir bo'lgan. U ayollar kasalliklarini va bolalarga xos kasalliklar haqida ancha to'liq ma'lumot bergen. Shunday qilib, qadimgi sharqda, Misrdan so'ng tibbiyot eng yuksak darajada rivojlangan mamlakat — Xitoy edi. Xitoy tibbiyoti hind, Tibet, Mugiliston va o'rta Osiyo tibbiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

qadimgi Sharqning buyuk davlatlaridan biri hindistondir. Bu mamlakat ham qadimiy an'analarga boy. Tibbiyot sohasida ham qadimgi hindiston tibbiyoti tarixini o'rghanishda asosiy manba' bo'lib Ayur Vedalar hisoblanadi. "Ayur veda" so'zi "hayotni bilish", — degan ma'noni bildiradi. Tarixda uchta Ayur Veda ma'lum. Bular— Atreyn Ayur Vedasi, Charaki Ayur Vedasi va Sushruta Ayur Vyodasi. Bular ichida Sushruta Ayur Vedasi alohida e'tiborga molik. Bu kitob eramizdan oldingi VI asrda yozilgan deb taxmin qilinadi. Kitobda odam organizmining tuzilishi, uning tabiat, sog'liqni saqlash masalalari, kasalliklarni aniqlash va uning kelib chiqish sabablarini belgilash masalalari bayon etilgan. Kasalliklarni davolashga alohida e'tibor berilgan.

Odam organizmining tuzilishi va tabiat masalasida qadimgi hindiston tabiblari xitoy olimlari kabi samoviy elementlar tushunchasiga asoslanganlar. hindlar ma'lum to'rt elementga yana beshinchi — iloxiy elementni qo'shdilar. Bu elementlar organizmga ovqat sifatida kiradi va me'dada xilusga aylanib, ichaklar orqali tanaga singadi va barcha a'zolar tarkibiy qismiga kiradi. hind tabiblarining fikricha, odam organizmining tabiat shu samoviy elementlar xossalari bilan belgilanadi.

Sog'liqni saqlash masalasida qadimgi hindlar birinchi o'ringa gigiena qoidalariga rioya qilganlar. Xusan, tanani, kiyim-kechakni, ko'rpa-to'shakni, uy-joyni toza va ozoda saqlashga alohida ahamiyat bergenlar. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya mashqlarini ahamiyatini ham ko'rsatib o'tganlar. Nihoyat, ovqat masalasiga alohida e'tibor bergenlar. Ovqat rejimining buzilishidan ko'p kasalliklar kelib chiqishini ukdirganlar, shu sababli parhez taomlarni tavsiya etganlar.

Kasalliklarni aniqlash va davolash qadimgi hind tabiblari yuksak mahoratga erishganlar. Birinchi galda kasallikni to'g'ri aniqlashda xarakat qilganlar. Shu maqsadda bemorni sinchiklab ko'zdan kechirish, u bilan uzoq suhbat ko'rish, terisi va shilliq pardalarini tekshirish, ularni xolati va tusini belgilash, tilni ko'zdan kechirish va nihoyat tomirni ushlab ko'rish usullarini ishlab chiqqanlar. Bu usullar yordamida qadimgi hind tabiblari kasalliklarni hamma vaqt deyarli to'g'ri aniqlaganlar. Sushruta Ayur Vedasida 1500 dan ortiq kasalliklar belgilari bayon etilgan, ularni aniqlash usullari ko'rsatilgan.

Sushruta tibbiyot tarixida birinchi bo'lib, yallig'lanish jarayonining belgilarini to'liq ko'rsatib bergen. Bular — shish paydo bo'lish, qizarish, shu joyning harorati oshishi, og'riq paydo bo'lishi va yallig'langan a'zo funktsiyasining pasayishidan iborat.

Kasalliklarning kelib chiqishi masalasida qadimgi hind tabiblari xumoral nazariyasi nuqtai nazarida turganlar. Bu nazariyaga binoan har qanday kasallikning umumiy sababi a'zodagi to'rt suyuqlikning miqdor yoki sifat jihatidan o'zgarishga bog'liq. Ulardan biri ustun kelib qolsa, muvozanat yo'qolib, kasallik kelib chiqadi. Bu muvozanat buzilishiga olib keladigan sabablardan birinchi o'rinda iqlim va ob-havoning o'zgarishi, og'ir jismoniy mehnat, ovqat rejimining buzilishi ko'rsatilgan.

Kasalliklani davolashda qadimgi hind tabiblari ayniqlsa, Sushruta juda mohir bo'lган. Davolashda ishlatiladigan dorilar 800 ga yaqin bo'lган. Bular orasida o'simliklar, mineral moddalar va hayvonlar a'zolaridan tayyorlangan dorilar ko'p uchraydi. Tabiblar bemorga dori berishdan oldin uning organizmini ortiqcha rutubatlardan tozalash chorasini ko'rganlar, ich suruvchi va o't haydovchi moddalar berilgan. Bu bilan suyuqliklarni muvozanat xoliga keltirishga xarakat qilganlar. Shu maqsadda, ko'pincha, bemor tomiridan qon olingan. Shundan so'nggina bemorga dori-darmondan tashqari, boshqa usullar ham qo'llanilgan. Masalan, uqalash, vanna qabul qilish va h.k.

qadimgi hind tibbiyotida jarrohlik usuli juda ham rivoj topgan edi. Ayniqlsa, Sushruta juda mohir jarroh bo'lган. Jarrohlar qovuqda paydo bo'lган toshni chiqarib olish, churroni operatsiya qilish, qattiq jarrohatlanib, ishga yaroqsiz bo'lib qolgan qo'l yoki oyoqni kesib tashlash, ko'z kataraktasini operatsiya qilish usullarini amalga oshirganlar. Ayollarda uchraydigan ba'zi kasalliklarni ham operatsiya qilish usuli bilan davolashni bilganlar. Masalan, biror sababga ko'ra, ona qornidagi bolaning boshi juda ham katta bo'lib o'sib ketgan bo'lsa, onani salomat saqlab qolish uchun bolaning boshini bo'laklarga bo'lib chiqarib olish, ona

qornidagi bola ko'ndalang yotib qolgan bo'lsa, tug'ilmasidan oldin uni oyoq yoki bosh tomonga aylantirish va h.k.

qadimgi hind tabiblarining jarrohlik sohasidagi eng buyuk yutug'i plastik operatsiyadir. Bunda biror etishmagan a'zo yoki uning qismi tiklanadi. Bunday operatsiya usullari u vaqtda faqat hindiston tibbiyotida qo'llanilgan. Plastik operatsiya sohasida ayniqsa Sushrutaning o'zi mashhur bo'lган. Sushruta burun, quloq, lab kabi organlarni plastik yo'l bilan qayta tiklash usulini juda mohirlik bilan amalga oshirgan. Bu operatsiyalar "hind usuli" nomi bilan mashhur bo'lган. Umuman hind jarrohlari 200dan ortiq bunday asboblar ishlatganlar.

Atreyin, Charaki Ayur Vedalari ham qadimgi hindiston tibbiyoti tarixida muxim rol o'ynagan. qadimgi hindistonning mashhur tabiblaridan yana Dvanxatarani ko'rsatish mumkin. Bu olim ham tibbiyotga oid maxsus kitob yozib qoldirgan.

Fan, madaniyat va tibbiyot ancha yuksalgan qadimgi sharq mamlakatlari qatoriga eron ham kiradi.

Eron tabiblari ham, boshqa sharq tabiblari singari kishi sog'lig'i va kasallinishini to'rt suyuqlikka bog'liq deb tushunganlar. Ular kishi ruhiy xolatiga alohida e'tibor bergenlar. Ularning ta'kidlashicha, jaholat kishi ishtahasini bo'g'ib, kasallik keltirib chiqaradi. Yaxshi kayfiyat va xursandchilik esa bemorni sog'aytiradi. Bu hozirgi zamon nuqtai nazaridan ham to'g'ri.

qadimgi eronliklarni o'z tibbiy xudolari bo'lган. U Traeton deb atalgan. Bu nom Avasto nomli kitobda ham uchraydi. Eronda amaliy tibbiyot ham ancha rivojlangan edi. Tabiblar alohida guruhlarga bo'linganlar. Masalan, fuqarolar tabiblari, dengizchilar tabiblari, quruqlikda harbiy kuchlarda xizmat qiluvchi tabiblar va h.k. Eron tabiblari kasallikkarni ancha muvaffaqiyatli davolaganlar. Kasalliklarning oldini olishga alohida ahamiyat bergenlar. Masalan, Eron tibbiy aforizmlaridan birida shunday deyiladi: "Kasallik tanangga ziyon etkazishidan oldin sen uni sug'irib tashla!".

qadimgi Eronda tabiblarga nisbatan alohida talablar qo'yilgan. U o'z kasbini yaxshi egallagan bilimdon kishi bo'lmog'i, odamlarga nisbatan muloyim, xushmuomala, bemorlar bilan do'stona munosabatda bo'lishi lozim. Bemorga uning kasalligi haqida ko'p gapirmaslik, sir saqlanishi zarur bo'lган narsalarni esa umuman etmasligi kerak. Ular tashxis masalasida bemorlar bilan suhbatga alohida ahamiyat bergenlar. Bemorning subektiv xislarini etiborga olganlar. Bu haqida shunday aforizm bo'lган: " qaysi bir bemor kasalligini yashirsa, u o'zini aldagan bo'ladi".

Shu davrdagi Eron tabiblari orasida kahhollar, jarrohlar, tish tabiblari, tanosil, ruxiy va xatto ayollar kasalliklarini davolovchilar bo'lgan. Jarrohlar oldiga qattiq talab qo'yilgan. Ular kasallarni jarrohlik yo'li bilan davolashga kirishishdan oldin o'z bilim va tajribalarini isbot etishi kerak bo'lgan. Buning uchun ular kamida. 3ta jarrohlik operatsiyasini muvaffaqiyatli o'tkazishlari lozim edi. Eron tabiblari operatsiya vaqtida og'riqsizlantirish uchun bemorga narkotik moddlar bergenlar.

qadimgi Eron tabiblar kasallikni aniqlashda ancha tajribali bo'lganlar. Ular isitmali kasalliklar, xususan, bezgak, bavosil, chechak, trofik yaralar, dizintiriya, har xil yallig'lanish, parazit va ko'pgina teri kasalliklarini yaxshi bilganlar, ularga to'g'ri tashxis qo'yganlar va ularni muvaffaqiyatli davolaganlar.

Eron tabiblari ishlatajigan dorilarning xili ko'p edi. Ular ichida o'simlik va mineral moddalar, hayvonlardan olinadigan dorilar va h.k. bo'lgan. Masalan, ular oz miqdorda ilon zaharini berib, kishi organizmini zaharga qarshi turish kuchini oshirganlar. Bu hozirgi tilda imunitet deyiladi.

Tabiblar ba'zi bir kasalliklarini ham bilganlar. Masalan, ularga mo'ynachilar, temirchilar, teri bilan ishlovchilarda uchraydigan kasalliklar ma'lum bo'lgan. Ular yuqumli kasalliklar mavjudligini ham bilganlar va ularga qarshi ba'zi choralarini ishlab chiqqanlar. Yuqumli kasallik paydo xonadonni va bemor buyumlarini dudlatganlar.

qadimgi o'rta Osiyo xududida istiqomat qilgan xalqlar tibbiyoti ham boshqa Sharq mamlakatlar tibbiyotiga o'xhash bo'lgan. Ayniqsa, Eron tibbiyoti bilan o'rta Osiyo tibbiyoti o'rtasida umumiylit sezilarlidir.

Og'zaki badiy adabiyotda ham tibbiyotiga oid ba'zi ma'lumotlar topiladi. Ularda jarohatlangan sipox tanasidan o'jni chiqarib olish, jarohatlarni bog'lash, tikish kabi muolajalar ko'rsatiladi. Xalq tabobati ham tibbiyot tarixini o'rganishda yordam beradi. Xalq tabobatida qadim zamonlardan ishlatilib kelgan dori darmonlar va muolaja usullarini o'rganish orqali o'sha vaqtdagi tibbiyotning rivojlanish darajasi sohasida ma'lum tushunchaga ega bo'lish mumkin. Masalan, o'rta Osiyo xalq tibbiyotida ibridoiy jamoa davridan boshlab har xil shifobaxsh o'simliklar ba'zi mineral moddalar va hayvon mahsulotlari ishlatilgani ma'lum. Chunonchi, tananing yallig'langan joyiga qo'yning dumba yog'ini bir oz qizitib, bog'lab qo'yganlar. Bunda chipqon tezroq "pishgan" va o'zi yorilib, ichidagi yiring chiqib ketgan.

o'sha davrda o'rta Osiyoda keng tarqalgan muolija usullaridan biri — shomonlik bo'lган. Shomonlik ibtidoiy davrlardan boshlanadi. Biz ko'rsatib o'tganimizdek, u davrda odamlar kasallik odam organizmiga har xil johil kuchlar kirib qolishidan paydo bo'ladi, deb o'ylaganlar. Shomonning davolash usuli uzoq vaqt dovomida shovqin suron beruvchi asbob chalib, to'htovsiz turli xarakatlar qilish yo'li bilan bemor tanasiga kirib qolgan "johil kasal"ni haydab chiqarishni ko'zda tutadi. Xalq tibbiyoti sifatida bizgacha etib kelgan bu malumotlar ma'lum ahamiyatga ega bo'lsa ham, o'sha zamondagi tibbiyot haqida albatta, etarli tushuncha bermaydi. Bu haqda bizga to'liqroq ma'lumot beruvchi yozma manba' biz yuqorida aytib o'tilgan Avasto nomli kitobdir. Bu kitobda qadimgi Eron, Ozarbajon va o'rta Osiyo xalqlarining hayoti, tumish tarzi, urf odatlari va diniy e'tiqodlari bayon etilgan. Avesto eramizdan oldingi VI asrda yozilgan, deb faraz qilinadi. Abu Rayxon Beruniy "qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" nomli asarida kitobning muallifini zardushtiylar dinining asoschisi — Zardusht ibn Safid Tumon deb ataydi. Avesto zardushtiylar dinining aqidalari va qonun qoidalardan iborat. Avvalo unda tabiblik alohida kasb ekanligi e'tirof etiladi va tabibning mehnatiga haq to'lash zarurligi ko'rsatiladi. Bu haqda "Avesto"da bunday deb yozilgan:

"koxinlarga ibodat qilganlari, tabiblarga muolaja qilganlari uchun haq to'lashlari zarur". Avesto dastlab 21 qismidan iborat bo'lган. Uning dastlabki 7 qismi dunyoning kelib chiqishi va odamlar avlodining tarixiga bag'ishlangan, ikkinchi 7 qismida ahloq, kishilarning diniy aqidalarga bo'yshunishlari va hayotiy qonun qoidalari bayon etilgan. Oxirgi 7 chi qismida esa tibbiyot va falakkiyot masalalari yoritilgan. So'ng Avesto vaqt o'tishi bilan ko'p o'zgarishlarga uchrab oxiri 3 kitobdan iborat bo'lib qolgan.

Birinchi kitob "Vendidat" deb atalgan. Bu kitobda jismoniy va ruxiy tozalanish qoidalari bayon etilgan.

Ikkinchi kitob "Visperet" deb atilib, bilish ma'nosini bildiradi.

Uchinchi kitob "Yasna" deb atalgan. Bunda zardushtizimning qonun va qoidalari bayon etilgan.

Biz uchun Avastonning "Vandidat" nomli kitobi muhimdir. Bu kitobda o'sha zamonda zardushtiylar dini mazhabida turuvchi xalqlarning tibbiyoti haqida ma'lumotlar bor.

"Vandidat" 22 qismidan iborat. Shu qismlardan 8 tasida tibbiy masalalar bayon etilgan. Oxirgi 3 qismi aynan tibbiyotning o'zi haqida.

Avestoda 1chi galda jismoniy va ruhiy ozodalik masalasi haqida so'z boradi. har xil zararlangan narsalardan uzoq bo'lishi kerakligi tavsiya etiladi. Eng kuchli zararlangan narsa deb, o'lgan odamning tanasi ko'rsatilgan. Shuning uchun o'lgan kishi tanasiga yaqinlashmaslik tavsiya etilgan. Aftidan, o'sha zamonda ham murda zahari haqida tushuncha bo'lgan.

Zardushtiyarning bu kitobi o'lgan kishining jasadini erga kumishni man etadi. Uni yondirish va suvg'a cho'ktirish ham mumkin emas, chunki zardushtizm suv, er, va havoni muqaddas deb e'lon qilgan. Murda tanasi esa zararlangan bo'lGANI uchun ularni ifloslantiradi deb tushunganlar. Shuning uchun o'lgan kishining tanasini aholi yashaydigan joydan uzoqqa, tepalik joyga olib borib ochiq qoldirganlar. qushlar va hayvonlar murdaning yumshoq qismlarini eb bo'lGANidan keyin suyaklarni yig'ib, maxsus suyakdonlarga solib qo'yganlar. Bu osoriylar uydagi maxsus tokchalarda saqlagan. Bunda ossuriylar o'rta Osiyo, xususan hozirgi o'zbekiston xududida ko'p topilgan.

Avestoda yozilishicha, tibbiyotning kashfiyotchisi, va birinchi tabib — Trita bo'lGAN. U haqida quyidagi rivoyat mavjud: Trita birinchi bo'lib kishilarni kasalliklardan va o'limdan holi qila boshlagan. Axuramazda unga osmondan 10000 ta dori yuborgan. Trita shu dorilarni ishlatib kishilarni har xil kasalliklardan tuzatgan. Bu dorilarning ichida eng yaxshisi xaoma bo'lGAN. Bu dori "salomatlik va haet manbai" deb atalgan.

Pavastoni yaratgan payg'ambar deb ataluvchi Zartushtrani fikricha, shu "sog'liq va hayot manbai" xaomani Trita kashf etgan. Demak, u birinchi tabibdir.

Avestoda ikkinchi tabibning nomi ham keltiriladi. U Yima deb atalgan. Bu tabib haqida quyidagi rivoyat bor: "Yima odamlarni har xil qurol-yaroq, kema yasashga, mato to'qishga, tegirmon qurishga o'rgatdi. U birinchi bo'lib kishilarni tabiblik san'atiga o'rgatdi.

Avastoda odam anatomiysi va fiziologiyasi haqida ham ba'zi ma'lumotlar berilgan. Unda odam organizmi 8 qismdan iborat bo'ladi, deb ko'rsatilgan. Tomirlar haqida bunday deyilgan: 2 xil, ya'ni qizil qon oquvchi, qora qon oquvchi tomirlar bo'ladi. Bundan tashqari oq qon oquvchi yoki qon oqmaydigan 3 xil tomirlar ham bo'ladi. Bu erda nerv tomirlari ko'zda tutilgan bo'lsa kerak. Chunki "barcha hayot shu 3 xil tomirga bog'liqdir", — deb yozilgan. Aytilishicha, qon yurakda, o't-jigarda, urug' orqa miya kanalida ishlab chiqiladi. Sezish a'zolari

haqida to'g'ri fikr aytilgan. Sezish, eshtish, ko'rish, tam bilish markazlari bosh miyada joylashgan, deyilgan.

Avestoda hayotiy jarayonlar haqida qiziq fikr aytilgan. hayot — issiqlikni boshqarish jarayonidan iborat o'lim esa issiqlik muvozanati buzilishi natijasida organizmning yonib tugashidir.

Kasallik va uning sabablari Avestoda diniy tushunchaga asoslangan. Kasallikni johil xudo Axriman yuboradi deb faraz qilingan. Kasallik alomatlari johil Axriman yuborgan ruh kirishi bilan ko'rindi, degan fikr aytilgan. Amaliy tibbiyotda kasallikni kelib chiqishiga el sabab bo'ladi deb ko'rsatilgan. Sovuq el tanani sovitadi, issiq el qizdiradi. Issiq elda Axrimaning ko'zga ko'rinas mayda zarrachalari bo'ladi deb faraz qilganlar. Bulardan ko'rindiki Avastoda tibbiyot haqida to'g'ri fikrlar bilan bir qatorda haqiqatdan uzoq fantastik tushunchalar ham mavjud bo'lgan.

Amaliy tibbiyotda kasallikning sabablaridan biri, ovqat rejimining buzilishi deb ko'rsatilgan.

Kitobda yozilishicha, kasallikdan qutilish uchun faqat ormuzdagi "yaxshilik xudosiga murojat qilish kerak. Ammo, amaliy jihatdan 3 xil davolash usuli ko'rsatilgan. Bulardan: 1) pichoq bilan davolash, ya'ni jarrohlik, 2) o'simlik bilan davolash, 3) so'z bilan davolash. Bu erda pichoq bilan davolash, ya'ni jarrohlik birinchi o'ringa qo'yilgan. Demak mohir jarrohlar bo'lgan.

o'simliklar ya'ni shifobaxsh o'tlar bilan davolashga kelsak, o'rta Osiyo erlari bunday o'simliklarga juda boy bo'lgan. qadimgi zamon tabiblari ularidan keng foydalanganlar. "Avestoda" foydali va zararli o'simliklar borligi ko'rsatib o'tilgan. Avestoda so'z bilan davolashga alohida etibor berilgan. Kitobda yozilishicha, eng ta'sirli davo usuli diniy urf-odatlarni amalga oshirishdir. hozirgi vaqt nuqtai nazaridan qaralsa, bu usul psixoterapiya printsipiga asoslanadi.

Salomatlikni saqlash uchun "Avesto" bir qancha tadbirlarni tavsiya etadi. Shulardan birinchisi buzilib, chirib borayotgan uzoqda bo'lish. Ayniqsa murda tanasiga yaqinlashmaslik zarur. Kitobda umumiy xigiena, mamlakat obodonchiligi, aholini toza suv bilan ta'minlash oziq ovqatni mo'l qilish uy va bog'larga meva daraxtlar ekish, dehqonchilikni rivojlantirishga e'tibor berish zarurligini ko'rsatiladi. Avestoda yozilishicha odam organizmidan ajralib chiquvchi barcha chiqindilar zararli bo'ladi. Shuning uchun ularidan uzoqroq yurish kerak. Avestoda

bayon etilgan zardushti dinida tabiatda va hayotda doim ikki qarama va qarshi kuch bir biri bilan kurash olib boradi deyilgan.

o'rta Osiyo xalqlarining uzoq, o'tmishdagi avlodlari Ardisura — Anaxita nomli xudoga sig'inganlar. Bu haqda Avestoda Ardisura — Anaxita odamlarining salomatligi haqida qayg'uradi, u xomilador va tuqqan ayollar haqida xomiylilik qiladi deb yozilgan. Avastoda yana bunday so'zlar bor: "Ardisura—Anaxita to'lg'oq dardini qilar engil va tuqqan ayollar ko'kraklarini lim-lim sutga to'ldirar". o'rta Osiyo xalqlari tarixida "Bibi mushkul kushot" isimli ayol ham ma'lum. U odamlarni har xil darddan forix qiladi deb o'ylaydilar. Otinlar Bibi mushkul kushot nomiga duolar o'qib, bemorlarni davolaydilar. Bunday otinlarni "Bibi xalfa" deb ataydilar.

Vazifa №1

Van Shu Xe ni tibbiyotda tutgan o'rni va olamshumul ixtirolari

Vazifa №2

Sushrutani hayot va faoliyati

Vazifa №3

o'rta Osiyoda «Avesto» asari va uning tibbiyotdagi ahamiyati.

Vazifa № 4. Tibbiyot tarixini «Klaster» grafik organayzer yordamida urGANISHNI Kadimgi shark mamlakatlarida tibbiyotni rivojlanishi mavzusida ishlab chikish .

G`

Interaktiv usullar

«Ruchka stol o'rtasida» usuli

Barcha guruh talabalariga topshiriq beriladi. har bir talaba varaqga javoblarni yozib uni guruhdoshiga uzatadi va o'zining ruchkasini stol o'rtasiga surib qo'yadi.

Imxoteb papirusi, Georg Ebres papirusidan nimasi bilan farq qiladi?

Jarrohlik haqida qaysi papirus (Edvin Smit) da to'laroq ma'lumot berilgan va ularni mohiyati nimadan iborat.

Van Shu Xe va uning tibbiyotda tutgan o'rnini jahon tibbiyotida tutgan o'rni?

Sushrutani olamshumul ixtirolari va uni hozirgi tibbiyotdagি ahamiyati.

Xitoy tibbiyotidan o'tgan davolash usullarini hozirgi tibbiyotda tutgan o'rni.

o'rta Osiyo tibbiyotida «Avesto» asarini o'rni.

Test savollari

1.Ko'hna Misr tibbiyotidan jahon tibbiyotiga tarqalgan tibbiy usulni ko'rsating.

A) balzamlash

B) xomilaning ona qornidan yorib olish

V) appendentsitni kesib olib tashlash

G) igna bilan davolash

D) shifokorlik makkabining ochilishi

2.Bolalar kasalliklari to'g'risida birinchi marta asar yozib qoldirgan olimning ismini ko'rsating.

A) Efeslik Soran

B) Troyalik Asklepiy

V) Rimlik Sels

G) Koslik Goppokrat

D) Pergamlik Galen

3. quldorlik davri tibbiyotiga xos sifatni ko'rsating

a) tibbiyot fani va amaliyotining din ta'sirida bo'Imaganligi

b) bemorni to'shagi oldida o'tirib kuzatishni

v) tibbiy dori bilan bir qatorda sun'iy dorilarni ishlatilishi

g) bemorlarga dorilarni retsept bo'yicha berilishi

d) Xalq tabobatining inqirozga yuz tutishi

4. Kasallik bayonnomasi (Istoriya bolezni)ni birinchi marta tibbiy amaliyotga kirgizgan shifokorning nomini ko'rsating

a) Sushruta

b) Imgotepe

v) Gippokrat

g) Sels

d) Galen

5. Ko'hna hindiston tibbiyotiga mansub asarni ko'rsating.

A) Sushrutani «Ayur- Vedasi» (Miloddan avvalgi 7 asr)

B) Imgotep papirusi (Miloddan avvalgi 18 asr)

V) Gomerning Iliadasi (Miloddan avvalgi 7 asr)

G) Gippokrat tuplami (Miloddan avvalgi 5 asr)

D) «Ney- sizin» (Miloddan avvalgi 13 asr)

Kontrol savollar

1. Imxoteb papirusi, Georg Ebres papirusidan nimasi bilan farq qiladi?

- 2.Jarrohlik haqida qaysi papirus (Edvin Smit) da to'laroq ma'lumot berilgan va ularni mohiyati nimadan iborat.
- 3.Van Shu Xe va uning tibbiyotda tutgan o'rnnini jahon tibbiyotida tutgan o'rni?
- 4.Sushrutani olamshumul ixtirolari va uni hozirgi tibbiyotdagi ahamiyati.
- 5.Xitoy tibbiyotidan o'tgan davolash usullarini hozirgi tibbiyotda tutgan o'rni.
- 6.o'rta Osiyo tibbiyotida «Avesto» asarini o'rni.

Mavzu: o'rta asrlarda o'zbekiston xududida tibbiyotni rivojlanishi (VIII- XIII asrlar)
Ma'mun akademiyasi Abu Sahl Masixiy, Abul Xayr hammor, Ilo'kiy, Jurjoniy,
Chag'miniy va boshqalar)

Maqsad: Talabalarni o'rta asrlarda Vatanimiz xududida barpo etilgan akademiya, faoliyat ko'rsatgan tibbiyot allomalari ularni asarlari va davolash usullari bilan tanishitirish:

Vazifalari (kutilgan natijalar)

- Xor zamda tashkil etilgan Ma'mun akademiyasi va unda tibbiyot allomalarini tutgan o'rnnini o'rganish
- Abu Saxl Masihiy va Abul hayr hammorni tibbiyotda tutgan o'rnnini o'rganish
- Abu Abdullox Iloqiyni tibbiyotdagi tashkilotchilik faoliyatini o'rganish
- Xorazm tibbiyotida (XII-XIII asrlar) o'z o'rnnini ega bo'lgan Ismoil Jurjoniy va Umar Chag'miniyi tibbiyotda tutgan o'rnnini o'rganish

Nazariy kism

o'rta asrlarda o'rta Osiyo davlatlarida fan va madaniyat yuksak darajaga ko'tarildi. Yirik shaharlarda ilm-fan markazlari- dorilfununlar, madrasalar tashkil etildi. Ularda unlab mashhur olimlar, fanning o'sha davrda ma'lum bo'lgan hamma sohalari ustida ijod qildilar, mashhur asarlar yaratdilar. Madrasalarda ko'plab

talabalar ta'lif olar, ularga o'sha zamonning ko'zga ko'ringan yirik olimlari dars berardilar. o'sha davrda o'rta Osiyodagi davlatlar fan va madaniyatning rivojlanishi jihatidan jahonda eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga chiqib oldi.

Bunday umumiy yuksalish jarayonida tibbiyot ilmi ham juda rivojlandi. Shaharlar va aholi yashaydigan yirik kentlarda kasalxonalar, shifoxonalar (ambulatoriya ko'rinishidagi davo maskanlari), dorixonalar barpo etildi. Ularda tajribali hakimlar (o'qimishli tabiblar) va dorishunoslar xizmat qilardilar. Ba'zi yirik kasalxonalar qoshida maxsus oliy tibbiy bilim maskanlari ochilgan bo'lib, ularda ko'plab talabalar o'qitiladi. Bu erda talabalar ustozlari rahbarligida o'z bilim va tajribalarini orttiradilar. Tib ilmi sohasida chuqur bilim va tajribaga ega bo'lgan xakimlar talabalar uchun turli kasalliklarga tashxis qo'yish va ularni davolashga oid darsliklar va qo'llanmalar yaratdilar. Ular ko'pgina ilmiy asarlar ustida ham ijod qildilar. o'sha davrda yaratilgan «Tib qonunlari kitobi» bunga yaqqol misoldir. o'rta Osiyo olimlarining yaratgan tibbiy asarlari jahon tibbiyot ilmi xazinasiga yirik durdonalar bo'lib qo'shildi. o'rta asrlarda o'rta Osiyo davlatlarida ilm-fan va madaniyatning yuksalishi, birinchi galda shu davatlarda ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotda ro'y bergan ijobiy omillar bo'lsa, ikkinchidan o'sha vaqtdagi davlat boshliqlarining fan va madaniyat ahllarini qo'llab-quvvatlashlari natijasi edi. o'sha vaqtda xakimlik qilgan davlat arboblari o'zları o'qimishli kishilar bo'lganlar. Shuning uchun ular ilmning qadriga etar va ilm ahllarini qo'llab quvatlardilar. Ularga o'z saroylaridan joy berib, ilmiy ishlari uchun zarur sharoit yaratib berardilar. Tarixda o'sha zamondagi Xorazm, Buxoro hamda Samarqand xokimlarining shunday ilm-fan xomiylari bo'lganliklari ma'lum. Shuning uchun bu xokimliklar xududida ilm-fan va tibbiyot ravnaq topgan edi. Biz quyida shu davlatlar xududida tibbiyotning rivojlanishi bilan tanishib chiqamiz. Xususan 10 - 12 asrlarida Xorazmshohlar, soseniyalar va qoraxoniylar davridagi tibbiyot bilan tanishamiz.

9 – 10 asrga kelib jahonga mashhur bo'lgan qadimgi Xorazmshoh mavqeい qaytadan ko'tarila boshladi. Arablar istilosи davrida parchalanib ketgan Xorazm davlvati tiklandi. o'sha davrda hukmronlik qilgan shoh Ma'mun ibn Muhammad shimoliy va janubiy Xorazm shohliklarini birlashtirib, yagona Xorazm davlatini barpo etdi. Xorazm siyosiy va iqtisodiy jihatdan bir butun davlat bo'lib taraqqiy eta boshladi. Buning natijasida Xorazm yana sharqning eng rivojlangan mamlakatlaridan biriga aylandi. Uning poytaxti Gurganj (Urganch) o'z madaniy hayoti va turli fanlarning rivoji jihatidan butun Sharqqa mashhur bo'ldi. Shaharda turli hunarmandchilik, ishlab chiqarish, savdo-sotiq ishlari juda rivoj topdi.

Xorazmda ishlab chiqarilgan mo'ynalar, charm buyumlari, gilamlar va qimmatbaxo matolar dunyo bozorida eng haridorbob mollar qatoridan joy oldi. Xorazm zargarlari yasagan bezak buyumlari o'zining nozikligi va nafisligi bilan kishini xayratda qoldirardi. Ular dunyo bozorida juda yuksak baholanardi. Xorazm ustalari metall buyumlar yasashda ham juda mohir edilar. Ular yasagan quroq-aslahalar, Damashq qilichlari kabi mashhur edi. Shunday qilib 9 -10 asrga kelib, Xorazm yana dunyoga tanildi.

Xorazm davlatining poytaxti Urganch o'sha davrda katta karvon yo'llari tutashgan erda joylashgan bo'lib, mamlakatlararo savdo-sotiq ishlarida muhim rol o'ynardi. Shaharga uzoq o'lkalardan ko'plab savdogarlar, sayyoxlar kelib turardilar. Shuning uchun Urganchda bir qancha karvon-saroylar barpo etilgandi. Shaharda juda ko'p masjid-madrasalar, bozorlar, hammomlar, hashamatli saroylar qurilgan edi. Bu erda ko'p olimlar, faylasuflar, me'morlar, sa'nat namoyandalari, shoirlar va tabiblar yashardilar. Xorazm shohlari ularga xomiylit qilardilar, ular olimlarga o'z saroylaridan joy berib, ularning yashashlari va ijodiy faoliyatları uchun zarur sharoit yaratib bergen edilar.

Xorazm Ma'mun ibn Muhammadning o'g'li Ma'mun ibn Ma'mun shohlik qilgan davrda (9 asr boshi) ayniqsa ravnaq topdi. Bu shohning o'zi ancha bilimdon va o'qimishli kishi edi. Shuning uchun u ilm – fanning qadriga etar va fan ahllarini har tomonlama qo'llab-quvvatlardi. Uning saroyida unlab olimlar, faylasuflar, sa'nat namoyandalari, shoirlar va xakimlar yashardilar.

Xorazmdagi olimlar shoh saroyida tashkil etilgan «Olimlar jamiyatı»ga uyushgan edilar. Bu jamiyat tarixda «Ma'mun Akademiyasi» nomi bilan mashhur bo'lган. «Akademiya»ga buyuk o'zbek entsiklopedist olimi Abu Rayxon Beruniy rahbarlik qilardi. «Akademiya»ga o'sha zamonda ma'lum bo'lgan fanlarning hamma sohalari bo'yicha yirik mutaxassislar, shu jumladan taniqli tib olimlari ham a'zo edilar. Ulardan bizga mashhur Abu Ali ibn Sino, Abu Saxl Masihiy, Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Mansur qamariy, Abul Xayr al-Xammarlar ma'lum.

«Ma'mun Akademiya» si Xorazmda turli fanlarning rivojlanishida juda muxim rol o'ynadi. Xorazmlik olimlar fanlarning hamma sohalarini yuksak darajada rivojlantirdilar, ularni boyittilar va yangi-yagi kashfiyotlar qildilar. Ayniqsa, falakiyot ilmi (astronomiya), riyoziyot (matematika), xandasa (geometriya), tarix, jug'rofiya sohalarida ijobiy natijalarga erishildi.

Bunday umumiy yuksalish jarayonida tibbiyot ham tez rivojlandi. Bu sohada yirik olimlar etishib chiqdilar. Bundan tashqari Xorazmda, xususan uning poytaxti Urganchda, xorijiy mamlakatlardan kelgan ko'pgina xakimlar ham yashardilar. Mamlakatning poytaxti Urganchda va boshqa shaharlarda kasalxonalar va shifoxonalar barpo etilgan edi. Ularda tajribali xakimlar ishlardilar. Urganchdag'i kasalxonada bir qancha vaqt mashhur Ibn Sino va Abu Sahl Masihiylar ishlaganlar. Abu Abdu'lloh Iloqiy ham shu kasalxonada xizmat qilgan. Ular kasallarni davolash bilan birga har turli kasalliklar ustida kuzatish ishlari olib borardilar. Bu kuzatishlar natijasida to'plangan materiallar umumlashtirilib, kerakli xulosalar chqkarilar va tashxis hamda davolash sohalarida yangi usullar joriy etilardi. Ular o'z bilim va tajribalari asosida tibbiyotning muxim sohalariga oid asarlar yozardilar. Masalan, Abu Ali ibn Sino o'zining mashhur «Tib qonunlari» kitobining dastlabki boblarini Urganchda yozgan Abu Abdu'lloh Iloqiy, Umar Chag'miniylar ham tibga oid o'z kitoblarini Xorazmda yozganlar.

Shunday qilib, o'rta asrlarda Xorazm davlatida boshqa fanlar qatorida tib ilmi ham yuksak darajada rivojlandi va muhim yutuqlarga erishdi. Biz quyida 10-13 asrlarda Xorazmda yashab ijod qilgan xakimlar bilan tanishib chiqamiz.

Xorazmda yashab ijod qilgan mashhur xakimlardan biri Sharafuddin Abu Abdu'lloh Iloqiy (Aylokiy)dir.

Abu Abdu'lloh Iloqiy (Sharafuddin Abu Abdu'lloh Muhammad ibn Yusuf Iloqiy) asli Toshkent vohasidan bo'lган. U vaqtida bu voha «Illok» vohasi deb atalgan. Iloqiyning tug'ilgan yili ma'lum emas. U 1068 yilda vafot etgan. Iloqiy dastlab, Shosh (xozirgi Toshkent) madrasalaridan birida ta'lim olgan. U vaqtida Shosh qadimgi o'zbekistonning boshqa shaharlari kabi Sharqda juda rivoj topgan shaharlardan biri edi. Shaharda masjid-madrasalar, karvonsaroylar, hammomlar va boshqa maishiy binolar ko'p bo'lган. Kasalxonalar va dorixonalar ham bo'lган. Bu erda olimlar, faylasuflar va tajribali tabiblar yashardilar. Madrasalarda diniy aqidalardan tashqari dunyoviy fanlar ham uqitilardi. Iloqiy shunday madrasalardan birida dastlabki ta'limni olgan. So'ng o'z bilimini oshirish uchun Buxoroga, keyin Urganchga borib uqigan. Iloqiy tibbiyotga juda qiziqar edi. Buxoro va Urganchda Ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Abu mansur qamariy kabi buyuk tabiblardan ta'lim oldi va yirik tabib bo'lib etishdi. Urganchda Iloqiy «Ma'mun Akademiyasi» ga qabul qilindi. Bu erda u o'z bilim va tajribasini yanada boyitdi.

Iloqiy tibga oid «Kasalliklarning sabablari va belgilari». «Davolash usullari», «Tibbiyotdan to'plam», «qisqartiligan qonun» kabi asarlar yozgan.

«Kasalliklarning sabablari va belgilari»da Iloqiy tashxis masalalarini yoritadi. Kasallik sabablari masalasida olim o'sha vaqtida asosiy tushuncha hisoblangan rutubat patologiyasi nazariyasi nuqtai nazarida turardi. Bunda u qon va safroga alohida ahamiyat bergen. Shuning uchun bemorlarni davolashda u birinchi galda qon olish va safro (o't) haydovchi dorilar berishni tavsiya etgan.

Tashxis masalasida bemorlarni sinchiklab tekshirishni, kasallikning har bir belgisiga e'tibor berishni tavsiya etardi. Bemorning tomirini ushlab ko'rish, siydig'i, axlati, balg'amini tekshirish kerakligini uqtiradi. Siyidikni tekshirganda uning tusi, tiniqligi, xidiga alohida e'tibor berardi.

«Davolash usullari»da muallif o'sha davrda ma'lum bo'lган barcha davo tadbirlari – dori-darmon berish, qon olish, parhez usuli bilan davolash va xokazolar haqida bat afsil to'xtaladi. Bulardan tashqari, tabiat faktorlaridan – toza havo, suv, tog' havosi, dengizda cho'milishdan foydalanishni tavsiya etgan.

Iloqiyning ko'rsatishicha, ba'zan kasalni faqat parhez bilan ham davolash mumkin.

«Tibbiyotdan to'plam» asarida Iloqiy o'sha vaqtida ma'lum bo'lган nazariy va amaliy tibbiyot yutuqlarini umumlashtirgan. Bunda u ilgari o'tgan olimlarning fikrlarini ham keltiradi, o'z tajrida va bilimlarini ham tushuntirib o'tadi.

«qisqartirilgan qonun» kitobida Iloqiy asosan Ibn Sinoning «Tib qonunlari» kitobida bayon etilgan fikr va tavsiyalarni qisqa qilib ifodalab bergen. Bu kitob o'rta Osiyo tabiblari o'rtasida keng tarqalgan edi. Undan tabiblar o'z amaliy ishlarida foydalanganlar. Iloqiy tibbiyotning har bir sohasiga oid o'z fikr va mulohazalariga ega edi. U o'sha zamonning ko'zga ko'ringan yirik tib olimlaridan biri bo'lган.

Abu Saxl Masihiy (Abu Saxl Iso ibn Yaxiya – al-Masihiy – Jurjoniy) ko'p tajribali tabib bo'lган. o'zi Jurjon shahrida tug'ilgan. Tug'ilgan yili ma'lum emas, 1017 yilda vafot etgan. Bu tabibning ota-onasi Ovrupalik xristianlardan bo'lганlar, ammo Bag'dod shahrida yashaganlar. Masihiy shu shaharda bilim olgan, tabib bo'lib etishgan. So'ng Urganchga ko'chib o'tgan. Bu erda Masihiy Xorazm shohining Saroy tabiblaridan birining vazifasini bajargan. Mashhur «Ma'mun Akademiyasi»

olimlari qatoridan joy olgan. Ibn Sino Xorazmga ko'chib kelgandan so'ng u bilan yaqindan do'stlashib ishlaganlar.

Masihiy tibbiyotdan tashqari falsafa, mantiq va boshqa fanlar bilan ham shug'ullangan. Olim nazariy va amaliy tibbiyotning hamma sohalarini chuqur o'zlashtirgan va bu sohalarga oid bir qancha asar yozgan. Bizga Masixiyning quyidagi asarlari ma'lum: «Tibbiyotning yuzta masalasi», «Umumiylar tibbiyot haqida kitob», «Chechak haqida kitob», «Vabo haqida kitob», «Tibbiyot asoslari».

Abul Xayr ibn hammar (Abul Xayr ibn Sivor ibn Bexnom al-Xammar) o'sha zamon sharqining ko'zga ko'ringan tabiblaridan bir bo'lган. U 942 yilda Bag'dodda tug'ilgan. Bu erda bilim olgan va tabib bo'lib etishgan. Keyinroq, tajribali va mashhur tabib bo'lib tanilgandan so'ng Xorazmga ko'chib o'tgan. Buolim ham «Ma'mun Akademiyasi» ning a'zolaridan biri bo'lган.

Abul Xayr hammar Xorazmda yashagan vaqtida tibga oid bir qancha asar-yozgan. So'ng u Mahmud g'aznaviyning taklifiga binoan g'azna shahriga ko'chib keladi. Bu erda u o'zining o'tkir bilimi va zo'r tajribasi bilan g'aznaviyning hurmatiga sazovar bo'lган.

Abul Xayr hammar tibga oid «Tabiblarning bilimini sinash», «Odam a'zolarining tuzilishi», «Tutqanoq kasalligi haqida», keksa odamlarning ovqati haqida» kabi asarlar yozgan. Bu asrlarning nomidan ma'lum bo'ladiki, Abul hayr Xammar tibbiyotning muhim sohalari ustida ish olib borgan. 12 asrga kelib, Xorazm davlati o'rta Osiyo xududida eng buyuk yagona davlat bo'lib qoldi. Mamlakatda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot yanada yuksak darajaga ko'tarildi. Ilgari bo'lgamek turli fanlar, sa'at va adabiyot tez rivojlandi. Bu davrda hukmronlik qilgan Xorazm shohlari ham olimlar va sa'nat ahllarini qo'llab-quvvatladilar, ularning faoliyatları uchun zarur sharoit yaratish va ilm-fanni taraqqiy ettirishga intilardilar. Bu haqda o'sha zamonning mashhur hakimlaridan biri Ismoil Jurjoniy juda ajoyib ramziy so'z aytgan edi. U o'zining mashhur «Xorazmshoh xazinasi» nomli kitobida o'sha vaqtida hukmronlik qilgan qutbiddin Muhammad haqida bunday deb yozgan edi: «Shoh bitta kasallikka mubtalo bo'lган. Bu kasallik shundan iboratki, shoh o'z mamlakatini obod, xalqini esa ma'rifatli qilish uchun kuyib yonadi».

qutbiddin shoh va undan so'ng Otsiz shoh davrida Xorazmda madaniy hayot yanada yuksaldi. Ma'mun ibn Ma'mun asos solgan «Akdemiya» yana tiklandi. Unga ko'p mamlakatlar va shaharlardan olimlar taklif etildilar. Bu «Akademija»da

30 dan ortiq olimlar birlashgan edilar. Ular orasida fanning hamma sohalari bo'yicha yirik mutaxassislar, shu jumladan mashhur xakimlar ham bor edilar. Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, Otsiz shohning o'zi ko'p fanlardan xabardor bo'lган. Shuning uchun «Akademiya»da bo'lib turadigan suhbatlar va munozaralarda aktiv qatnashgan va ko'pincha bu «Majlisi ulamo» («Olimlar majlisi») ga raislik qilgan.

Bu davrda tibbiyot ham o'z rivojlanishida davom etdi. Bu fan sohasida mashhur olimlar paydo bo'ldilar. Tibbiy maskanlar ham rivoj topdi. Ularda o'sha davning ko'zga ko'ringan, tajribali xakimlari xizmat qilardilar. Olimlar tibbiyot ilmining muhim sohalariga oid yangi asarlar yaratdilar. o'sha davrda (12-13 asrlar) yashab ijod qilgan mashhur tib olimlaridan bizga Ismoil Jurjoniy, Umar Chag'miniy, Ibn Xatib Roziy ma'lum. Oxirgi xakim haqida etarli ma'lumot yo'q. Biz quyida Ismoil Jurjoniy va Umar Chag'miniyning hayoti va faoliyati bilan tanishib chiqamiz.

Ismoil Jurjoniy (Zayniddin Abu Ibroxim ibn Xasan ibn Maxmud ibn Axmad al-Xusayn – Jurjoniy) 1080 yilda Jurjon shahrida tug'ilgan. U yoshlik chog'idayoq juda o'tkir zehnli va zo'r qobiliyatga ega bola bo'lган, ko'p narsaga kiziqqan. Xususan, adabiyot va tabiatga oid kitoblarni ko'p mutolaa qilgan. Ammo tibbiyotga ko'proq qiziqqan. Shu sababli, u tibbiy kitoblarni ko'p o'qib, yoshlik chog'idayoq bu bilimni mukammal egalagan va bemorlarni davolashga kirishgan. Jurjoniy bemorlarning kasalligini doimo to'g'ri aniqlar va ularni muvaffaqiyatli davolar edi.

Jurjoniy o'z tajribalari tufayli tez fursatda mashhur bo'lib ketadi va uni 1110 yilda o'sha vaqtdagi Xorazm shohi qutbiddin Muhammad Anush Tegin xukmronlik qilgan vaqtida Xorazmda Ma'mun davrida bo'Igandek, ilm-fan yuksak darajada rivoj topadi, Urganchda esa olimlar jamiyati (Akademiya) tashkil etiladi. Jurjoniy bu akademiya ishlarida faol ishtirok etadi. Urganchda barpo etilgan kasalxonaga rahbarlik qiladi. kasalxonada u har xil kasalliklarning kechishini sinchiklab ko'zdan kechirib boradi. Bu sohadagi tajribalarini umumlashtiradi va asarlar yozadi.

Kasalxonada Jurjoniy rahbarligida davolash ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Bu erda yosh tabiblar Jurjoniy rahbarligida o'z tajribalarini yanada ortirardilar. Olim u erda ko'pgina shogirdlar tayyorlagan.

Ismoil Jurjoniy Xorazmda yashab ijod qilgan davri eng unumli davr bo'lган. U Xorazmda tibga oid o'zining eng asosiy asarlarini yozgan. o'rta asr tibbiyot tarixchilari Ibn Abu Usaybia, Abul Xasan al- Boyxakiy va boshqalarning

ko'rsatishicha, Jurjoniylar tibbiyotga oid ko'p asar yozgan. Shulardan eng mashhurlari «Xorazmshoh xazinasi», «Xastaliklarini aniqlash usullari», «Ibn Sino haqida so'z», «Tibbiyotning mohiyati», «Dorilar xazinasi» dir. Bu kitoblarning har biri nazariy va amaliy tibbiyotning ayrim muxim masalalariga bag'ishlangan. Bu asarlar o'rta asr Sharqi tibbiyotining rivojlanishida katta rol o'ynagan.

Bu borada «Xorazmshoh xazinasi» ni alohida ko'rsatib o'tish kerak. Bu asar Ismoil Jurjoniying asosiy kitobidir. Muallif shu kitob tufayli katta shuhrat qozondi.

«Xorazmshoh xazinasi» 600 betdan oshiqroq katta ilmiy asardir. Asarda muallif odam anatomiysi va fiziologiyasidan boshlab kasallikkarni aniqlash va ularni davolashgacha barcha muxim masalalarni bayon etgan. Kitob 10 qismdan iborat bo'lib, har bir kism tibbiyotning ayrim sohalariga bag'ishlangan.

Kitobda muallif kasallikkarning mohiyati va tibbiyotning vazifalari haqidagi o'z fikrlarini bayon etadi. Odam anatomiysi va fiziologiyasi ham ancha to'liq bayon etilgan. Jurjoniylar uzining bu asarida tibbiyotning asosiy vazifasiga to'xtalib, birinchi galda kishilar salomatligini saqlash tadbirlarini ishlab chiqish zarur, deydi. Agar kasallik paydo bo'lgan bo'lsa, uni davolashga kerakligini ham ko'rsatadi.

Salomatlikni saqlash uchun kishi sog'lig'iga salbiy ta'sir etuvchi barcha omillarni bartaraf qilish zarurligini uqtiradi. Jurjoniylar salomatlik, kasallik va tibbiyotning vazifalari haqidagi fikrlari Ibn Sinoning shular haqidagi fikrlariga tamomila mos keladi. Bu jihatdan Jurjoniylar «Xorazmshoh xazinasi» Ibn Sinoning «Tib qonunlari»ga yaqindir. Umuman bu kitoblarda bir-biriga o'xshashlik mavjud.

«Xorazmshoh xazinasi»da muallif yana uyidagi muxim masalalarni: sog' va hasta organizmning xolati, kasallikkarning belgilari va turlari bemorni tekshirish usullari, tomirni ushlab ko'rish va chiqindilarni (siydir, ahlat, balg'am va h.k.) tekshirish, odam organizmiga turli faktorlarning ta'sirini, shu jumladan, ovqat moddalarining ta'sirini aniqlashni bayon etgan. So'ng gigienik tadbirlarga, xususan, odam hayotida suv, havo, tuproq, kiyim-kechak, turarjoy, uyqu, uyqusizlikning roli masalalariga to'xtalib o'tadi. Sayyohlar va qariyalarga, yo'lga chiqqanda, salomatlikni yo'qotmaslik uchun nimalarga amal qilish kerakligini ko'rsatadi.

Kasalliklar, ularni aniqlash va davolash masalasida muallif juda muxim maslahatlar bergan. Jurjoniylar birinchi galda kasallikni to'g'ri aniqlash zarurligini uqtiradi, so'ng esa kasallikning oqibatini oldindan bilish (prognostika) muhimligini ta'kidlaydi.

Bu erda isitmali kasalliklarga alohida e'tibor bergen. Kitobda ayrim a'zolar (jigar, o'pka, ichki a'zolar va h.k.) kasalliklari va ularni davolash juda batafsil yoritilgan. hammasi bo'lib 21 a'zo va uning kasalliklari ko'rsatilgan.

Kasallikning kelib chiqishi va rivojlanishi masalasida Jurjoniy barcha Sharq tabiblari singari mizojlar nazariyasiga asoslanadi. Shunga muvofiq mizojga qarab, kasalga tashxis qo'yish va davolash usullarini ishlab chiqqan.

Nihoyat, kitobda chiqqan-singanlar (travmatologiya), teri kasalliklari, zaharlanishlar va ularga qarshi tadbirlar ko'rsatilgan.

Ismoil Jurjoniy 22 ta katta asar yozib qoldirgan. Shulardan 15 tasi tib ilmiga oiddir. Ammo, bu asarlarning hammasi ham bizgacha etib kelgan emas. Olim o'z asarlarida kasalliklarning mohiyati va sabablariga muhim ahamiyat bergen. Bu masalada u original fikr yuritadi. Ismoil Jurjoniyning fikricha, kasallik inson tanasi va uning qismlarida ro'y buradigan notabiiy xolatdir. har qanday kasallik oltita omil jarayonida kelib chiqadi. Bularning birinchisi to'rt unsur (er, havo, suv, olov), ikkinchisi to'rt rutubat (qon, xilt, safro, savdo) uchinchisi to'rt mizoj (issiqlik, sovuqlik, quruqlik, namlik) to'rtinchisi tanadagi uchta ruh (tabiiy, hayvoniyl, fikriy ruhlar), beshinchisi tananing oddiy va murakkab qismlari, oltinchisi tananing tabiiy xolati. Olimning aytishicha shu olti omil odatdagidek (ya'ni normal) xolatda bo'lsa, kishi sog'lom, agar ulardan birida chekinish ro'y bersa, kishida kasallik rivojlanadi. Shunday qilib, Ismoil Jurjoniyning fikricha kasalliklar juda murakkab jarayonda kechadi. haqiqatdan ham odam tanasining tuzilishi va unda sodir bo'ladigan protsesslar juda murakkadir. Kasallik ham shu murakkab jarayonda kechadi. Binobarin, Ismoil Jurjoniyning kasallikning mohiyati va sabablari haqidagi fikrlari boshqalar nikidan haqiqatga yaqinroqdir.

Kitob Ibn Sinoning «qonun»i kabi kosmetikaga bag'ishlangan qism bilan tugaydi. Shunday qilib, «Xorazmshoh xazinasi»da tibbiyot ilmining barcha sohalari qamrab olingan. Bu kitobni hozirgi tilda «Ichki kasalliklar propedevtikasi», deb atasa bo'ladi. Bu kitob ham Ibn Sinoning «Tib qonunlari» singari o'rta asr Sharq tabobatida katta shuhrat qozongan edi. Undan juda ko'p tabiblar qo'llanma sifatida foydalanganlar.

Jurjoniy Anush Tegin vafot etgandan so'ng, uning o'g'liga bir oz vaqt xizmat qilib, so'ng Xorazmdan ketgan. Umrining oxirida Marv shahrida yashab, shu erda 1141 yilda vafot etgan.

Umar Chag'miniy (Maxmud ibn Muhammad ibn Umar Chag'miniy) har taraflama chuqur ma'lumotga ega bo'lgan. Olim Buxoro viloyatidagi Chag'min qishlog'ida tug'ilgan. Chag'miniyning tug'ilgan yili ma'lum emas. U Urganchda yashab ijod etgan va 1221 yilda shu erda vafot etgan. Chag'miniy Urganchada ko'p fanlarni o'rgandi. So'ng Samarcandga kelib, o'z bilimini yanada oshirdi. U ayniqsa, aniq fanlar (falakiyat fani, riyoziyot, fizika) ni yaxshi o'rgangan. Tibbiyotga ham juda qiziqqan va bu sohada ko'zga ko'ringan mutaxassis bo'lgan. Uning asosiy kitobi «qonuncha» deb ataladi. Bu kitobda o'sha davrdagi amaliy tibbiyotning asosiy masalalari qisqa va aniq bayon etilgan. Bu kitob tabiblar o'rtasida keng tarqaldi va undan qo'llanma sifatida foydalandilar.

Chag'miniy asosan ichki kasalliklarni davolash bilan shug'ullangan bo'lsa kerak, chunki asarda jarrohlik masalalariga juda kam o'rinn berilgan. Inson organizmining tuzilishi va uning tabiatni masalasida Chag'miniy o'sha davrdagi naturfalsafa nazariyasiga asoslangan. Chunonchi, organizm to'rt samoviy elementdan tashkil topgan deydi. Kasalliklarning kelib chiqishi masalasida mizoj tushunchasiga asoslanadi. Umuman Chag'miniy o'rta Osiyo tibbiyotida sezilarli iz qoldirgan.

9 -10 asrlarda Buxoro davlatida ham iqtisodiy hayot, fan va madaniyat yuksaldi. Bu davrda Buxoroda Somoniylar humkronlik qilar edilar. Somoniylar ham fan va madaniyat namoyandalarini qo'llab- quvvatladilar. Buxoro xokimlari saroyida ham olimlar, shorilar, san'at namoyandalari o'zlarini uchun qulay sharoit topgan edilar. Ma'lumotlarga ko'ra, Buxoroda ham Somoniylar davrida «Olimlar jamiyati» bo'lgan. Saroyda katta kutubxona bo'lib, unda dunyo fanlarining hamma sohalariga oid ko'p nodir asarlar saqlangan. Ammo, bu asarlardan har bir istagan kishi foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Faqat podshoh saroyida xizmat qiluvchi omillar, saroy amaldorlari va ba'zi saroyga yaqin kishilargina bu erdag'i kitoblarni o'qish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Mashhur xakim Ibn Sinoning yozishicha, u o'sha vaqtda xokimlik qilgan Buxoro amiri Nux ibn Mansurni og'ir xastalikdan tuzatgandan so'ngina unga shu saroy kutubxonasi dagi nodir kitoblardan foydalanishga ruxsat berilgan.

o'sha zamondagi Buxoroda yashab ijod etgan olimlar haqida etarli ma'lumot yo'q. Faqat bir necha xakimni bilamiz xolos. Shular jumlasiga mashhur Abu Ali ibn Sino ham kiradi. Biz quyida Buxoro davlatida yashab ijod qilgan xakimlar bilan tanishib chiqamiz.

Buxoroda yashab tabiblik qilgan olimlardan biz Abu Mansur qamariy va Abu Abdulloh Notiliyni bilamiz.

Abu Mansur qamariy (Abu Mansur Xasan ibn Nux al-qamariy) tajribali tabib va olim bo'lgan. Bu olim Abu Mansur Buxoriy degan nom bilan ham atalardi. U tashxis va davolash usullarini yaxshi bilgan. Shuning uchun uni Buxoro xokimi o'zining shaxsiy tabibi vazifasiga tayinlagan. Abu Mansur qamariy tib ilmida Abu Ali ibn Sinoning ustozи bo'lgan. qamariy qadimgi Yunon, Rim, Vizantiya olimlarining asarlari bilan yaxshi tanish bo'lgan va o'zi ham asarlar yozgan. Shulardan bizga «Kasallar va kasalliklar», «Ko'krak qafasida joylashgan a'zolar kasalliklarini davolash», «qorin istisqosi», «Oddiy dorilar haqida katta to'plam», «Boyluk va salomatlik», «Mansur tibbiyoti» nomli asarlari ma'lum. Bu kitoblar orasida «Kasallar va kasalliklar» hamda «Boyluk va salomatlik» nomli kitoblar alohida o'rinn tutadi.

«Kasallar va kasalliklar»da qamariy odam tanasining tuzilishi, uning xususiyatlari, kasalliklar va ularni davolash usullarini bayon etgan. Bunda u mizoj tushunchasiga asoslangan. «Boyluk va salomatlik» asarida esa qamariy salomatlik birinchi galda normal, xotirjam hayot kechishiga bog'liq ekanini uqtiradi. Salomatlikni saqlash uchun qanday tadbirlarini amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, normal ovqatlanish, har xil zararli odatlardan saqlanish va h.k. qamariy juda sinchkov tabib bo'lgan. U tomirlarni har taraflama tekshirib, so'ng tashxis qo'ygan. Bunda bemorning ahvoli, tashqi ko'rinishi, tomir urishi, siydigining tusi, tiniqligi va yokazolarni juda sinchkovlik bilan tekshirgan. Shuning uchun deyarli hamma vaqt bemorning kasalini aniq belgilagan va muvaffaqiyatli davolagan. Buxorolik eng mashhur xakim – Abu Ali ibn Sinodir.

Ikki ming yillik tarixi mobaynida Toshkent ziyorilari orasida tabibilar ham talaygina edi. Ayniqsa XV-XVI asrlarda Toshkentda tabobatda, xususan ko'z kasalliklariga e'tibor birmuncha kuchaygan. Bu sohada bir qancha olimlar etishib chiqib, kitob bitish ishlari bilan shug'ullanadi. Natijada Toshkent tabiblarining sa'y-xarakatlari bilan bir qancha tibbiy asarlar vujudga keladi.

Bunday tabiblarning biri Shoh Ali Kahhol edi. «Kahhol»- ko'z kasalligi tabibi, hozirigi meditsina termini bilan aytganda okulist demakdir. Ayni vaqtida Shoh Ali shoir ham edi. U tabobatga doir asarini she'r bilan bitgan va «zubdan manzuma» («Nazmlar qaymog'i») deb atagan. Ushbu kitob «Kuxlnoma» deb ham yuritiladi.

Muallif asarning nasriy muqaddimasida yozishicha, odamning ko'zi nigoh og'rib qolsa, shu paytda uni davolaydigan tabib bo'lmasa, to u kelgunga qadar atrofdagilar furastni boy bermay biror tadbir qo'llashlari hamda bemor ozor topmay turishi uchun ushbu kitob bitilgan.

Ammo, deb yozadi muallif, asli maqsadim mana bu edi: «Ilgari vaqtimda aziz va muhtaram zotlar bilan birga bo'lgan vaqtimda bu azislarning xotir-shariflariga mendek bir faqir Shoh Ali ibn Sulaymon Kahhol kelib, ular menden shunday bir asar yozishimni iltimos qildilar. Ular ustozlaring, to... va birodarlarining ko'z og'rig'ini tuzatish borasida o'rganib bilgan narsalaringni bitib, qisqa bir kitobchaga tartib bersang, deb menden iltimos qildilar...

Shundan so'ng tajribada nimaiki uchragan bo'lsa, ustozlarimdanmi, ota va birodarlarimdanmi, kimdan nimani o'rgangan bo'lsam, yana bizdan oldin o'tgan olimlar asarlaridan eng sara, qaymoq gaplarini, tajribadan o'tganlarining barchasini to'pladim, keyin ularning eng yaxshilarini saylab, she'riy yo'l bilan bu u kitobni bitishga kirishdim. Bu erda shuni aytish kerakki, kitobni she'r bilan yozishdan maqsadim uni o'qish va yodlash oson, tushunish engil bo'lishi uchun edi. Bu qisqa asar nihoyasiga etgach, unga «Zubdan manzuma» («Nazmlar qaymog'i») deb nom qo'yiladi».

Manbalarga qaraganda, Shoh Ali Kaxxol asarida X asrda o'tgan Ali ibn Isoning «tazqirat al-Kaxxolina» (Ko'z tabiblariga esdalik kitob») asarini Toshkent xoni Baroqxonning farmoni bilan 1544 yili arab tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Asar aslida uch qism-maqoladan iborat bo'lib, anatomiya, tashqi va ichki kasalliklarga bag'ishlangan. Unda qadimgi yunon va arab tabiblarining fikr mulohazalari keltirgan, muallif kasaliklarni davolashda Klavdiy Galen (130-200), hunayn ibn Isxoq (873-yilda vafot qilgan) va boshqa olimlarning fikriga tayanib ish ko'rgan. Biroq Shoh Ali asarni shunchaki tarjima qilibgina qolmay, bilki uni salafdosh allomalarning asarlari asosida qayta ishlagan. Ba'zi o'rinalarini to'ldiradiki, natijada bu asar tarjimaning himmati bilan ma'lumotlarga ancha boy manbara aylangan.

Asar so'z boshisida qaysi olimlar asaridan foydalanilganini ko'rsatib o'tilgan. Kitob endi to'rt qism-maqolaga, har bir maqola boblarga bo'linadi. Birinchi qism ko'z tuzilishiga, qolganlari ko'z kasalliklarining alomatlari, ko'zga ko'rinnmaydigan ko'z kasalliklari va ularni davolash yo'llariga hamda ko'z kasalliklarida ishlatiladigan sodda va murakkab dorilarga bag'ishlangan.

Toshkent diyorida etishgan tabiblardan yana biri Muhammad Yusuf Kaxxol edi. U ham tabib oilasidan chiqqan. Tarjimai holi haqida hozircha ma'lumot yo'q. Institutimizda Muhammad Yusufning ikkita asari qo'lyozmasi saqlanadi. Ularning biri «Risola fi-t-tahqix va -t tafsirot an nabz» («Tomir orqali kasallikni aniqlash haqida risola») nomli asardir. Ba'zi sahifalarida Ibn Sinoning «qonun» asaridan misollar keltiriladi va ayrim masalalarda unga havola ham qilinadi. Muallifning ikkinchi asari «Nogiron ko'zni tuzatish haqida tahqiqlar» deb ataladi. har ikkala asar odamlar uchun foydali bo'lganidan davrimizgacha qo'lma-qo'l bo'lib etib kelgan.

Muhammad Yusufdan keyin Toshkentda tabobat sohasida Ubaydullo Kaxxol dong taratdi. Kaxxolning ota-bobolari tabobat sohasida shuhrat qozongan va tibbiy asarlari yozgan kishilar edi. Ubaydullo Kaxxol Toshkent xoni Darvishxonning shaxsiy tabibi bo'lgan. U Ibn Sino, Iloqiy, Abu Bakr Roziy, Najibuddin Samarcandiy va Jurjoniy asarlaridan foydalangan holda h8 yili «Shifo al-alil» asarini yozadi.

Asarning so'zboshisidan ma'lum bo'lishicha, avtor bu kitobni Baroqxonning o'rtancha o'g'li Muhammad Darvishxonning buyrug'iga binoan, fors va arab tillaridagi asarlar asosida yozgan. Asar so'z boshi va bir necha bobga bo'linadi. So'z boshi tabobatning ahamiyati, foydasi va shifokorning vazifalariga bag'ishlangan. Shundan keyin xilma-xil kasalliklar va ularni davolash haqida so'z yuritiladi.

1563-1564 yillarida Toshkent va uning atrofidagi viloyatlarda saramasga o'xshash el kasalligi tarqalganda Kaxxol aholini davolashda ko'p xizmatlar ko'rsatgan va shu paytda orttirgan boy tajribasi unga yuqorida ko'rsatilgan asarni yozishda katta yordam bergen.

«Shifo - ul- alil» tabobatda uzoq vaqtgacha asosiy qo'llanmalardan biri hisoblanib kelgan. hindiston, Eron va boshqa mamlakatlarga ham tarqalgan. Institutimizda asarning 1662 yili Eronda Muslim ibn Muhammad Obivardiy ko'chirgan nusxasi saqlandi. U Buxoroning qozisi, ilm-ma'rifikatni qadrlovchi Sharifjon Mahmud Sadr Ziyo tomonidan o'z vaqtida juda katta mablag' - o'n ming tangaga sotib olingan, bu esa asar nihoyatda qimmatli ekanligidan darak beradi.

Bundan tashqari Ubaydullo Kaxxol arab tilida «al-Umdat al-kuxliya fi-l-amrod al-basarif» («Ko'z kasalligiga oid asosiy kitob») nomli yirik asar bitgan, shuningdek she'riyatdan ham habardor bo'lgan.

Toshkentlik tabiblardan yana biri Boqiy Jarroh Toshkandiydir (XVI asr). U nafaqat jarroh, balki shoir, muzikashunos va hattot ham bo'lgan. Sharq mualliflaridan

Xatib Tabriziy «Mushkot al-masobi» («Chiro?don») nomli asarida bu asarni Toshentda, Mavlono Boqiy uyida yozib tugatganni ma'lum qiladi. Boqiy xattot sifatida ham anchagina kitoblar ko'chirgan, ba'zi asarlarga sharhlar yozgan, 1581 yili Davlatshoh Samarqandiyning tazqirasini ham ko'chirgan. U Balah orqali hindistonga safar qilganida Ahmadobod shahrida vafot etgan.

Boqiy Toshqandiy bir qancha asarlarga, chunonchi «Yusuf al-Zulayxo» dostoniga sharh bitgan. Shuningdek, olimlar o'rtasida ko'pgina buyon sharhlanib kelinadigan «Obod al-munoraza» degan asar sharhiga arab tilida xoshnya (izoh) ham yozgan.

Ma'lumki, «Obod-al-munozara»ning muallifi Abdurahmon ibn Ahmad al-Iyjiy (1345 yilda vafot etgan) bo'lib, bunga Mirsayid Sharif Jurjoniy (1414 yilda vafot etgan) dan tortib keyingi darvlarda o'nlab olimlar sharh bog'lagan edilar. Ana shu sharhlarning biriga Boqiy ham xoshiya yozgan.

Bu sharh kimga tegishli ekani noma'lum, ammo o'sha davrda mashhur bo'lган Boqiy Toshqandiy fors tilida anchagina g'azallar yozganiga qaramay turkigo'y shoir deb tanilgan, ba'zi taqiralarda uning she'rларидан parchalar saqlanib qolgan.

Toshkentlik shifokorlardan yana biri Shoho'ja hakim ibn Shofayzho'ja bo'lib, tahallusi Shoqiy bo'lган. Bu kishi Toshkentning Oq masjid mahallasidan, ma'rifatparvar, shoir, tabib edi. Dastlib Toshkentda, Yunusxon madrasasida mudarris bo'lган, keyin ko'п mamlakatlarga sayohat qilib, o'rtal Osiyo, Kavkaz, Turkiya, Suriya, Misr, Iraq, Saudiya Arabiston kabi o'lkalarni kezgan va u erlardagi ta'lim-tarbiya ishlari bilan qiziqib, ularni o'rgangan.

Shohiy tabobatdan ham dars bergen. Shogirdlarining iltimosiga ko'ra u Mahmud ibn Umar Chag'miniyning (XIV asr) «qonuncha» asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Kitob muqaddimasida tarjimon bu haqda shunday yozadi: «Muhammad Shoho'ja Toshkandiy valadi Shofoyzho'ja Shayh Xovand Taxuriy so'zlariki, Mahmud ibn Umar Chag'miniy tasniflari «Risolayi qonunchayi» mashkurni ba'zi talabalarga ta'lim berur erdim va alar arab lisoniga va forsiy zaboniga nooshunolik sababli ko'п mashaqqat chekar erdilar va ba'zilari iltimos qilur erdilarkim, ushbu «qonuncha»ni o'z tilimizkim, turkiy chig'atoyidur, ushbu tilda sharh aylansangiz, bu viloyat ahl-talabalari ommotan bahramand bo'lar erdilar va ham sizdan nishona bo'lur erdi, deb alar iltimosincha, osoyishlik bo'lsa inshoollo qilurman deb va'da berur erdim».

Undan tashkari, Shoxiy xirotlik Yusuf tabibning (XVI asr) «Jome' al-favond» («Foydali majmua») degan asarini ham o'zbekchaga tarjima qilgan. Shohiy arab grammatikasiga oid qo'llanmalar, o'qish kitoblari noshiri ham bo'lgan.

o'rta asrlarga kelib qadimgi Xorazm davlati qayta tiklandi. Ko'xna Xorazm shaharlarida masjid va madrasa, karvonsaroylar, suv inshootlari, kasalxonalar, hammomlar barpo etiladi.

Bunday umumiy yuksalish davrida ilm-fan, san'at va adabiyot bilan bir qatorda tibbiyot ham ravnaq topadi. Darhaqiqat, bu davrga kelib Xorazmda tibbiyot eng yuqori cho'qqiga ko'tariladi. Mana shunday bir davrda bu zaminda nazariy va amaliy tibbiyotning turli sohalarida asarlar yaratildi. Jumladan, o'sha davrda yashab, ijod qilgan mashhur hakimlardan Ismoil Jurjoniy va Umar Chag'miniylarni misol qilib keltirish mumkin. Ismoil Jurjoniy Urganchdagi hukmdor saroyi qoshida kasalxona va dorixonaga rahbarlik qilgan. Bemorlarni davolash bilan birga turli kasalliklarning kechishini ko'zdan kechirib borgan va shunga asoslanib xulosalar chiqargan, umumlashtirib tibbiyotga oid bir qancha asarlar yozgan. Misol tariqasida, uning «Kasalliklarni aniqlash», «Dori-darmon haqida», «Tibbiyotning mohiyati», «Ibn Sino haqida so'z», «Xorazmshoh zaxirasi» va boshqa asarlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Mazkur asarlar orasida olimning «Xorazmshoh zaxirasi» asari alohida ahamiyatga ega. Mazkur asar 6000 sahifadan iborat bo'lib, tibbiyotning barcha nazariy va amaliy masalalarini qamrab olgan.

«Xorazmshoh zahirasi» asarida olim bir qancha xirurgik kasalliklarning nazariy va amaliy tomonlarini yoritgan. Ismoil Jurjoniy o'zining «Zahirai Xorazmshohiy» nomli ko'p jildli asarida qon oldirish masalasiga mahsus bir bobni bag'ishlagan. U qon oldirishda muddao - turib qolgan zaharli moddalardan qon tarkibini xalos qilish yo'lidagi profilaktik vositalardan biri ekanini e'tirof qiladi. Asosan furunkulez, bosh va ko'zog'rig'i kasalliklariga chalingan bemorlardan qon olishni tavsiya etgan.

«Zahirai Xorazmshohiy»ning oltinchi qismida o'pka shishi natijasida yo'talning paydo bo'lishi, qon quşish, o'pkada shishning paydo bo'lishi, ayollar ko'krak bezining yarasi, issiq vasov uq shishlar, me'danining issiq shishi, yiring boylash va me'da yarasi haqida yozadi. o'n ikkinchi qismida o't pufagining shishlari, o'n to'rtinchi qismida buyrak, siydiq yo'llarida yaralar paydo bo'lishi, o'n oltinchi qismida siydiq tosh kasalliklari, buyrakda tosh paydo bo'lish etiologiyasi va diagnostikasi, o't pufagida tosh paydo bo'lganda operatsiya qilish masalalari haqida to'xtalib o'tadi. Ushbu asarning o'n ettinchi qismida esa issiq vasov uq mijozli odamlarning olot va yarg'oqlarida shishlarning paydo bo'lishi, jinsiy

a'zolarda yaralarni kelib chiqishi, churra kabi kasalliklar va ularning etiologiyasi, diagnostikasi, davolash usullari haqida batafsil yozilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, mashhur olim Ismoil Jurjoniy ham qon oldirish o'pka shishi, mastit, yiringli kasalliklar, me'da yarasi, issiq va sovuq shishlar. o't pufagi, buyrak, olot va yarg'oq, siyidik yo'llari singari a'zo kasalliklarining shishlari hamda siyidik-tosh kasalliklari, buyrak va o't pufagida toshning paydo bo'lisi, jinsiy a'zolarda yaralarning paydo bo'lisi, churra kabi kasalliklarning kelib chiqishi, ularga tashxis qo'yish va davolash usullarini nazariy jihatdan to'liq bayon etgan. Demak, Ismoil Jurjoniy amaliy xirurgiya bilan ham mukammal shug'ullangan va bemorlarda turli operatsiyalarni amalga oshirgan.

«Xorazmshoh zahirasi» asarida travmatologiya (singan va chiqqanlar) va kosmetika masalalariga ham alohida qism bag'ishlangan. Binobarin Ismoil Jurjoniy turli suyak sinishi va chiqishi kasalliklarini, hamda kosmetika bilan shug'ullanganligiga hech shubha bo'lisi mumkin emas. Olimning «Zahirai Xorazmshohiy» asari mashhur tibbiyat olimi Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asaridan keyingi tibbiyat sohasida yozilgan eng katta asar hisoblanadi. Bu asar qadimgi o'zbekiston xududida tibbiyat, xususan xirurgianing rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, Ismoil Jurjoniy tibbiyat tarixida o'rta shar'ning ɻakimlaridan biri sifatida alohida o'rin egallaydi.

U «Dori-darmonlar zahirasi» asarining kirish qismida quyidagilarni yozadi: «Men hali taniqli emas edim. Bir kuni Xorazmshoh Tegin kasal bo'lib qoldi. Unga men haqimda so'zlab berishgach, o'sha zahoti Urganchga olib ketishdi. Keyin Xorazmshoh meni Urganchda qoldirish to'g'risida buyruq berdi va tibbiyat bilan yanada ko'proq, chuqurroq shug'ullanishimni tayinladi. o'shandan beri shohning shaxsiy tabibi bo'lib qoldim» (1). Bundan ko'rinib turibdiki, Ismoil Jurjoniy Xorazmda eng taniqli tabiblaridan biri bo'lib, tibbiyat, xususan, xirurgiya fanini ham nazariy, ham amaliy jihatdan yaxshi o'zlashtirib olgan.

XII asr oxiri, XIII asr bosqlariga kelib Xorazmda yana bir yirik olim - Umar Chag'miniy dunyoga tanilib, riyoza, fizika, falakshunoslik va falasafa fanlarining yalovbardorlaridan biri bo'lib, qoladi. So'ngra u tibbiyat fanini ham puxta o'zlashtirib oladi. o'sha davrda Umar Chag'miniy bilimdon tabiblardan hisoblangan. Olimning tibbiyat sohasida yozilgan «qonuncha» kitobiga ba'zi tibbiyat tarixchilari o'zlarining munosabatlarini bildirganlar.

Allomaning tibga oid birgina asari ma'lum, u «qonuncha» (kichik qonun) deb ataladi. Kitobda o'sha vaqtdagi tibbiyotning asosiy masalalari ihcham qilib bayon etilgan (127). Ilmiy tadqiqotlar jarayonida Umar Chag'miniyning tabiblik faoliyati haqidagi ma'lumotlar bizgacha juda kam etib kelganligiga guvoh bo'ldik. Uning «qonuncha» kitobi 10 bobdan iborat bo'lib, olim tibbiyotni ikki qismga: nazariy va amaliy qismlarga bo'lib o'rgangan. Mazkur asarning 7 qismi odam organizmidagi bir qancha yara kasalliklari, bavosir (gemoroy) kasalligiga to'liq to'xtalib o'tadi. Uning yozishicha ichki gemorroy venaning kengayishini «basur», ko'plab kengayishi «bavosur» deb nomlangan. Bu ta'rif hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Shuningdek, Chag'miniy bavosurning turlari va uning bitishiga ta'rif bergen hamda jarrohiy davolash choralarini ko'rsatgan. So'ngra siyidik qopchasida tosh paydo bo'lishi, uning simptomatikasining klinik ko'rinishlari, turlari va xirurgik davolash usullarini bayon etgan. Suyakning yiringli va bo'g'imning silga o'xhash kasalliklarni kelib chiqishi to'g'risida xikoya qiladi. Umar Chag'miniyning «qonuncha» asarida bir qancha xirurgik kasalliklarning muammolari aniq-ravshan, lo'nda qilib ifodalab berilgan. Olim yuqorida sanab o'tgan xirurgik kasalliklarning tashxisi va davo choralarini to'g'ri talqin etgan va ular hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ko'plab tabiblar Umar Chag'miniyning davolash usullarini o'z amaliy faoliyatlarida qo'llanganlar va «qonuncha» kitobidan keng foydalanishgan. Shuning uchun ham biz Umar Chag'miniyi Markaziy Osiyoning XII asr oxiri va XIII asrning boshlarida faoliyat ko'rsatgan yirik tibbiyot olimlari qatoriga kiritishimiz mumkin.

Vazifa №1

Ma'mun akademiyasini tashkil etilishi va unda tibbiyot olimlari

Vazifa №2

Tibbiyot olimlarini asarlari va ularni amaliyotdagi ahamiyati

Vazifa №3

Masixiy va Ibn Sinoni hamorklikdagi tibbiy muolajalari

Vazifa №4

Abu Abdullox Iloqiy Ibn Sinoni shogirdi va tibbiyotga qo'shgan hissalari

Vazifa №5

Ismoil Jurjoniyni «Xorazmshoh xazinasi» va Chag'miniyning «qonuncha asari»

Interaktiv usullar

«qorbo'ron» usuli

Gurppa 2 ta guruhchaga bo'linadi va bitta muammo yoki vaziyatni muhokama qiladi. har bir to'g'ri javob ball sifatida ushbu guruhga «qorbo'ron» shaklida yozib boriladi. Eng yuqori ball to'plagan guruhga a'llo baho qo'yiladi.

Ma'mun akademiyasida tibbiyot olimlari qanday kasalliklarni davolash bilan shug'ullangan?

«Kasalliklar diagnostikasi», kasallik va salomatlik kabi asarlari mohiyati nimalardan iborat?

Xorazmda barpo etilgan kasalliklar qanday tarixiy tuzilmaga ega bo'lgan?

«Xorazmshoh xazinasi» tibbiyotni qaysi bo'limlarini o'z ichiga olgan?

«qonuncha» asari o'sha davr tabiblari o'rtasida qanday ahamiyat kasb etgan?

Test savollari

1. «Kahhol» tabiblar qaysi kasalliklarni davolash bilan shug'ullangan?

A) Ko'z kasalliklari

B) asab kasalliklari

V) jarrohlik kasalliklari

G) ichki kasalliklar

2.Toshkentlik Muhammad Yusuf Kahholni kasalliklarga diagnoz qo'yish haqida qanday asar yozgan?

- A) Tomir orqali kasallikni aniqlash haqida risola
- B) kichik qonuncha
- V) tanaga shifobaxsh etuvchi dorilar
- G) jarrohlik kasalliklari

3. Toshkentlik Shoxiy tabib qaysi mashhur xakimni asarini o'zbek tiliga tarjima qilgan?

- A) Umar Chag'miniyni «qonuncha» asarini
- B) Ismoil Jurjoniyni «Xorazmshoh xanizasi» asarini
- V) Ibn Sinoni «Tib qonunlari» asarini
- G) Shoh Alining «Nazmlar qaymog'i» asarini

4.Toshkent xoni Darvishxonning shaxsiy tabibi kim bo'lgan?

- A) Ubaydulla Kahhol
- B) Shoxiy tabib
- V) Muhammad Yusuf Kahhol
- G) Mosh tabib

5.Ma'mun akademiyasida qaysi olimlar faoliyat ko'rsatishgan?

- a) Masixiy, hammor, Ibn Sino, Iloqiy, qamariy.
- B) hammor, Ibn Sino, ar-Roziy, Chag'miniy, al-Kahhol.
- V) Attika, Masixiy, Ibn Sino, Bayxaqiy

G) Ibn Sino, Jurjoni, Chag'miniy, hammor, Iloqiy

Kontrol savollar

Ma'mun akademiyasida tibbiyot olimlari qanday kasalliklarni davolash bilan shug'ullangan?

«Kasalliklar diagnostikasi», kasallik va salomatlik kabi asarlari mohiyati nimalardan iborat?

Xorazmda barpo etilgan kasalliklar qanday tarixiy tuzilmaga ega bo'lgan?

«Xorazmshoh xazinasi» tibbiyotni qaysi bo'limlarini o'z ichiga olgan?

«qonuncha» asari o'sha davr tabiblari o'rtaida qanday ahamiyat kasb etgan?

Mavzu: Abu Ali ibn Sino uning tibbiy fikrlari va tabiblik faoliyati «Tib qonunlari» asari uning jahon miqiyosida tutgan o'rni.

Maqsad: Talabalarni buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sinoni merosini va jahon tibbiyotiga qo'shgan hissasini o'rganish «Tib qonunlari» asarini jahon tibbiyotida tutgan o'rni bilan tanishtirish

Vazifalari (kutilgan natijalar)

- Abu Ali ibn Sinoni hayoti va ilmiy faoliyatini o'rganish
- Abu Ali ibn Sinoni kasallarga tashhis qo'yish va davolash usullarini amaliy ahamiyatini o'rganish.
- Abu Ali ibn Sinoning Ma'mun akademiyasidagi faoliyatini o'rganish
- Abu Ali ibn Sinoni «Tib qonunlari» asari va uning mohiyatini o'rganish
- Ibn Sinoni bolalar kasalliklariga oid fikrlarini o'rganish.

Nazariy qism

Abu Ali ibn Sinoning tarjimai holi ikki qismga bo'linadi. Birinchi qismini Ibn Sinoning o'zi aytib bergen. Bu qism olimning hayot ta'kozosi bilan ko'p shaharlarni kezib yurib, oxiri Eron xududida bo'lgan Jurjon shahriga kelib, shu erda istiqomat qila boshlagan davrini o'z ichiga oladi. Bu 980-1012 yillarga to'g'ri keladi. Ikkinci qismi Ibn Sinoning Jurjondagi hayotidan boshlanib, to vafotigacha bo'lgan davrini o'z ichiga oladi. Bu davr 1012-1037 yillarga to'g'ri keladi. Bu qism olimning shogirdi Abu Ubayd Juzjoniy tomonidan yozilgan. So'ng Juzjoniy bu har ikkala qismni birlashtirib, unga «Tarix ahvol ash-Shayx ar-Rais» («Olimlar boshlig'i (Ibn Sino) ning tarjimai ɻoli») deb nom bergen.

«Tarix ahvol ash-Shayx ar-Rais» juda qisqa yozilgan. U hammasi bo'lib 3 varaq (6 bet) dan iborat. Unda Ibn Sinoning ko'p qirrali hayoti va faoliyati to'liq ifoda etilmagan. Kitobga Ibn Sinoning hayotida bo'lib o'tgan voqealarning hammasi kiritilmagan. Bu kamchilik keyinchalik o'sha zamonda yashagan boshqa olimlar va tarixchilar tomonidan to'ldirilgan. Ular o'zlari ko'rib, yoki ko'rganlardan eshitib, kerakli qo'shimchalar kiritganlar. Masalan, o'sha davrlardagi tarixchilardan Abul Xasan al-Bayhaqiy (1105-1169), Ibn al-Kiftiy (1172-1248), Ibn al-halliqon (1211-1282) va biz yuqorida ko'rsatib o'tganimiz Ibn Abi Usaybi'a (1203-1270) va boshqa tarixchilar Ibn Sinoning tarjimai holiga ko'p ma'lumotlar qo'shganlar va aniqliklar kiritganlar. Juzjoniyning o'zi ham «Tarix ahvol ash-Shayx ar-Rais» da bergen ma'lumotlaridan tashqari Ibn Sinoning «Kitob ash-shifo» nomli asariga yozgan muqaddimasida ustozи haqida qo'shimcha ma'lumotlar bergen. Shunday kilib, Ibn Sinoning hayoti va faoliyati haqida ancha to'liq ma'lumot to'plangan.

Ammo Ibn Sinoning hayoti va tabiblik faoliyati haqida har xil rivoyatlar ham ko'plab to'qilgan. Ularning ko'pchiligi hech aqlga to'g'ri kelmaydigan turli afsonalar va uydirmalardan iborat bo'lsa, ba'zilari haqiqatga yaqin keladigan hayotiy xodisalardir. Ibn Sinoning hayoti ɻaқida ko'p asar yozgan sharqshunos – tarixchi olim A. Irisov olim haqidagi rivoyatlarni yig'ib 1980 yilda «Abu Ali ibn Sino haqida, afsonalar, rivoyatlar, xikoyalar» nomli kichik bir kitob chop ettirdi. Unda yigirmaga yaqin har xil xikoyalar, rivoyatlar va afsonalar keltirilgan.

A. Irisovning kitobchasida keltirilgan xikoyalardan «Yigit kasali», «Men ho'kizman», «Falaj podshoh», «Bir ko'rishda», «Kech qolibsiz», «Bir so'z ham boshqa emas», «Siz tilshunos emassiz» deb ataluvchi xikoyalar diqqatga sazovor. Bularda bayon etilgan xodisalar haqiqatga anchagina yaqindir. Ammo yuqorida

aytganimizdek, kitobchada keltirilgan xikoyalarning ko'pginasiga tabiatda bo'lmaydigan va hayotda uchramaydigan har xil afsonaviy xodisalardan iborat.

Biz Ibn Sinoning hayoti va tabiblik faoliyatini bayon etishda bunday afsonaviy uydirmalarni chetlab o'tdik.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Ibn Sino (Abu Ali al-husayn ibn Abdulloh ibn al-hasan ibn Ali ibn Sino) Buxoro yaqinidagi Afshona nomli qishloqda 980 (370 hijriy) yil safar (avgust) oyida (kuni ma'lum emas) dunyoga kelgan. Mashhur tarixchi Abu Bakr Muhammad Narshahiyning yozishicha, Afshona bir vaqtlar kattagina shahar bo'lgan, so'ng vaqt o'tishi bilan u o'z mavqeini yo'qotib, kichikroq qishloqqa aylanib qolgan va Isfana deb atala boshlagan. Bu qishloq hozir yana Afshona, deb ataladi.

Ibn Sinoning o'zi tarjimai holida yozishicha, uning otasi Abdulloh ibn hasan Afshonaga qo'shni bo'lgan Xurmayson (hozirgi Rometon) qishlog'ida ma'muriy xizmatga boshchilik qilgan. qanday ma'muriy xizmat ekanligini Ibn Sino ko'rsatmaydi. Ko'pchilik tarixchilar Abdulloh ibn hasan soliq yig'uvchi edi, deb yozadilar. Demak, u soliq yig'uvchilarning boshlig'i bo'lgan.

hurmayson Buxoro muzofotidagi yirik qishloqlardan biri bo'lgan. Atrof qishloqlardan yig'ilgan soliqlarni dastlab shu erga to'plab, so'ng podshoh xazinasiga topshirgan bo'lalar kerak. Solik yig'uvchilik daromadli ish Abdulloh bu ishga boshchilik qilganligi uchun ancha badavlat kishi bo'lgan. U o'z vazifasiga ko'ra hurmayson atrofidagi qishloqlarga tez-tez borib turgan. Shulardan birida Afshona qishlog'ida bir husndor qizni ko'rib, uni yoqtirib qolib uylanadi va ularning oilasiga ko'chib kelib, shu oilada yashay boshlaydi. Bu oilada dastlab husayn (Ibn Sino), so'ng Mahmud ismli ikki o'g'li tug'iladi.

Abdulloh ibn hasan o'z davrining ilg'or fikrli, ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan. Ilm – fanni qadrlagan. o'zi ham ba'zi fanlarga (falsafa, riyoziyot, iloxiyot) qiziqqan. U o'z bolalarini ham o'qimishli kishilar bo'lib etishishlari uchun harakat qilgan. Shu maqsadda bo'lsa kerak, katta o'g'li husayn maktab yoshiga etganida o'z oilasini ilm o'chog'i bo'lgan Buxoroga ko'chirib olib kelgan.

Ibn Sinolar oilasi Buxoroga ko'chib kelganidan so'ng Abdulloh husaynni dastlab, odatdagidek, shahardagi yaxshiroq hisoblangan musulmoncha diniy maktablardan biriga o'qishga bergen. Bu erda Ibn Sino arab alifbosidan savod chiqarganidan so'ng u qur'on va adab ilmini o'rganishga kirishgan. «qur'on ilmi» ga uni yodlab olish, qiroat bilan o'qish, uning suralari va oyatlarini izohlab berish

kiradi. «Adab ilmi» ga esa arab tili qoidalari, sh'er san'atini egallah, xususan ma'oniy, bayon va qofiyani to'g'ri ishlatalish kiradi. Odatda, talabalar bu bilimlarni egallah uchun yillab, hatto o'n yillab vaqtlarini sarf qiladilar. Ibn Sino esa qur'on va adab ilmlarini juda oz muddatda mukammal o'zlashtirib olgan. Buning natijasida u yosh bo'lishiga qaramay, hadis va tafsirda boshqalardan ancha o'tkirlig qilgan. U badiiy adabiyotga ham qiziqsan, she'rlar yoza boshlagan. o'sha vaqt tarixchilarining yozishicha. Ibn Sino o'qigan kitoblarini shu qadar tez va mukammal o'zlashtirib olarkanki, buni ko'rgan odamlar hayratga tushgan ekanlar.

o'sha vaqtda Buxoroga Abu Abdulloh an-Notiliy ismli bir faylasuf olim kelib qolgan. Ibn Sinoning otasi, o'g'lim bu olimdan falsafa ilmini o'rgansin, deb an-Notiliyni o'z uyiga joylashtirgan. husayn bu olimdan falsafa, mantiq va handasa ilmlaridan dars ola boshlaydi. Ammo ko'p o'tmay an-Notiliyning bu fanlarda unchalik kuchli emasligi ma'lum bo'lib qoladi. Bu haqda Ibn Sinoning o'zi tarjimai holida bunday deb yozgan: «U (an-Notiliy) menga qaysi masala haqida gapirmasin men bu masalani undan ko'ra durustroq tasavvur qilardim. Nihoyat, men mantiqning oddiy masalalarini u kishidan o'qidim, lekin mantiqning nozik tomonlaridan u behabar ekan. Shunday qilib, mantiqqa oid kitoblarni o'zimcha o'qishga kirishdim. Ularda bitilgan sharhlarni mutolaa qila boshladim va nihoyat mantiq ilmini puxta bilib oldim. Uklidus (Evklid) kitobi ham shunday bo'ldi. Uni bosh qismidan besh yoki oltita teoremalarni uning oldida o'qidim. Kitobning qolgan qismidagi masalalarni o'zimcha echishga kirishdim. So'ngra «Al majistiy» kitobiga o'tdim... An-Notiliy bu fandan durustroq xabardor emas ekan. Men bu kitobni o'zimcha o'zlashtirishga kirishdim. U kishiga qanchadan-qancha shakillarni tushuntirib berardim. Shunga qadar u kishi bularni bilmagan ekan».

Ibn Sinoning yozishicha, an - Notiliy ko'p o'tmay Xorazmga ketib qolgan. Shundan so'ng Ibn Sino fanlarni ko'proq mustaqil o'rghanishga kirishgan. Xususan, u falsafa, mantiq, fikhga oid kitoblarni ko'p mutolaa qilgan. Tabbiy fanlarga oid kitoblarni ham o'qib chiqqan. Ibn Sino o'zi o'qigan kitoblari qatorida Abu Nasr al-Forobiyning «Fusus al-hikam» («hikmatlarning xulosalari») nomli asarini ham ko'rsatib o'tgan.

Shunday qilib, Ibn Sino ancha yosh chog'idayoq, o'sha zamonda ma'lum bo'lgan bilimlarning qo'pini puxta o'zlashtirib olgan. U hatto katta olimlar qatorida ilmiy munozaralarda ham qatnasha boshlagan. Bunday suhbat va munozaralarda Ibn Sino o'zining chuqur ilmiy mulohazalari va mantiqiy fikrlash kuchining zo'rligi bilan ko'pgina katta olimlardan ustunlik qilgan. Bu Ibn Sinoning faqatgina zo'r

iste'dodi natijasi bo'lmay, shu bilan birga uning tinimsiz mehnatining mahsuli ham edi. haqiqatan, Ibn Sino bilim olishda juda ham tirishqoq va sabot-matonatli bo'gan. Bu haqda uning o'zi shunday deb yozgan: «Keyin men yana bir yarim yil ilm va mutolaaga berildim. Mantiq va falsafaning hamma sohalarini qaytadan puxtalab o'qib chiqdim. o'sha kezlarda biror kecha ham to'yib uxlamasdim. Kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug'llanmasdim... Kechalari oldimga chiroq qo'yib olib, faqat o'qish va yozish bilan band bulardim... Ana shu zaylda hamma ilmlarni mustaqil egallab oldim».

Bu erda Ibn Sino ilm o'rganishda o'zining qanchalik tirishqoq va sabot-matonatli ekanligini ko'rsatuvchi quyidagi misolni keltirgan: Ibn Sino barcha asosiy tabiat fanlarini o'zlashtirib olganidan so'ng. Iloxiyotni o'rganishga kirishgan va Aristotelning «Mo ba'da at-tabia», ya'ni «Tabiatdan keyingi fan» («Metafizika») kitobini o'qiy boshlaydi. Ammo uning mazmuniga tushunolmay qayta-qayta o'qiyveradi. U hatto bu kitobni qirq marta o'qib chiqib, tamoman yodlab oladi. Shunda ham Ibn Sino uchun bu kitobning mazmuni qorong'i bo'lib qolavergan. Faqat shundagina Ibn Sino «bu kitob tushunib bo'lmaydigan kitob ekan», deb undan umidini uzgan.

Ammo bir tasodifiy xodisa tufayli Ibn Sino bu kitobning mazmunini tushunib olgan. Bu hodisa shunday bo'lgan ekan: o'sha vaqtida Buxoro bozorida maxsus kitobfurushlar va muqovachilar rastasi bo'lgan ekan. Ibn Sino u erga tez-tez borib, yangi kitoblar xarid qilib turarkan. Bu kitob rastasi faqatgina kitob sotiladigan joy bo'lmay, bu erda ko'pincha olimlar, faylasuflar va shoirlar yig'lishib, har xil kitoblar va ularning mazmuni haqida suhbatlar, munozaralar va bahslar o'tkazib turisharkan. Ibn Sino ham ko'pincha bu yig'lnlarda qatnashib turarkan. Bir gal Ibn Sino shu kitob rastasiga borganida bir kitobfurush chiroyligi qilib muqovalangan bir kitobni unga ko'rsatib, - buni sotib ol, juda yaxshi kitob, deb maqtaydi. U Abu Nasr Forobiyning «Mo ba'da at-tabia» ga yozgan sharhi ekan. Ibn Sino bu kitob, ya'ni «Mo ba'da at-tabia» tushunib bo'lmaydigan asar, deb sotib olishdan bosh tortadi. Ammo kitobfurush – bu kitobning egasi pulga muhtoj, uni juda arzonga -3 dirhamga beraman, ol- deb Ibn Sinoni ko'ndiradi. Ibn Sino noiloj kitobni sotib oladi va uyga kelib uni o'qib chiqib, «Mo ba'da at-tabia» ning mazmunini tushunib oladi. Ibn Sino bu voqeani shogirdi Abu Ubayd Juzjoniya aytib berib, uni quyidagi so'zlar bilan tugatgan ekan. «Bundan men o'zimda yo'q xursand bo'lib ketdim. Tangri taologa shukur aylab, o'sha kunning ertasigayoq kambag'allarga ancha sadaqa ulationdim».

Bu voqea uch muhim jihatdan guvohlik beradi. Birinchidan, Ibn Sinoning bilim yo'lida zo'r sabot-matonatliligi. Ikkinchidan, bozorida «Metafizika» ning sharhidek nodir kitobni bemalol sotib olish mumkin bo'lgan Buxoroning yuksak madaniyati. Uchinchidan, o'sha zamonda yurtimizda Aristoteldek buyuk faylasufning asarlariga sharh yozish qo'lidan keladigan chuqur bilimli olimlarning mayjud bo'lganligidir.

Abu Ali ibn Sino tib ilmi bilan ham ancha erta shug'ullana boshlagan. Bu haqda uning o'zi tarjimai holida bunday deb yozgan: «Keyin tib ilmi bilan shug'ullangim kelib qoldi va unga oid kitoblarni o'qishga kirishdim. Tib o'zi qiyin fanlardan emas, shu sababli qisqa vaqt ichida bu bilmida katta natijalarga erishdim. Endi hatto bilimdon tabiblar ham xuzurimga kelib, mendan tib ilmidan dars oladigan bo'ldilar. Bemorlarni ham ko'rib turardim. Orttirgan tajribalarim tufayli men uchun davolash eshiklari shunday keng ochildiki, buni ta'riflab berish qiyin... Bu vaqtda men o'n olti yoshda edim».

Ibn Sino tib ilmini haqiqatan tez va oson o'zlashtirib olgan. Kasallarni muvaffaqiyatli davolab, Buxoro aholisi o'rtasida ko'p hurmatga sazovar bo'lgan. Shahardagi nufuzli kishilar ham kasal bo'lib qolganlarida Ibn Sinoda davolana boshlaganlar. Buning natijasida uning obro'si yana oshgan. Nixoyat, bu «yosh mo'jizakor» tabib haqidagi so'zlar podshoh saroyiga ham borib etgan. Bir kun esa Ibn Sinoni shohning o'zini davolashga chorlaganlar. Ibn Sino o'zining chuqur bilimi va o'tkir mulohazalari bilan shohning kasaliga tashxis qo'yish va uni davolashda saroy tabiblariga yordam bergen. Buning natijasida u shohning hurmatiga sazovar bo'lib, «saroya yaqin kishilar» qatoriga kirgan. Bu haqda Ibn Sinoning o'zi tarjimai holida bunday deb yozgan : «Buxoroning podshohi Nux ibn Mansur edi. Ittifoqo u shunday bir kasallikka duchor bo'lib qolibdiki, tabiblar uning kasalligi haqida bir fikrga kelisha olmabdilar. o'qishga qattiq kirishganim tufayli, nomim ular o'rtasida mashhur bo'lib qolgan ekan. Podshoh huzurida mening haqimda gapirishib, undan meni ham chaqirishni so'rashibdi. Podshoh bunga rozi bo'libdi. Men borib tabiblar bilan birgalikda shohni davolashda ishtirok etdim va shu orqali unga tanildim».

Buxorodagi shoh saroyida nodir kitoblarga boy katta kutubxona bo'lgan. Bu Ibn Sinoga ma'lum edi. Ammo bu kutubxonadan faqat saroy amaldorlari va shohga yaqin kishilargina foydalana olardilar. Ibn Sino saroya yaqin kishilar qatoriga kirganidan so'ng uning uchun ham kutubxonadan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi. U bu erdag'i kitoblarni o'qishni juda istardi. Bir kun qulay fursat topib, shohdan saroy kutubxonasiга kirib, u erdag'i kitoblarni o'qish uchun ruxsat

so'raydi. Xususan, Ibn Sino tibga oid kitoblar bilan tanishish zarurligini bildiradi. Shoh Ibn Sino kutubxonaga kirish uchun ruxsat beradi. Ibn Sino kutubxonaga kirib, u erdag'i kitoblarning ko'pligi va xilma-xilligini ko'rib, hayratda qoladi. Bu erda Ibn Sinoga ilgari nomlari ham ma'lum bo'Imagan kitoblar ko'p ekan. Ibn Sino bu kutubxona va undagi kitoblar haqida bunday ma'lumot bergen: «Men ko'p xonalardan iborat kutubxonaga kirdim. har bir xonada kitob sandiqlari turar, kitoblar esa ustma-ust taxlab qo'yilgan edi. Xonalarning birida arab tiliga oid kitoblar, she'rlar, boshqasida fikhga oid asarlar turardi. Shu tartibda har bir xonada fanning ayrim bir sohasiga oid kitoblar to'plangan edi... U erda shunday kitoblarni ko'rdimki, ko'pchilik xatto ularning nomlarini ham eshitmagan bo'lsa kerak. o'zim ham ularni bundan ilgari ko'rmagan edim, keyin ham uchratmadim».

Ibn Sino o'ziga xos tirishqoqlik va qunt bilan kutubxonadagi nodir kitoblarni o'qishga kirishadi. Ammo u bu erda tibga oid qanday kitoblarni ko'rgani va o'qigani haqida hech narsa yozmagan. Lekin bunday kitoblar, albatta bo'lган bo'lishi kerak. Chunki o'sha vaqtarda yozilgan va arab tiliga tarjima qilingan kitoblar ichida tibga oid asarlar ko'pchilikni tashkil etardi.

Ibn Sino kitob o'qishga shu qadar berilib ketadiki, kutubxonadan chiqmay kecha-kunduz o'sha erda qolib ketadi. Bundan xabardor kishilarning yozishicha, faqat shohning o'zi yoki saroy amaldorlaridan biri betob bo'lib qolib, Ibn Sinoni chaqirtiganlaridagina u o'qishdan boshini ko'tararkan. Shunday matonatli mehnat tufayli Ibn Sino qisqa vaqt ichida kutubxonadagi kitoblarning juda ko'pini o'qib chiqib, o'zlashtirib olishga muvaffaq bo'ladi. Buning natijasida Ibn Sinoning bilimi tengi yo'q darajada kengayadi. Bu vaqtida u endigina o'n sakkiz yoshga to'lган ekan. Shu yoshda u o'sha vaqtida ma'lum bo'lган dunyoviy fanlarning deyarli hammasini egallab olgan edi.

997 yilda shoh Nux ibn Mansur vafot etadi. Uning o'rniiga o'ltingan katta o'g'li Abul Xoris Mansur ibn Nux Soniy Ibn Sinoga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lган. Ilgari ular saroy kutubxonasida uchrashib, do'stlashib qolgan ekanlar. Abdul Xoris Ibn Sinoni saroydagi yuqoriroq mansablardan biriga tayinlaydi.

Saroydagi xizmat Ibn Sinoning ancha vaqtini olardi. Shuning uchun uning ilmiy-ijodiy ishlari ancha sekinlashib qoladi. Buning ustiga Ibn Sinoning boshiga boshqa tashvishlar ham tushadi. Ko'p o'tmay (999 yil) Abul Xoris Mansur ibn Nux Soniy saroydagi fitna natijasida o'ldiriladi. Uning o'rnini ukasi Abul Favoris Malik ibn Nux egallaydi. Bu yangi shoh Ibn Sinoga nisbatan unchalik iltifot qilmaydi. Shuning uchun Ibn Sino saroy xizmatidan ketadi.

X asr oxirida (999 yil) Etti suv tomonidan kelgan qoraxoniylar Buxoroni zabit etadilar. Somoniylar davlati tugatilib, qoraxoniylar hokimiyati o'rnatiladi. qoraxoniylar mamlakatda o'zgacha siyosat, yangicha tartib o'rnatadilar. Bu Ibn Sinoga unchalik yoqmaydi. Ammo shunday bo'lса ham qoraxoniylar saroyida xizmat qilishga majbur bo'ladi. Bu haqda olimning o'zi bunday deb yozgan: «Otam vafot etib, ahvolimda o'zgarish yuz berdi. Sulton xuzuridagi vazifalardan birini o'z zimmamga oldim. Keyin zarurat yuzasidan Buxoroni tark etdim». Ma'lumotlarga ko'ra Ibn Sinoning otasi Abdulloh ibn hasan 1002 yilda vafot etgan. Demak, bu voqealar shu yillari sodir bo'lgan.

1004 yil kech kuzida yoki 1005 yil boshida Ibn Sino Buxoroni tark etadi. Ibn Sino buning sababini ochiq ko'rsatmay, «zarurat yuzasidan Buxoroni tark etdim» deb qo'yaqoladi. Bundan Buxoroda Ibn Sino uchun noxush holatlar yuz bergani ko'rindi. Uning Buxorodan yashirinchcha chiqib ketganligi ham shuni ko'rsatadi. Fikrimizcha, qoraxoniylar hukmdorlari Ibn Sinoga nisbatan unchalik do'stona munosabatda bo'limganlar. Buning natijasida olimning boshiga tashvishli ishlar tushishi mumkin edi. Bunday vaziyatdan kutulish uchun u zohidlar ridosini kiyib olib, Xorazm davlatining poytaxti Urganch tomonga jo'naydi. Bu vaqtida Xorazmning kadimgi madaniyati tiklanib, uning poytaxti Urganch Sharqning juda taraqqiy etgan shaharlaridan biriga aylangan edi. Unda ko'plab masjid-madrasalar, karvonsaroylar, hammomlar, kasalxonalar va boshqa madaniy-maishiy binolar barpo etilgandi. Shaharda ko'p olimlar, faylasuflar, shoirlar, hakimlar yashardilar. Bu vaqtida hukmronlik qilgan ma'muniylar mamlakatda ilm-fan va madaniyatni yuksaltirishga katta ahamiyat berardilar, fan ahllarini qo'llab-quvvatlardilar. Ularga saroydan joy berib, ilmiy-ijodiy ishlari uchun zarur sharoit yaratib berardilar. Ibn Sino buni yaxshi bilardi. Shuning uchun u Xorazmga tomon yo'l olgan edi. Olim yo'lda ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirib, 1005 yil boshlarida Urganchga etib keladi. Bu erda olimni yaxshi kutib oladilar, unga saroydan joy berib, yashash va ilmiy-ijodiy ishlari uchun zarur sharoit yaratib beradilar. Bu haqda Ibn Sinoning o'zi tarjimai holida bunday deb yozgan: «Keyin zarurat yuzasidan Buxoroni tark etib (o'ziga ortiqcha tashvish ortirmaslik uchun u Buxorodagi ko'ngilsiz vaziyatlarni yozmaydi) Gurganch (Urganch) tomonga ko'chishimga to'g'ri keldi. U erda ilmni seuvuchi Abul-l- hasan as-Sahliy vazir edi. U arning amiri xuzuriga kirdim. Amir Ali ibn Ma'mun edi. Men uchun menga o'xshaganlarga beriladigan etarli miqdorda oylik tayin qilishdi.

Ibn Sino o'z tarjimai holida Xorazmda yashagan yillari haqida juda kam yozgan. Lekin tarixdan ma'lumki, olimning bu o'lkada yashagan yillari uning

hayotida eng osoyishtalik va samarali yillar bo'lgan. Xorazm shohi Abul Xasan Ali ibn Ma'mun (998-1009 yillarda shohlik qilgan) ma'rifatparvar shoh bo'lgan. U ilm ahllarini qadrlagan va ularni doim qo'llab-quvvatlagan. Ibn Sinoni u juda yaxshi qabul qilib, uning uchun zarur sharoit yaratib bergen. Ibn Sino bu erda moddiy va ma'naviy jihatdan muhtojlik sezmay juda yaxshi yashagan.

Ali ibn Ma'mundan keyin shohlik qilgan Abu Abbos Ma'mun ibn Ma'mun ham ilm ahllarini qo'llab-quvvatlashni davom ettirdi. Bu shoh davrida (1009-1017 yillar) tarixda «Ma'mun Akademiyasi» deb nom olgan «Bilimlar uyi» («Bayt ul-hikma») tashkil etilgan edi. Bu «Akademiya» da yigirmadan ortiq turli sohaning olimlari birlashgan edilar. Ular qatorida mashhur xakimlar ham bo'lgan. Ibn Sino ham «Akademiya»dagi olimlar qatoriga kiritilgan edi. «Akademiya» ga mashhur xorazmlik olim Abu Rayxon Beruniy rahbarlik qilardi. Ibn Sino Beruniy bilan juda do'stlashib olgan edi. Ular ko'p ilmiy masalalarni birgalikda o'rganib, birgalikda echar edilar. Beruniy o'zi ham bir jihatdan tibbiyotga yaqin bo'lgan. U turli dorivor o'simliklar va moddalarni yaxshi bilgan.

Ibn Sino Xorazmda o'zining tibga oid birinchi asarlarini yoza boshlagan. Uning bu sohadagi birinchi yozgan asari «Daf' al-madorr al-kulliya an al-abdan al-insoniya bi-tadoruk anva' xata at-tadbir» («Tadborda yo'l qo'yilgan hatolarni bartaraf qilish yo'li bilan inson tanasiga etgan zararlarni tuzatish») deb atalgan. Bu kitob keyin qisqaroq qilib, «Tadoruk anva al-xata al-voqi' fi-t-tadbir at-tibbia» («Tibbiy qoidalarda uchraydigan xatoliklarni tuzatish») deb atala boshlagan. Kitobning muqaddimasida aytishicha, Ibn Sino mazkur asarni Xorazm shohining bosh vaziri Abul hasan Muhammad as-Sahliyning taklifiga binoan yozgan. Kitob o'z nomidan kelib chiqib, tibbiyot amaliyotida va hayotda xatoliklarga yo'l qo'yish natijasida paydo bo'ladigan kasallik xolatlarini oldini olish va tuzatishga bag'ishlangan. A Irisovning yozishicha, Ibn Sino Abul as-Sahliyga «Urjuza fi-l-mantiq» («Mantiqqa oid urjuza») nomli asar ham yozib bergen.

Xorazmda Ibn Sino 7 yilcha yashagan (1005-1011 yillar). Bu yillar uning uchun eng samarali yillar edi. Lekin 1011 yilning o'rtalarida Ibn Sino Xorazmni tark etishga majbur bo'ldi. Chunki qo'shni mamlakat-Xurosoning hukmdori Sulton Mahmud g'aznaviy (Yaminiddin Mahmud ibn Sabuktagin) zo'rayib ketib, Xorazmga tahdid qila boshlaydi. (Xorazm uning ta'siriga tushib qolgan edi). Mahmud Xorazm shohiga maktub yozib, uning saroyidgi olimlarni g'aznaga, uning saroyiga yuborishini talab qiladi. U Beruniydek ulug' olim, Ibn Sinodek buyuk hakimning o'z saroyida xizmat qilishlarini istardi. Ammo sulton Mahmud juda dindor odam edi,

u dahriy, deb ataluvchi erkin fikrli kishilarni yoqtirmasdi. Ibn Sino esa «dahriy» deb nom chiqargan edi. Shuning uchun uning Mahmud saroyiga borishi xavfli edi. Abu Sahl Masihiy esa g'ayridin (nasroniy) edi. Shuning uchun shoh Ma'mun Sulton Mahmudning xatini olimlarga o'qib berib, har kim bu masalani o'zi hal qilishini so'raganida Ibn Sino bilan Masihiy Sulton Mahmud saroyiga bormasliklariini bildirdilar. Ular shohning topshirig'i bilan vazir Abul hasan as-Sahliy yordamida Xorazmdan yashirinchcha chiqarib yuborildilar. Ko'p tarixchilarining yozishicha, Beruniy ularga Jurjonga-qobus xuzuriga yoki Rayga Malika Sayida saroyiga borib, o'sha erda xizmat qilishni tavsiya etgan va ularning qo'liga bu shohlar nomiga xat bitib bergen. Xatda Beruniy bu shohlardan Ibn Sino va Masihiyga zarur sharoit yaratib berishni iltimos qilgan edi. Abu Rayxon Beruniy bir vaqtlar Jurjonda, qobus saroyida va Rayda Malika Sayida saroyida xizmat qilib, ularning xurmatiga sazovar bo'lgan edi. Shuning uchun ularga xat orqali murojaat qilishga jur'at etibti.

Sulton Mahmud haqiqatan dindor odam bo'lganligi va dahriylarni yoqtirmaganligi to'g'ri. U o'z dushmanlariga nisbatan juda shafqatsiz bo'lgan. Lekin, ba'zi tarixchilar yozganidek, har qanday taraqqiyotga qarshi johil odam bo'lgan emas. U mamlakat taraqqiyotida ma'naviyatning tutgan o'rnini tushunardi. Ilm-fan va madaniyat davlatning shuhratini oshirishini ham bilardi. Shu sababdan fan ahllarini qo'llab-quvvatlagan. Ularga turli imtiyozlar ham bergen. Masalan, Mahmud o'z saroyida sidqidillik bilan xizmat qilgan hakim Abul Xayr ibn Sivor Behnomga «hammor» degan joyni hadya qilgan. Shundan keyin bu olimning nomiga «hammor» so'zi qo'shib, u Abul Xayr hammor deb atala boshlagan. Tarixiy ma'lumotlarda yozilishicha, Mahmudning o'zi va uning o'g'li Mas'ud hukmronlik qilgan davrda ular qo'li ostidagi shaharlarda ko'plab masjid-madrasalar, xonakohlar, karvonsaroylar, kasalxonalar barpo etilgan. Masalan, Sulton Mahmudning o'g'li Mas'ud g'azna shahrida katta shahar kasalxonasi barpo ettirgan edi. Unga boshliq qilib o'sha davrning ko'zga ko'ringan hakimlaridan biritabib Abu Ҳamid an-Naxshiyi tayinlagan. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra u Abu Rayxon Beruniyni qandaydir og'ir xastalikdan operatsiya qilib tuzatgan. Shoh saroyida ko'plab o'sha zamonning ko'zga ko'ringan olim va fozillari xizmat qilganlar. Binobarin, Sulton Mahmud Ibn Sinoni o'z saroyiga taklif etganida uni o'ldirishni emas, balki bu hakim unga xizmat qilishini ko'zda tutgan edi. Lekin Ibn Sino Masihiy bilan birga g'aznaga emas, Jurjon tomonga yo'l oldilar. Urganch bilan Jurjon o'rtasida dahshatli qoraqum sahrosi yotardi. Bu sahrodan o'tishda Masihiy yo'l azoblariga chidash beraolmay olamdan o'tdi. Ibn Sino ko'p qiyinchiliklarni boshidan kechirib, hozirgi Turkmaniston xududida bo'lgan Niso shahriga etib

oladi. Bir oz vaqtdan so'ng Abiverd shahriga o'tadi. Ammo bu shaharda ham uzoq turmaydi, chunki Sulton Mahmud Ibn Sino uning saroyiga borishdan bosh tortganligi uchun darg'azab bo'lib, ko'p shaharlarga o'z ayg'o'kchilarini yuborib, ularga Ibn Sinoni topib, zo'rlik yo'li bilan bo'lsa ham g'aznaga olib kelishini topshirgan edi. Shuning uchun Ibn Sino bir shaharda uzoq vaqt qola olmasdi.

Ba'zi tarixchilar Sulton Mahmud o'z saroyida xizmat qiladigan kimyogar olim va rassom Abu Nasr Iroqqa Ibn Sinoning rasmini (yoddan) chizdirib, uni ko'paytirib ko'p shaharlarga yubortirgan va shu rasmga qarab Ibn Sinoni topishni buyurgan edi deb yozadilar. Bu haqiqatga to'g'ri kelmaydi, chunki, birinchidan, odamning suratini yoddan chizish mumkin emas, ikkinchidan, musulmon dinida odamning suratini chizish man etilgan.

Ibn Sino o'z tarjimai holida yozishicha, u Abiverddan Tusga, so'ng Shiqqanga, undan Samnikonga, keyin esa Jojurumga o'tib, nihoyat Jurjonga etib kelgan, ammo qo'lidagi xatni qobusga topshira olmagan. U qobusning oldiga kirmoqchi bo'lib turganida uni taxtdan tushirib, qal'aga qamab qo'yadilar. Shoh qobus qal'ada vafot etadi. Shuning uchun Ibn Sino bu shahardan ham ketishga majbur bo'ladi. U Jurjondan uncha uzoq bo'Imagan Dehstonga boradi. Bu erda qattiq istima kasalligiga (bezgak bo'lsa kerak) uchrab qolib, Jurjonga qaytib keladi.

Jurjonda Ibn Sino Abu Ubayd Juzjoni yozishicha, u faylasuf bilan uchrashib, ular do'stlashib qoladilar. Shu erga kelganda Ibn Sinoning o'zi aytib bergen tarjimai xoli tugaydi. Bundan buyog'ini Abu Ubayd Juzjoni davom ettiradi.

Abu Ubayd Juzjoni (Abu Ubayd Abdul Vohid ibn Muhammad al-Juzjoni) asli Xurosonlik bo'lib, Xirotg'a yaqin joydagi Juzjon (ba'zi tarixchilar Juzajon deb ataydilar) shahrida tug'ilgan. Abu Ali ibn Sino bilan Abu Ubayd Juzjoni Jurjonda uchrashib qolib, do'stlashib olgan kunlaridan boshlab, ular umr bo'yi birga bo'ladilar. Juzjoni Ibn Sinoning to vafotiga qadar uning sodiq shogirdi bo'lib qoladi.

Abu Ubayd Juzjoni yozishicha, Jurjonda ilm-fanni qarlaydigan Abu Muhammed ash-Sheroziy ismli badavlat odam bo'lgan. U Ibn Sinoning muxlislaridan biri ekan. Shu kishi Ibn Sinoga bo'lgan zo'r hurmatini ifodalab, o'z hovlisiga yaqin joydan uy sotib olib, unga Ibn Sinoni ko'chirib olib keladi. Ibn Sino bu orttirgan do'stlarining yordami bilan Jurjonda ancha durust va xatarsiz yashaydi. Abu Muhammad ash-Sheroziy Ibn Sinoga moddiy jihatdan ham yordam berib turgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Ibn Sino Jurjonga kelganda bu shaharda aholi o'rtaida qandaydir kasallik tarqalgan ekan. Ibn Sino tezlik bilan bemorlarni davolashga kirishadi. Ko'p bemorlar undan najot topib sog'ayib ketadilar. Buning natijasida Ibn Sinoning obro'-e'tibori oshib ketadi. Bu erda Ibn Sino kasallar ustida kuzatish ishlari ham olib boradi. har xil dorilarni sinab ko'radi, bulg'usi kitoblariga ma'lumot to'playdi. Buni Abu Ubayd Juzjoniy ham ko'rsatib o'tgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra o'sha vaqtida Jurjonda shunday voqeal bo'lib o'tgan: Ibn Sinoning Jurjonga kelgani haqidagi xabar podshoh saroyiga ham borib etgan. Jurjon xukmdori Manuchehrning jiyani qandaydir noma'lum kasalga mubtalo ekan. Saroydagagi tabiblar uning kasalini aniqlay olmabdilar. Manuchehr Ibn Sinoning daragini eshitib, kasal jiyanini ko'rsatish uchun uni saroya chaqirtiradi. Ibn Sino bemorni ko'rib, uning a'zolarida biror kasallik alomatini topmaydi. Shunda Ibn Sinoda bu yosh yigit sevgi dardiga mubtalo emasmikin, degan fikr paydo bo'ladi va olim o'zining bu fikrini ustalik bilan (bemorning ruhiy-emotsional holatiga ta'sir etib) isbotlaydi va bu «kasallik» ni davolash yo'llini ko'rsatib beradi. Ibn Sinoning maslahati bilan bu yigitni o'zi yaxshi ko'rgan qizga uylantiradilar va u tez kunda sog'ayib ketadi. Bundan ko'p mamnun bo'lgan Manuchehr Ibn Sinoga shaharda bemalol ochiq yashab, o'z tabiblik ishi bilan shug'ullanishi uchun ruxsat beradi. Ibn Sinoning tabiblik faoliyatida bunday voqealar ko'p bo'lgan.

Abu Ubayd Juzjoniying yozishicha. Ibn Sino Jurjonda to'rt yilcha (1012-1015 yillar) yashagan. Bu davr Ibn Sino uchun Xorazmdan keyin ikkinchi osoyishta va tinch hayot yillari bo'lgan. Ibn Sino Jurjonda shu to'rt yil ichida yigirmadan ortiq katta-kichik asarlar yozgan va ko'p shogirdlar tayyorlagan. Juzjoniying guvohlik berishicha, Ibn Sino o'zining mashhur asari «Tib qonunlari kitobi» ni ham Jurjonga yoza boshlagan. Juzjoni ustozining Jurjonda yozgan muhim asarlaridan quyidagilarni ko'rsatib o'tgan: «Kitob al-muhtasar al-ovsat fi-l-mantiq» («o'rtacha qisqa mantiq kitobi»). «Kitob al-muhtasar al-majistiyy» («Al-majistiying qisqartmasi kitobi»), «Al -muxtasar al-asg'ar fi-l-mantiq» («Mantiqning kichkina qisqarmasi»), «Kitob al-qonun fi-t-tib» («Tib qonunlari kitobi») ning boshlang'ich qismi, «Kitob al-mabda va al- maod» («Narsalarning dastlabki va oxirgi xolatlari haqida kitob»), «Kitob al-arsod al-qullia» («Umumiyl kuzatish kitobi»). Keyingi ikkita kitobni Ibn Sino o'zining xomiysi Abu Muhammad ash-Sheroziyning iltimosiga binoan yozgan va unga taqdim etgan.

Sulton Mahmud Ibn Sinoni ta'qib qilishni to'xtamaydi. U olimning Jurjonda ekanligini eshitib bu shaharga ham taxdid soladi. Bir vaqt shaharda Sultan Mahmud Jurjonga qarshi yurish qilarmish, degan xabar tarqaladi. Bundan xavf olgan Ibn Sino 1015 yilning oxirlarida Jurjondan chiqib ketadi va Abu Rayxon Beruniyning masalahatini eslab, Rayga tomon jo'naydi. Rayda Ibn Sinoni yaxshi kutib oladilar. Malika Sayida Abu Rayxon Beruniyning xatini o'qib, Ibn Sinoga unda iltimos qilganidek yaxshi sharoit yaratib beradi.

Ray malikasi Sayidaning Majd ud Davla ismli o'g'li bo'lib, u qandaydir ruhiy kasallikka uchragan ekan. Ibn Sino uni davolab tuzatadi. Bundan mamnun bo'lган malika Ibn Sinoga nisbatan yana ham do'stona munosabatda bo'lган. Ibn Sinoning yashashi va ijodiyoti uchun hamma zarur sharoitni yaratib beradi. Ammo Ibn Sino Rayda juda oz (bir yilcha) yashaydi. U shu oz vaqtdan bo'lsa ham unumli foydalanib, «Kitob al-ma'od» («qaytib borish kitobi») nomli asar yozadi.

Sulton Mahmud Ibn Sinoning Rayda ekanligini eshitib, Sayidadan uni g'aznaga jo'natishni talab qiladi, aks holda Rayga harbiy yurish qilishni bildiradi. Ammo aqlii va tadbirdor ayol urushning oldini olishga muyassar bo'ladi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Sayida Sulton Mahmudga quyidagi mazmunda xat yuborgan: «Agar urush natijasida siz meni engsangiz odamlar Sulton Mahmud bir ojiza ayolni engdi, deydilar xolos. Agar men sizdan g'olib chiqsam, sizdek buyuk shohga katta nomus bo'ladi». Sulton Mahmud bu xatni olganidan so'ng Ray ustiga qo'shin tortishni to'xtatadi. Tarixchilar bu xatning matnini Ibn Sino yozib bergen, deydilar. To'g'ri bo'lsa kerak. Ammo Ibn Sino Rayda qololmaydi.

o'sha davrda Eron erlari bir necha kichik-kichik davlatlarga bo'lingan edi. Shimolda ziyoriylardan bo'lган qobusning o'g'li Manuchehr, janubda buvayxiylardan Majd ud Davla (Sayidaning o'g'li). hamadonda Shams ud-Davla, Xuzistonda Badr ibn hasanvayx. Isfaxonda Alo ud-Davla hukmronlik qilardilar. Ibn Sino shulardan Sulton Mahmudning qo'li etmaydigan birortasiga borib, o'sha erda istiqomat qilish niyatida edi. Bu masalada uning uchun eng qulay joy hamadon podshohligi edi. Bu mamlakat Sulton Mahmudga tobe bo'lmay, o'zi mustaqil siyosat olib borardi. Ibn Sino bir oz vaqt qazvinda yashab, so'ng 1016 yilda hamadonga keladi. Bu erda olim o'zi uchun bir qadar tinchroq yashash sharoitini topgan edi.

hamadon hukmdori Shams ud-Davla tez-tez xuruj qilib turadigan ichak kasalligiga mutbalo edi (unda surunkali kolit bo'lган bo'lsa kerak). Shuning uchun u doimo tajribali tabib yordamiga muhtoj bo'lган. Shu sababdan u Ibn Sinodek

buyuk tabibning o'z shahriga kelganligidan xursand bo'lib, uni juda yaxshi qabul qiladi. Ibn Sino shohni davolay boshlaydi. Shams ud-Davlarning kasali juda chuqurlashib ketgan bo'lsa kerakki, Abu Ubayd Juzjoniyning yozishicha, uni davolash uchun Ibn Sino shoh oldida «qirq kecha-yu qirq kunduz» qolib ketgan. Shams ud-Davla Ibn Sinoni o'zidan uzoqlashtirmsdi. Olim uning eng yaqin kishilaridan biri bo'lib qolgan edi. Ibn Sinoning huquqshunoslik ilmi va davlat tuzilishi masalalarini yaxshi bilishidan xabardor bo'lib, uni o'ziga vazir qilib ham tayinlaydi. Vazir sifatida davlat vazifasini bajarish Ibn Sinoning ko'p vaqtini olardi. Buning ustiga Shams ud-Davla urushqoq shoh edi. U qo'shni o'lkalar shohlari bo'lan tez-tez urushib, ko'pincha harbiy safarlarda bo'lgan. Ibn Sino ham bu safarlarda shohning yonida bo'lishga majbur edi. Shu sababli uning o'z shaxsiy ishlari, xususan, ilmiy-ijodiy faoliyati uchun juda oz vaqt qolardi. Ibn Sino shu oz vaqtdan bo'lsa ham unumli foydalanishga harakat qilardi. har bir bo'sh fursatni bekor o'tkazmay, boshlab qo'ygan kitoblarini tugatish va yangilarini yozish bilan shug'ullanardi.

Ibn Sino hamadonda 8 yilcha (1016-1024) yashadi. Abu Ubayd Juzjoniyning yozishicha, olim shu davr ichida bu shaharda bir necha yirik asar tasnif etgan. Xususan, u hamadonda o'zining mashhur tibbiy asari «Tib qonunlari»ning birinchi kitobini yozib tugatgan. Bundan tashqari tibga oid «Al-adviyat al-qalbiya» («Yurak dorilari») nomli kitob ham yaratgan. 18 jildlik falsafiy asari «Kitob ash-shifo» («Shifo kitobi»)ning tabiat fanlari haqidagi qismini yozgan. Aristotelning falsafiy asarlariga sharhlar tuzgan. Boshqa tabiiy fanlarga oid asarlar ham yozishga kirishgan.

Ibn Sino vazirlik vazifasini egallab, uni yaxshi bajarayotgan bo'lsa ham o'zini siyosatchi arbob emas, birinchi galda olim deb hisoblaydi. Shuning uchun o'z faoliyatida ilmiy-ijodiy ishlarni birinchi o'ringa qo'yadi. U davlat ishlari orasida, xatto harbiy yurishlar vaqtida ham qulay fursat bo'lib qolsa, kitob o'qish va asar yozish bilan shug'ullanadi.

Abu Ubayd Juzjoniyni yozishicha, Shams ud-Davlarning odatdagidek harbiy yurishlaridan birida kasali avj olib ketib, ahvoli juda og'irlashib qoladi. Uni tuzatish uchun Ibn Sinoning har qancha urinishiga qaramay, u hamadonga qaytish yo'lida vafot etadi. Shams ud-Davlarning o'rniiga taxtga o'ltirgan o'g'li Samo ud-Davla Ibn Sinoga nisbatan unchalik iltifot qilmaydi. Shuning uchun vazirlik vazifasini topshirib, saroydan ketadi. Olimning maqsadi o'z ilmiy-ijodiy ishlarini davom ettirish edi. Ammo Ibn Sinoning oldida yangi qiyinchiliklar va xavf-xatarlar paydo

bo'ladi. Saroydagi Ibn Sinodan norozi kishilar va harbiylar yangi shohning olimga nisbatan iltifotsizligidan foydalanib, unga g'arazli ishlar kila boshlaydilar. Ibn Sino bu hujumlardan qutulush va o'zining hayoti va ijodiy ishlari uchun qulay sharoit topish maqsadida bo'lsa kerak. Isfaxon xukumdori Alo ud-Davlaga xat yozib, unga xizmat qilishga tayyor ekanligini bildiradi. Bu xatdan Samo ud-Davlaning vaziri Toj ul Mulk xabardor bo'lib kolib, uni shohga ma'lum qiladi. Samo ud-Davla Ibn Sinoni hibsga olish haqida farmon beradi. Ammo olimning do'stlari uni Shayx Abu g'olib al-Attor ismli bir ishonchli kishining uyiga joylashtirib, yashirib qo'yadilar. Ibn Sino bu erda ham vaqtini bekor o'tkazmay, o'z asarlari ustida ishlashni davom ettiradi.

Chunonchi Ibn Sino o'shanda, yashirinib yotgan joyida o'zining «Kitob ash-shifo» («Shifo kitobi») nomli asarini tugatish arafasida edi. Ammo uni bu erdan topib olib, shahar chekkasidagi qal'aga qamab qo'yadilar. Olim bu qal'ada to'rt oycha qamalib yotadi. Bu erda u kitob yozishni davom ettiradi. Abu Ubayd Juzjoniying yozishicha, Ibn Sino qal'ada «Kitob al-Qidoya» («To'g'ri yo'l yo'riq kitobi»). «hayyi ibn yakzon» («Uyg'oq, o'g'li tirik») va «Kitob al-qulanj» «Yo'g'on ichak yallag'lanishi»-kolit) nomli uchta asar yaratdi. Bularning oldingi ikkitasi falsafaga, keyingisi esa tibga oiddir. Bu voqeа 1023 yilda bo'lib o'tgan ekan. Demak «Kitob al-qulanj» 1023 yilda yozilgan.

Bu vaqtida Isfaxon hukmdori Alo ud-Davla hamadonga yurish qilib, u erga bostirib keladi. Samo ud-Davla bilan Toj ul-Mulk qochib ketadilar. Buning natijasida Ibn Sino hibsdan qutuladi. Uni Abu Ubayd Juzjoni kutib olib, bir tanish kishining uyiga joylashtirb qo'yadi. Ammo Ibn Sinoning hamadonda uzoq vaqt qolishi xavfli edi. Samo ud-Davla bilan Toj ul-Mulk qaytib kelganlaridan so'ng uni yana xibsga olishlari yoki boshqa yo'l bilan undan o'ch olishlari mumkin edi. Shuning uchun u shu erga kelgan ukasi Mahmud va shogirdi Abu Ubayd Juzjoni bilan hamadondan yashirinchha chiqib ketib, Isfaxonga jo'naydilar. Ularni Isfaxon darvozasi yaqinida Alo ud-Davla yuborgan maxsus kishilar kutib olishadi va Kunigumbaz mahalasidagi Abdulloh ibn Bobiy ismli kishining uyiga joylashtiradilar. Juzjoniying yozishicha, bu hozirlangan joyda tiriklikka zarur hamma ashyo -anjom mavjud bo'lib, xonalarga gilam va paloslar to'shalgan ekan. Bundan ko'rindaniki, Alo ud-Davla Ibn Sinoga nisbatan hurmatni bajo keltirgan.

Bir oz vaqtadan so'ng Ibn Sinoni saroya chorlaydilar. Bu erda uni Alo ud-Davla qabul qilib, saroy ahllariga tanishtiradi. Alo ud-Davla saroyida «Majlisi ulamo» («Olimlar majlisi») tashkil etilgan bo'lib, unda saroydagi barcha olimlar birlashgan ekan. Ibn Sinoni ham bu anjumanga kiritadilar. Bu «Majlis» a'zolari har

juma kuni kechqurun yig'ilishib, fanning turli sohalarida suhbatlar, munozaralar va bahslar o'tkazishib turar ekanlar.

Alo ad-Davlarning o'zi ham o'qimishli, bilimdon kishi bo'lgan. U ko'p bilimlar sohasida chuqur ma'lumotga ega edi. Shuning uchun anjumanni ko'pincha uning o'zi olib borarkan. Abu Ubayd Juzjoniyning yozishicha, «Majlisi ulamo» a'zolari ichida o'z bilimining kengligi va chuqurligi jihatidan Ibn Sino alohida ajralib turgan. Bu erdag'i olimlar ichida Ibn Sinodan o'tadigan kishi yo'q ekan. Shuning uchun Alo ud-Davla Ibn Sinoga alohida hurmat bilan qararkan.

Isfaxonda Ibn Sino 14 yilcha (1024-1037 yillar) yashagan. Bu erda ham u o'z ijodiy faoliyatini davom ettirib, turli sohalarga oid ko'pgina asarlar, sharhlar va kitoblarga qo'shimchalar yozgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Isfaxonda Ibn Sino rahbarligida bir kasalxona barpo etilgan. Uni «Davolash uyi» deb atagan ekanlar. Kasalxonaga bunday nom berilishing tarixi qiziq bo'lgan. Ibn Sino tomonidan tuzilgan loyihada bu kasalxona «Davolash uyi» deb atalgan edi. Loyihani tasdiqlashda Alo ud Davla bu so'zni «bemorlar uyi» deb o'zgartirib qo'yibdi. Shunda Ibn Sino odob va muloyimlik bilan Alo ud-Davlaga kasalxonani «Davolash uyi» deb atash maqsadga muvofiq, chunki bunda bemorlarda tuzalishga umid paydo bo'ladi. «Bemorlar uyi» deganda esa umidsizlik hissi kelib chiqadi, deb tushuntiribdi va qo'shib qo'yibdi: «Mening ko'p yillik kuzatishlarim shuni ko'rsatadiki, xastalikdan qutulish mumkinligi haqida ishonch borligi bemor uchun eng yaxshi dorilardan biridir». Shunda Alo ud-Davla Ibn Sinoga qarab bir oz o'ylab turib qoladi, so'ng «Bemorlar uyi» degan so'zni o'chirib, «Davolash uyi» deb yozib qo'yadi.

Abu Ubayd Juzjoniy Ibn Sinoning tibbiy asarlari va amaliy tabiblik faoliyati haqida unchalik ko'p ma'lumot bermagan. Faqat olimning tibga oid ba'zi asarlari qachon va qaerda yozilganligi haqida qisqa-qisqa ma'lumot berib o'tgan. Bir joyda Shayx bemorlarni davolash jarayonida ko'p tajriba hosil qildi. Bularni u «Al-qonun» kitobiga kiritmoqchi bo'ldi, ularni bo'limlarga ham ajratib chiqdi. Lekin ular «qonun» kitobi yozib bo'linishidan oldin turli sabablar bilan yo'qolib ketdi, deb xabar qilgan, xolos. Ibn Sinoning amaliy tabiblik faoliyati xaqida esa olim bir marta o'zini bosh og'rig'i kasalligidan tuzatgan edi va xorazmlik bir ayolni ham sil kasalligidan davoladi, deb yozish bilan cheklangan.

Juzjoniyning yozishicha, «Tib qonunlari» dastlab 14 jilddan iborat bo'lgan. hozir u o'zbek va rus tillarida 6 jild (5 kitob) qilib chiqarilgan. Rasmiy

ma'lumotlarga ko'ra, Ibn Sinoning tibga oid 31 asari mavjud. Shularning har biri tib ilmining alohida mavzulariga bag'ishlangan. Bu kitoblar orasida eng muhimi va eng kattasi «Kitob al-qonun fi-t-tib» dir.

Ibn Sino asosan shu kitobi tufayli jahonga mashhur bo'lib ketgan.

Ibn Sino hayotining so'ngi oylari haqida Juzjoni quyidagi ma'lumotni bergen: «Ustoz jismoniy jihatdan juda baquvvat odam bo'lgan. Uning gavdasi kasalliklarga nisbatan chidamli edi. Ammo Ibn Sinoda 425 xijriy (1035 milodiy) yilining yozida qandaydir ichak kasalligi paydo bo'lib, unga olim har qancha muolaja qilsa ham tuzalmadi. Aksincha kasalik og'irlashaverdi. Bunday ahvol bir yildan ortiq davom etadi. Nihoyat Ibn Sinoning darmoni butunlay qurib, ahvoli haddan tashqari og'irlashib koldi va uni davolayotgan tabiblarning har qancha urinishlariga qaramay olim 428 xijriy (1037 milodiy) yilning 24 iyunida olamdan o'tadi».

Tarixchilar Ibn Sino qulanj (yo'g'on ichak yallig'lanishi) kasalligidan vafot etgan, deb yozadilar. Bizning fikrimizcha, Ibn Sino ichakda paydo bo'lgan saraton (rak) kasalligidan vafot etgan. Fikrimizni shu narsa tasdiqlaydiki, birinchidan, Ibn Sinodek buyuk hakim saratondan boshqa har qanday kasalikni muolaja usuli bilan davolay olardi. Ayniqsa, o'zini. Ikkinchidan, kasallikka hech qanday dori-darmon kor qilmagan, chunki sarattonni dori bilan davolab bo'lmaydi, uni operatsiya qilish kerak. Tabiiyki, Ibn Sino o'zini –o'zi operatsiya qila olmasdi. Ehtimol, Isfaxonda o'sha vaqtda bunday operatsiyani qila olish qo'lidan keladigan tabib topilmagandur. Uchinchidan, saraton kasalligi bilan og'rigan bemorning umri aksari holda bir-yarim yildan oshmaydi. Ibn Sino ham o'zida kasallik alomatlari paydo bo'lganidan so'ng bir yarim yilcha yashagan, xolos. Kasallikning bunday kechishi aynan saratonga xosdir. Shu dalillarga asosan biz Ibn Sino saraton kasalligi bilan og'rigan va u kasallikdan vafot etgan, degan qat'iy fikrdamiz.

Vazifa №1

Abu Ali ibn Sinoni amaliy tibbiyotga kiritgan yangiliklari

Vazifa №2

Abu Ali ibn Sinoni Pediatriya sohasiga qo'shgan hissalari

Vazifa №3

Abu Ali ibn Sino bilan Ma'mun akademiyasida birga ishlagan allomalar va bunda allomaning ta'siri

Vazifa № 4

Tibbiyot tarixini « Bg`Bg`BO» grafik organayzer yordamida uranishni Abu Ali ibn Sinoni tabiblik faoliyati va tibbiy fikrlari mavzusida ishlab chikish

Bilaman

Bilmokchiman

Bilib oldim

BG`BXG`B JADVALI

Bilaman

Bilmokchiman

Bilib oldim

Ibn Sino kashfiyotlari

Elka bugimini joyiga tushirish

Elka bugimi chikkanda kultik ostiga musht bilan bosim orkali urniga tushirish

Kandli diabetga tashxis kuyish

Kasalning siydig'i chukmaga tushgach idish tagida ok chukma xosil kilinishini
isbotlab bergen

Buyrakdan toshni olib tashlash

Buyrakdan toshni kesib olib tashlashni original usulini amalga oshirgan

Ibn Sinoning ustozlari

An-Notiliy

Filosofiya va mantik buyicha

Abu Saxl Masixiy

Tibbiy nazariya va amaliyot buyicha

Interaktiv usullar

«Ruchka stol o’rtasida» usuli

Barcha guruh talabalariga topshiriq beriladi. har bir talaba varaqga javoblarni yozib uni guruhdoshiga uzatadi va o’zining ruchkasini stol o’rtasiga surib qo’yadi.

1. Ibn Sino tashhis qo'yishda qaysi usullardan foydalangan?
2. Ibn Sino dunyoda birinchi bo'lib qaysi davolash usullarini amaliy tibbiyotga kiritgan?
3. Ibn Sino «Tib qonunlari asarini yozishni qaerda boshlab va qaerda nihoyasiga etkazgan.
4. Ushbu asarning I, II, III, IV, V tomlari qanday kasalliklarga bag'ishlangan va ularni mazmuni nimalardan iborat?
5. Ibn Sinoni hayotini oxirgi yillari haqida nimalarni bilasiz?

Test savollari

1.Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» asari necha kitobdan iborat?

A) 5

B) 7

V) 10

G) 22

D) 16

2.Ibn Sinoni «Tib qonunlari» asarini qaerda yozib boshlagan?

A) Xorazmda

B) Bog'dodda

V) hamadonda

G) Buxoroda

D) qobulda

3.Ibn Sinoni «Tib qonunlari» asari qaysi asarlarda Evropa va Sharq mamlakatlarida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan?

A) XII – XVIII asrlarda

B) XI – XV asrlarda

V) XIII – XVII asrlarda

G) X – XII asrlarda

D) XII – XVI asrlarda

4.Ibn Sinoni tibbiyotdagi ustozlari kimlar bo'lgan?

A) Abu Mansur qamariy, Abu Saxl Masixiy

B) Abul hayr hammor, Abu Abdulloh Iloqiy

- V) Umar Chag'miniy Ismoil Jurjoniy
- G) Abu Mansur qamariy, Al-Kahhol
- D) Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Saxl Masixiy.

5.Ibn Sino necha yoshida tabobat ilmini mukammal egallagan?

- a) 16
- b) 18
- v) 19
- g) 20
- d) 35

Kontrol savollar.

1. Ibn Sino tashhis qo'yishda qaysi usullardan foydalangan?
2. Ibn Sino dunyoda birinchi bo'lib qaysi davolash usullarini amaliy tibbiyotga kiritgan?
3. Ibn Sino «Tib qonunlari asarini yozishni qaerda boshlab va qaerda nihoyasiga etkazgan.
4. Ushbu asarning I, II, III, IV, V tomlari qanday kasalliklarga bag'ishlangan va ularni mazmuni nimalardan iborat?
5. Ibn Sinoni hayotini oxirgi yillari haqida nimalarni bilasiz?

Mavzu: Temur va Temuriylar davridagi tibbiyot (XIV – XV asrlar) «Temur tuzuklari» asarida tibbiyot masalalari. Mazkur davrda faoliyat ko'rsatgan tibbiyot allomalari va tabiblar faoliyati

Maqsad: Talabalrni buyuk sarkarda bobokalonimiz Amir Temur va Temuriylar sulolasi davridagi tibbiyotni rivojlanishi, tibbiyot allomalari va tabiblar faoliyati bilan tanishtirish.

Vazifalari (kutilgan natijalar)

- Amir Temur davrida tibbiyotni rivojlanish, yangi kasalxonalar, hammomlar va sihatgohlar barpo etilishini;
- Amir Temurni davolagan tabib va uni faoliyatini;
- Amir Temur ni «Temur tuzuklari» asari va uni o'sha davr aholisi uchun ahamiyati
- Mirzo Ulug'bek davrida tibbiyotni ravnaq topishini;
- husayn Boyqaro hukmronligi davrida kasalxona, hammom va boshqa davolash muassasalarini barpo etish tarixini.

Nazariy ism

Temuriylar davridagi tibbiyot undan oldin o'tgan somoniylar va qoraxoniylar davridagi tibbiyotning to'g'ridan-to'g'ri davomi emas. Somoniylar va qoraxoniylar bilan temuriylar o'rtasida butun bir asr vayronalik va turg'unlik davri yotadi. Ma'lumki, 13 asr boshlarida mug'ul-tatar askarlari o'rta Osiyoga bostirib kirib ko'p shahar va qishloqlarni er bilan yakson qildilar, ekin maydonlarini toptadilar va barcha madaniy boyliklarni yo'q qildilar. Kasalxonalar, dorixonalar, tabbiy maktablar vayron bo'ldi. Ko'p tabiblar qatl etildilar. Tibbiyot ham boshqa sohalar singari, ogir tushkunlikni boshidan kechira boshladи. Bunday hol bir asrdan ortiqroq vaqt davom etdi.

XIV asrning 60—70 yillariga kelib, o'rta Osiyo xududida yirik va kuchli temuriylar davlati vujudga keldi. Bu davlatning asoschisi Amir Temur Mavarounnaxr, Xuroson, Xorazm, Oltin o'rda, Eron, hindiston, Iraq, Turkiya va boshqa mamlakatlarni barpo etdi. Temur bu mamlakatlarning barcha boyliklaridan foydalaniб, o'z davlatini iqtisodiy va madaniy jihatdan juda yuksak darajaga ko'tardi. Mamlakatda katta-katta qurilishlar olib borildi. Fan, madaniyat, san'at va adabiyot yuksak darajaga ko'tarildi. Bunday umumiy yuksalish jarayonida tibbiyot ham rivojlanadi. Kasalxonalar, dorixonalar, tibbiy maktablar, kutubxonalar

barpo etildi. Madrasalarda boshqa bilimlar qatorida tibbiy bilimlar ham o'qitila boshladi.

Amir Temur o'zining davlatni idora etish va harbiy yurishlarni boshqarish qonun-qoidalarni haqidagi "Temur tuzuklari" ("Temur qonunlari") nomli xujjatida bir qancha muhim tadbirlar qatorida shaharlarda tibbiy muassasalar qudiriganligini bayon etadi. Chunonchi, tuzukning "Aholidan soliq olish, mamlakatni idora qilish, uning obodonchiligi va xavfsizligini amalga oshiruvchi mutasaddilar tuzugi" nomli bobida Temur shunday yozadi: "...Yana men amir etdimki, katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, Madrasa va xonakohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga g'arib xona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qudirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar" ("Temur tuzuklari" 1991 i., 100-6). Temurning buyruq va farmonlari vojib hisoblangan, ular so'zsiz bajarilgan. Demak, Temur zamonida har bir shaharda shifoxona bo'lган, ularda tajribali tabiblar ishlaganlar. Samarqandda esa " Dor ush-shifo" ("Shifo maskani") nomli yirik kasalxona bo'lib, unga o'z zamonasining taniqli tabiblar—Mir Sayyid Sharif Sheroyi (1330-1414) rahbarlik qilgan. Bu tabib asli Jurjonlik bo'lib, Temurning taklifi bilan Samarqandga kelib, shu kasalxonaga boshchilik qilgan. Shu davrda Samarqandda yana bir yirik tabib—Mansur ibn Muhammad yashagan. Bu olimning to'liq ismi Mansur ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf ibn Ilyosdir. Bu olimning tibga oid uchta asari ma'lum. 1. "Odam tanasining tuzilishi haqida risola" 2. "Mansurning to'liq tibbiy kitobi" Z.g'iyoziya. Birinchi kitobda muallif (u 1405 yilda yozilgan) odam suyaklari, mushaklar, qon tomirlari, asablar va boshqa a'zolarning tuzilishi bayon etilgan. Ikkinci kitobda muallif tibbiyot va salomatlikni saqlashning muxim masalalari haqida so'z yuritadi. Chunonchi, tananing sog'lom va kasallik xolati, bemorga tashxis qo'yish va uni davolash, salomatlik saqlash tadbirlari ko'rsatiladi. Kitobda yakka (oddiy) va murakkub dorilar, ularni ishlatish usullari ham bayon etilgan. Uchinchi kitob haqida etarli ma'lumot mavjud emas.

o'sha davrdagi yirik tabiblardan bizga yana Mavlono Fayzulloh Tabriziy va Xisomiddin Ibroxim Kirmonniylar ma'lum. Mavlono Fayzulloh Tabriziy Temurning shaxsiy tabibi edi. U shohning hamma safarlarida u bilan birga bo'lgan.

Temur davrida tibbiyot fani yuksak darajaga ko'tarilgan ediki, u vaqtida xatto o'lgan odamning jasadini balzamlash usulini ham bilganlar. Masalan, Temurning o'zi, Bibixonim va Temurning o'g'illari Jahongir Mirzo, Shoxruh va nabirasi Muhammad Sultonning qabrlari ochib ko'rildi, ularning jasadi

mumiyolanganligi aniqlangan. Ularning qabrlariga har xil xush boy dorivor moddalar sepilgan ekan. Muhammad Sultonning qabrdan rayxon barglarining qoldig'i topilgan.

Temur ilm ahllarini qo'llab-quvvatlangan, har turli fanlarni ayniqsa amaliy ahamiyatga ega bo'lgan fanlar rivojlanishning tarafdori bo'lgan. U o'zi zabit etgan mamlakatlardan faqat oltin, kumushlarni emas, balki nodir kitoblarni ham olib kelardi. Temur bu nodir kitoblarni saqlash uchun saroyda maxsus kutubxona ("Kitob gumbazi") qurdirgan. Unda fanning hamma sohalariga oid shu jumladan tibbiyotga oid kitoblar ham saqlanardi. Temur kitoblarning juda qadriga etardi. Temurning kitoblarni yuksak darajada qadrlashi shundan ma'lumki, u "Kitob gumbazi" dagi kitoblarni faqat shu joyning o'zida o'qish mumkinligi haqida maxsus farmon chiqargan. Biror kitobni uyga olib ketish qat'ian man etilgan.

Kutubxonada o'sha zamonning yirik olimlari u erdag'i turli tilda ezilgan kitoblari o'rganish va ularga sharx yozish bilan shug'ulanganlar.

Shifoxonalarda ishlovchi tabiblarga yaxshi maosh to'langan. Temurning maxsus farmoni bilan ularning maoshi olimlar, munajjimlar tarixnavislar va muxandislarni maoshiga tenglashtirilgan.

Temur obodonchilikka, shaharlarning ozoda saqlanishiga katta e'tibor bergen. Ayniqsa, davlat poytaxti Samarqandni obod qilishga ko'p xarakat qilgan. Shahar ichida va uning atrofida o'nlab hashamatli saroylar, bog'lar, hovuzlar, favvoralar, soya-salqin xiyobonlar qurdirgan. Aholining hayoti va uning salomatligi yashash sharoiti, bozorlar narh-navo, savdo-sotiq ishlarini tartibga solgan.

Shunday qilib, Temur davrida aholining moddiy-ma'naviy va madaniy jihatdan yashashiga katta e'tibor berilgan. Xalqining sog'lig'ini saqlash bemorlarni davolash, etim-esirlar haqida g'amxo'rlik qilish sohasida muxim ishlar amalga oshirilgan. Bunday yuksalish ayniqsa, Temurning nabirasi Ulug'bek zamonasida tez sur'atlar bilan davom etgan.

Ulug'bek (Muhammad Targ'ay Ko'ragoniy) faqat davlat arbobi bo'libgina qolmay, shu bilan birga buyuk olim sifatida ham mashhur. Tarixchilarining yozishicha, u bilimlarning deyarli hammasi bilan shug'ullangan. Ulug'bek ko'p vaqtini bobosi Amir Temur tashkil etgan buyuk kutubxona "Kitob gumbazi" da turli kitoblarni mutolaa qilish bilan o'tkazgan. Boshqa kitoblar qatorida tibga oid asarlarni ham ko'p o'qigan. U bu sohada kichik bir risola ham yozgani ma'lum. Ammo astronomiya sohasida Ulug'bek juda katta olim sifatida dunyoga mashhurdir.

Ulug'bek davrida Mavarounnaxrda o'z tarixida ikkinchi yuksalish davrini boshidan kechirdi. Ulug'bek Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlarda o'nlab machit, madrasalar, hammomlar, karvon saroylar, yo'llar, shifoxonalar qurdirdi. Bular ichida eng mashhuri Ulug'bek rasadxonasıdır. Bu rasadxonada o'nlab olimlar xizmat qilardilar.

Ulug'bek tibbiyot ilmiga ham katta ahamiyat bergen. Samarqandda bir kasalxona qurdirib, unda ishlash uchun Kirmon shahridan mashhur tabib Burxoniddin Nafis ibn Avazni taklif etgan. Bu tabib Ulug'bekning saroy tabibi vazifasini ham bajardgan.

Burxoniddin ibn Avaz asli o'zi Eronlik bo'lган. Kirmon shahrida tabib oilasida tug'ilgan. Yoshlikdan ser xarakat, bilimdon, hamma narsaga qiziquvchan bo'lган, ko'п o'qigan. Bir qancha fanlarni o'zlashtirgan. Ammo asosiy kasbi tabiblik bo'lган. Bu kasbini u o'z oilasida otasidan o'rgandi va zo'r idrokli bo'lгани uchun tez vaqtida chuqur bilimli va yaxshi tajribali tabib bo'lib etishdi.

Ulug'bekning o'z tabibining bilimi va tarjibasini qadrlardi. Ular o'rtasida samimiy do'stlik rishtalari bog'langan edi. Ibn Avaz tibga oid bir qancha asar yozgan. Shulardan eng mashhuri 13 asrda yashagan yirik tabib Najibuddin Samarqandiyning "Kasalliklarning sabablari va alomatlari" nomli kitobiga yozgan sharhidir. Bu kitobni muallif Ulug'bekka bag'ishlaydi va unga taqdim etadi. Nafiz ibn Avaz o'z shahrida Najibuddin Samarqandiy kitobning mazmunini bayon etadi va uning qiyin joylarini tushuntirib beradi.

Burxoniddin Nafiz ibn Avazning "Dori tayyorlash san'ati" nomli asari ham bo'lган. Bu kitobda muallif oddiy va murakkab dorilar retseptini tuzish, ularni tayyorlash va ishlatish usullarini bayon etgan.

o'sha davrda tabiblar o'rtasida mohir jarrohlar ham bo'lган. Shulardan biri Tojiddin Xakim edi. Bu jarroh ancha murakkab operatsiyalarni ham qilgan. Masalan, ko'z kataraktasini operatsiya yo'li bilani muvaffiqiyatli davolagan. Shuni alohida ko'rsatib o'tish kerakki, bu jarroh operatsiyadan oldin jarrohlik asboblarini o't (olov) ustida qizdirib olib, so'ng operatsiyada ishlatgan. Operatsiya vaqtida esa, tez-tez o'z qo'lini mayda qilib to'g'ralgan piyozga botirib olarkan. Ma'lumki, piyozda mikroblarni o'ldiruvchi fitontsidlar bo'ladi. o't ustida qizdirilgan asbob esa tamomila mikrobdan xoli bo'ladi (sterilizatsiyalanadi). Bundan ma'lum bo'ladiki, Tojiddin Xakim zararli mikroblar mavjudligini bilgan va ularning rivojlanishiga yo'l

qo'ymaslik chorasini ko'rgan. Bu jihatdan Tojiddin Xakimni antiseptika usulining asoschisi, desa bo'ladi.

Demak, Ulug'bek davrida boshqa fanlar qatori tibbiyat ham ancha yuksaldi. o'sha davrda ko'p mashhur tabiblar paydo bo'ldi.

Ulug'bek bilimning ahamiyatini juda yaxshi tushungan. Olimlarni juda qadrlagan. Bilimning kelajagi porloq ekaniga ishongan. Masalan, u o'zining mashhur asari "Ziji Ko'rgoniy"ning kirish qismida bunday yozgan edi:

"Mutaassib fikrlar ertalabki tuman kabi tarqalib ketadi, xoqonliklar yo'q buladi, fakat olimlarning asarlarigina abadiylikda qoladi". Bilim bilan shug'ullanishning naqadar zarurligini ta'kidlab, Buxoroda qurdirgan madrasasi peshtoqiga qur'onidan olingen bunday so'zlari yozdirgan ekan: "Bilim olishga intilish har bir muslim va muslimaning burchidir".

Ulug'bek Samarcanddan ikki qavatli maxsus Madrasa qurdirib, unda dorilfunun ochgan. Madrasada talabalar o'qiganlar va shu joyda istiqomat qilganlar. Dorilfununning bosh mudarrisi qilib mashhur olim qozizoda Rumiylar tiyinlangan. Dorilfununda asosiy fanlar sifatida astronomiya, matematika, falsafa, badiiy adabiyot o'qitilgan. Tibbiyotdan ham dars berilgan.

Ulug'bek qurdirgan rassadxona va Madrasa qoshida "Baytul xikma" yan'i olimlar uyi (Akademiya) bor edi. Bu Akademiya yuzga yaqin olim uyushgan. Ular orasida tabiblar ham bo'lган. Masalan, Burxoniddin Nafis ibn Avaz shu Akademiya a'zosi edi.

Temuriylar sulolasining fan, madaniyat va iqtisodiy hayot rivoj topgan oxirgi bosqichi sulton Xusayn Boyqaro hukmronlik qilgan vaqtida to'g'ri keldi. Bu davrga kelib Temuriylar va sulolasi siyosiy va iqtisodiy jihatdan sezilarli darajada susayib qolgan bo'lsa-da, lekin adabiyot va san'at sohasida ancha yuqori darajada edi.

Xusayn Boyqaroning o'zi ham yaxshigina she'r bitardi. rmoniybn o'sha davrida barpo etilgan ko'plab maishiy binolar qatorida shifoxonalar tibbiy maktablar, kutubxonalar ham bo'lган. Bu ishlarning hammasiga Boyqaro saroyida bosh vazirlik lavozimini egallagan buyuk shoir va davlat arbobi—Alisher Navoiy rahbarlik qilgan va tashabuskorlik ko'rsatan.

Movarounnaxr va Xurosanda o'sha davrda yuzlab binolar barpo etildi. Bu davrda turli fanlar, ayniqsa, aniq fanlar va tibbiyat rivoj topdi. Deyarli har bir shaharda kasalxonalar ochilgan bo'lib, ularda o'nlab tajribali tabiblar bemorlani davolash

bilan mashhur edilar. Ular orasida yirik olimlar bor edi. Shulardan biri-Ne'matulloh ibn Faxriddin Muborakshoh Xakim Kirioniy bo'lib, u Xusayn Bayqaroning shaxsiy tabibi edi. Bu tabib Xakim Kirmoniy nomi bilan mashhur bo'lgan. Xakim Kirmoniy faqat tabib emas, shu bilan birga chuqur bilimli faylasuf, olim va shoir edi. U "Xakimiy" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Xakim Kirmoniyning she'riyatdagi qobiliyati va tibbiyotdagi katta tajribasini xisobga olib, uni buyuk shoir va ikkinchi. Ibn Sino deb atardilar. Xakim Kirmoniyning bizga ma'lum bo'lgan asari 1464 yilda yozgan "Xosiyatlar dengizi" nomli kitobdir. Muallif kitobda sharqning buyuk tabiblari asarlaridan namunalar to'plab, ularni o'z tajribalari va bilimlari bilin boyitgan. U shifobaxsh o'simliklarni ayniqsa, yaxshi o'rgangan. o'simliklarning xossalari va shifobaxsh xususiyatlarini tekshirar ekan, ba'zan ularda ilgarigi mualliflar yozishgan yangi sifatlarni topib, bayon etgan.

"Xosiyatlar dengizi" bir muqaddima, uch bo'lim va bir xotimadan iborat. Asarda alfavit bo'yicha turlicha shifo xususiyatiga ega bo'lgan o'simliklar, parranda va hayvonlarning nomlari bayon etilgan. Ularning yunoncha, arabcha, forscha, hindcha va turkiy nomlari ham ko'rsatilgan. Ba'zi dorilarning o'zbekcha nomlari ham berilgan.

Kitobning birinchi bo'limi (maqolasi) yakka holda ishlatiladigan dorilar haqida. Ikkinci bo'lim—murakkab dorilarga bag'ishlangan. Bu erda bir necha xil moddalarni qo'shib tayyorlanadigan dorilar, ularni tayyorlash usuli va ishlatish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Bu qismda hayvonlardan olinadigan dorilar ham bayon etilgan. Kitobning uchinchi bo'limida muallif qaysi dorini ishlatish kerakligini ko'rsatib beradi. Bunda kasallikning xili va og'ir-engilligiga qarab, oddiy yoki murakkab dori ishlatish kerakligini uqtiradi. Shu bo'limda parhez taomlar ham ko'rsatilgan. Kitobning xotimasida muallif tibbiy atamalar masalasiga to'xtaladi.

Xusayn Boyqaro saroyida yana bir tabib—Muhammad Xusayn Nurbaxshiy Baxouddavlа ibn Mirkivomiddin ham xizmat qilgan edi. Bu olim tabiblik bilimini dastlab Rayda, so'ng Xirotda o'rgangan. Xirotda u o'zining mashhur asari "Tajribalar xulosasi"ni yozgandi. Asar darslik sifatida tuzilgan bo'lib, talabalarga mo'ljallangan.Unda kasallarga tashxis qo'yish va ularni davolash usullari ko'rsatilgan.

Kitobda muallif qadimgi zamonning mashhur tib olimlarining fikrlarini ham keltiradi. Shu bilan birga o'z shaxsiy kuzatishlari natijalarini bayon etadi. U o'z

tajribalariga asoslanib, ilgari tabiblarga ma'lum bo'Imagan kasallikkarni keltiradi. Masalan, u bahorda uchraydigan allergik isitma kasalligini birinchi bo'lib yozgan.

Nurbaxshiy Baxouddavla sharq tabiblaridan birinchi bo'lib, bolalarda uchraydigan ko'kyo'tal, otashak (zahm) kasalliklari haqida ma'lumot bergen va ularni davolagan.

Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, o'rta Osiyoda XV-XVI asrlarda tibbiyotning rivojlanishi Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq bo'lgan. Navoiy o'zi tabib bo'lmasa ham, tibbiyotning rivojlanishida juda katta rol o'ynadi hamda ulug' insonparvar olim va davlat arbobi sifatida mamlakatda sog'liqni saqlash ishlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Navoiyning tashabbusi bilan mamlakatda 300 dan ortiq turli madaniy-maishiy binolar, kasalxonalar, dorixonalar, tibbiy maktablar barpo etildi. Ayniqsa, o'sha vaqtida poytaxt rolini o'ynagan Xirotda juda ko'p qurilish ishlari amalga oshirilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Navoiy o'sha zamondagi olimlar singari tibbiyotga oid kitoblarni mutolaa qilgan.

o'sha vaqtdagi madrasalarda boshqa fanlar qatorida tibbiy bilimlardan ham dars berilar edi. Binobarin, Navoiy madrasada o'qir ekan, tibbiy bilimlarni ham o'rgangan. Bundan tashqari, Navoiy o'qigan madrasaning bosh muddarisi—Fazlulloh Abullaysiy—olim va tabib bo'lgan. Bu olim Navoiyga ustoz bo'lgan. Buni uning tibbiyot va tabiblar haqidagi fikrlari, mulohazalari va xikmatli so'zlaridan bilsa bo'ladi.

Navoiyning tibbiyot, tabiblar va salomatlikni saqlash haqidagi fikr va mulohazalari uning mashhur "Maxbub ul qulub" ("qalblar sevgilisi") nomli kitobida bayon etilgan. Kitobda bu masalaga maxsus bob (15-bob) bag'ishlangan. Bu kitob olim hayotining so'nggi yillarda, katta ilmiy va hayotiy tajribaga ega bo'lgan davrida yozilgan. Kitobda asosan Navoiyning siyosiy, ijtimoiy, ahloqiy va tarbiyaviy qarashlari bayon etilgan. Kitobning asosiy g'oyasi xalqparvarlik, haqqoniylilik, adolat va fuqaro haqida g'amxo'rlik qilishdan iborat. Navoiyning fikricha, bu g'oyalar ayniqsa, tibbiyotda o'z ifodasini topishi zarur.

Navoiy o'z asarlarida salomatlikni saqlash va bunda tabiblarning roli haqida fikr yuritar ekan, avvalo tabibning o'zi qanday odam bo'lishi kerak, degan masalaga to'xtaladi. Uning fikricha, tabib birinchi galda o'z kasbini yaxshi egallagan moxir mutaxassis bo'lishi lozim, u rahm-shavqatli, insonparvar bo'lishi kerak.

Tabib donishmandlarning maslahat va tavsiyalariga amal qilish lozim. U yoqimtoy, dilkash, xushmuomala, kamtarin bo'lishi darkor.

Tajribasiz, chalasavod, nodon tabibni Navoiy jallodga o'xshatadi.

Navoiy salomatlik va xastalik haqida so'z yuritar ekan, sharob masalasiga to'xtolib o'tadi. Sharobni u zaharga qiyos qiladi va ichkilikbozlikka berilish kishi tanasining zaiflashib, kasalga chalinishiga sabab bo'ladi deydi. Bundan tashqari, Navoiy boshqa zararli odatlardan (nashavandlik, qoradori iste'mol qilish, shahvoniy ishga berilish va h.k.) ham saqlanishni tavsiya etadi. Salomatlikni saqlash borasida Navoiy birinchi o'ringa to'g'ri va sifatli ovqatlanishni qo'yadi. Badxo'rlik qilmaslikni tavsiya etadi.

Navoiy o'tmishning buyuk tabiblari haqida o'z fikr va mulohazalarni bildirgan. U Ibn Sinoga juda yuksak baho bergan. Uni aql-idrok va tafakkur ramzi, deb atagan.

Navoiy ilm ahllarni juda qadrlab, yuksaklarga ko'targan ularga Nuh payg'ambarning umrini tilagan.

Navoiyning o'zi tabiblarga xos xususiyatlarga ega bo'lgan, o'zi kelishgan, sarviqomat, zukko va nozik tabiatli odam bo'lgan. Bobur bunday deb yozadi: "Alisherbek o'zining nozik tabiatini bilan ajralib turardi, bu xususiyat unga naslidan o'tgandir".

Shunday qilib, ulug' shoir tibbiyat masalalarida ham durustgina bilimdon kishi bo'lgan. Ammo Navoiyning amaliy tibbiyat bilan shug'ullangani ma'lum emas.

Movarounnaxning barcha shaharlidan eng tajribali tabiblarni taklif etgan. Kasalxonaning bosh tabibi vazifasiga o'sha vaqttagi yirik tabib va olimlarlan biri— Mavlono g'iyosiddin Muhammad ibn Jaloliddin tayinlangan. Navoiyning ko'rsatmasi bilan kasalxonaga asosan qambag'al-nochor bemorlar qabul qilingan. Davolash bepul bo'lgan. Bundan tashqari, kambag'al, beva-bechoralarga har kuni issiq ovqat tarqatilgan.

"Ixlosiya" madrasasida o'sha vaqtida eng ko'zga ko'ringan olimlar mudarrislik qilganlar. Ulardan Amir Burxoniddin Atoullox Nayshapuriy, qozi Ixtiyoriddin Xasan Turbatiy, Amir Murtazo, Mavlono Fasixiddin Nizomiy kabi olimlar ayniqsa, katta shuhrat qozondilar.

Xirotda Shahriston ichida yana bir kasalxona bo'lgan. Unga "Dor ush-shifo" (Davolash maskani) deb nom berganlar. Bu shifoxona ham Navoiy qo'l

ostida bo'lgan. Tarixchilarning yozishicha, bu shifoxonani Abu Sayd Mirzoning katta xotini Maxdi ular qurdirgan. Bu kasalxonaga boshliq qilib, juda tajribali tabib va olim Mavlono Darvish Ali tayinlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, bu shifoxonada asosan saroy amaldorlari davolanganlar.

har ikkala shifoxona sharq arxitekturasi qoidalariga binoan juda ko'r kam qilib, Madrasa ko'rinishida qurilgan. Shifoxona hovlisi va uni atrofida soya-salqin daraxtlar, gullar ekilgan. hovuzlar, favorralar ishlab turgan. Shifoxiya ayrim hujralar (palatalar), tabiblar xonasi, oshxona va boshqa yordamchi xonalardan iborat bo'lgan. Xujralarga bemorlar kasallik xiliga qarab, joylashtirilgan. Masalan, ko'z kasalligi bilan og'irgan bemorlar hujrasi, jarrohlik kasallikkleri uchun hujra va umumiyligi hujralar bo'lgan.

Mashhur tarixchi Xondamir (g'iyosiddin ibn Xumomiddin)ning yozishicha, kasalxonalarda davolash ishlari va talabalarni o'qitish sifati yuksak darajada bo'lgan. Mudarrislar qatorida mohir jarrohlar ham bo'lgan. Shulardan biri—Shayx Xusayn edi. Ma'lumotlarga ko'ra, u shu qadar mohir bo'lganki, bir vaqt 18 joydan pichoq egan nafkarning jarrohatlarni muvaffaqiyatli tikib, uni sog'aytirib yuborgan.

Navoiy barpo etgan "Shifoxiya" kasalxonasi va "Ixlosiya" madrasasining shuhrati o'sha vaqtdayok butun Sharqqa yoyilgan edi. Bu erga boshqa mamlakatlardan ko'plab talabalar kelib, bilim olishgan va mutaxassis bo'lib, o'z yurtlariga qaytishgan. Demak, Navoiy zamonasida tibbiy bilimlar va amaliy tibbiyat yuksak darajada rivoj topgan.

Navoiy yomon urf-odatlarini, bit'at va xurofotga butunlay qarshi edi. U Astroboddan yozgan bir xatida Xusayn Boyqarodan Xirotda ko'payib ketgan. Ishratxonalarni, qimorxonalarni, ichkilikxonalarni yopishni, bozorlarni taftish ostiga olishni, narh-navo tartibga solishni, bozorda sotiladigan oziq-ovqatlar va mevalarning sifatini tekshirib turishni talab etadi. Bunday Navoiy keraksiz muassalarni yopish hisobiga maktab, Madrasa, kasalxonalar va kutubxonalani ko'paytirishni tavsiya qiladi.

Navoiy olimlar, shoirlar, san'atkorlar va barcha madaniyat ahlini juda qo'llab-quvvatlab edi, doimo ular haqida g'amho'rlik qilardi.

Navoiyning xomiyligi ostida o'sha zamonda Xirot, Samarqand, Buxoro, Marv, Toshkent va boshqa shaharlarda o'nlab olimlar, san'atkorlar, shoirlar va tabiblar ijod qildilar. o'sha davrida (15 asr) yashagan tabiblardan Muhammad Moyin,

qutbiddin Odam, g'iyosiddin Muhammad Darvish Ali, Muhammad tabib, Abdalxay Tuniy, Nizomiddin Abdulxay, Sulton Murod, Shox Xusayn, Shomiy tabib kabilarni ko'rsatish mumkin.

Muhammad Moyin yirik tabiblardan bo'lgan. U "Shifoxiya" kasalxonasida xizmat qilgan va shu erdag'i tibbiy mакtabda dars bergan. Podshox haramidagilar ham shu tabibda davolanishgan.

qutbiddin Odam Xurosonning eng mashhur tabiblaridan bo'lgan. Uni xatto Sharqning Jolinusi deb ataganlar. U ham "Shifoxiya" kasalxonasida xizmat qilgan.

g'iyosiddin Muhammad ibn Jaloliddinga Navoiy juda yuksak baho bergan. U "Shifoxiya" kasalxonasida bosh tabib vazifasini bajargan. ham tibbiy mакtabda tib ilmidan dars bergan. Olim tibbiyotdan boshqa fanlarni ham yaxshi bilgan.

g'iyosiddin Muhammad Iloqiyning "Iloqiy davosi" va Nafis ibn Avazning "qisqa sharh" asarlariga xoshiya yozgan.

Darvish Ali tabib o'zining o'tkir zehni, yuksak darajada madaniyatatligi, nozik tabiyati va xushmuomaligi bilan boshqalardan ajralib turgan. U juda mushoxadali bo'lgan. Shu sababli kasallikkarni aniqlash va davolash usullariga bir qancha yangilik kiritgan. Navoiyning ta'biricha Darvish Ali o'sha zamonning ilg'or va bilimdon tabiblaridan bo'lgan. Bu olim Xirot ichkarisidagi "Dor ush-shifo"da xizmat qilgan va saroy amaldorlarini davolagan. Darvish Alining "Kishilarga eslatma" nomli tibbiy asari mavjud. Bu asarda muallif salomatlikni saqlash va kasallikkarni davolash haqida so'z yuritadi.

Abdulxay tabib Tuniy tajribali tabib bo'lgan, o'tkir zehni va qobiliyati bilan ajralib turgan, kamtarin odam bo'lgan. Ammo, bu tabib sharob ichishga berilib ketib olimlar olamidan uzoqlashib qolgan.

Nizomiddin Yaxyo Abdulxay tabib o'z zamonasining mashhur kishilaridan bo'lgan, o'zining chuqr bilimi va tajribalari bilan boshqalardan ajralib turgan. U saroy xizmatidagi tabiblardan biri bo'lgan.

Xozik Sulton Murod tabib ham juda shuhrat qozongan. U chuqr bilim va katta tajribaga ega bo'lgan.

Shoh Xusayn biz aytib o'tkanimizdek mashhur jarroh bo'lgan. Musulmon Sharqi mamlakatlarida odam anatomiysi o'qitilmagani sababli jarrohlik yaxshi rivojlanmagan bo'lsa ham, ayrim tabiblar yaxshi jarroh bo'lib echishganlar. Shox Xusayn shulardan biri edi.

Shoh husayn bemorni operatsiya qilishda og'riqsizlantiruvchi modda ishlatgan. Operatsiya qilingan joyni tikishda qo'y ichagidan tayyorlangan tor (ip) ishlatgan.

Shomiy tabib avval korilik qilgan, so'ng tabiblik kasbini egallagan. Bu tabib haqida Navoiy bunday deb yozgan edi:

Mavlono Shomiy avval ruxoni bo'lmoqchi edi. Ammo u tibbiyotni o'rgana boshladi va nihoyat tabib bo'lib etishdi. Bu sohada u yaxshi bilim va tajriba orttirdi.

Bulardan tashqari, Xuroson va Movarunnaxrning boshqa shaharlarida ham o'nلarcha tabiblar yashaganlar.

Xirotda dorixonalar ham bo'lgan. Shulardan biri haqida Navoiy ma'lumot beradi—dorixonada tabiblarning retsepti bo'yicha bemorlarga dori tayyorlab berilar ekan. Bu erda tibbiy talabalar dori tayyorlash usullarini o'rgangan. Ular o'z muallimlari bilan tog' va dalalarga chiqib, dorivor o'simliklarni yig'ib kelar ekanlar.

Temuriylar avlodining oxirgi namoyandalaridan biri—buyuk o'zbek shoiri va davlat arbobi—Zahiriddin Muhammad Bobur edi. U 16 asr boshida mamlakatga Shaybonixon qo'shinlari bostirib kelgandan so'ng, hindistonga o'tib ketib, u erda o'z davlatini barpo etdi. Tarixda bu davlat ulug' mug'ullar sulolasi nomi bilan ma'lum.

Bobur ilm-fan va ma'rifatga katta ahamiyat beradi. Olim, shoir va san'at ahllarini doimo qo'llab-quvvatlar, ularga saroydan joy berib, ijodiy faoliyatları uchun yaxshi sharoit yaratib bergen edi.

Bobur saroyidagi fozillar katorida yirik tibbiyot olimlari ham bor edi. Shulardan biri o'sha zamonda ko'zga ko'ringan tabiblardan Yusuf ibn Muhammad ibn Yusuf al-Xaraviydir. Bu tabib "Yusufiy" nomi bilan tanilgan.

Yusuf tabib Xurosnonning Xof shahrida tabib oиласида dunyoga kelgan. Tug'ilgan yili ma'lum emas, vafoti 1514 yil.

Yusuf tabib dastlabki ta'limni va tabiblik kasbini o'z otasi bo'lmish Muhammad ibn Yusuf tabibdan o'rgangan. U ko'p olim va fozillar bilan muloqotda bular, ulardan ko'p narsalar o'rganar va o'z bilim va tajribalarini ham ular bilan baham ko'rар edi.

Yusuf tabib she'riyatga juda qiziqqan. U "Yusufiy" taxallusi bilan she'rlar yozar edi. o'zining ko'p tibbiy asarlarini she'riy uslubida yozgan.

Yusufiy murakkab yo'lni bosib o'tdi. U ko'p shaharlarga sayohat qildi. o'zi borgan shaharlardagi olimlar bilan muloqotda bo'lar, mamlakatning hayoti va tabiatini bilan tanishar edi. Tibbiyat sohasida qanday yangiliklar bo'lsa, ularni o'zlashtirib olishga intilardi. U umrining oxirini hindistonda o'tkazdi. Uni Bobur o'z saroyiga taklif etgan edi.

Yusuf tabib tib ilmiga oid ko'pgina asar yozgan edi. Birinchi asarini olim hali yosh paytida yozgan edi. Bu asar "Ovqat va ichimliklar haqida risola" deb atalgan. Asarda muallif normal ovqatlanish tartibi va suyuqliklarni iste'mol qilish qoidalarini ko'rsatadi. Bu kitobning qimmati shundaki, unda muallif ovqatlanishda o'rganilgan shartli reflekslarga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Chunonchi, kishi bir kunda necha marta va qaysi soatlarda ovqatlanishga o'rgangan bo'lsa, shu rejimni buzmaslikni tavsiya qiladi.

Keyingi asari—"Muruvvatli kishilarga foyda keltirish". Kitobda tibbiyat masalalari kengroq qamrab olingan. Eng muhimi, unda sog'liqni saqlash masalalari bayon etilganligidir. Muallif kasalligini kelib chiqishi va rivojlanishi masalasida o'sha zamon tushunchasiga muvofiq organizmdagi to'rt suyuqlik—qon, safro, savdo va xilt nazariyasiga asoslanadi.

Yusuf tabibning eng mashhur asari "Kasalliklarni davolash" dir. Bu asarda organizmdagi barcha a'zolarning kasalliklari, ularni aniqlash va davolash tadbirlari bayon etilgan. Asarda avval bosh miya kasalliklari bayon etiladi, so'ng quyi a'zolarga o'tiladi. Bosh miya kasalligiga to'xtab, muallif bemor ruhi o'zgarishini ham eslab o'tadi. Miyaga qon quyilishi (insult) haqida ham fikr yuritilgan. Bu vaqtda qon olish zarurligi kursatilgan, zahm kasalligini aniqlagan. U kasallikda tanosil a'zolarining zararlanishini ko'rsatdi va bu kasallikni davolashda simob preparatlarini ishlatgan. Zahm kasalligi jinsiy aloqa orqali yuqishini ko'rsatgan.

Kitobning dastlabki nusxasi murakkabroq yozilgan bo'lib, tushunishga qiyin edi. Ko'pchilik tabiblarning iltimosiga ko'ra, muallif o'z kitobini qaytadan yozib, uning qiyin joylariga sharh yozdi. Xususan, kasallarni davolashda ishlatiladigan murakkab dorilarni aniq tushuntirib berdi. Kitobning nomini o'zgartirib, uni "Nafi' to'plami" deb atadi. Bu kitobni xind tabiblari o'z tillariga tarjima qilib, uni "Yusuf tibbiyoti" deb atadilar. Kitob 1882 yilda xorazmlik tabib Muhammad Amin ibn Muhammad Zaxirxo'ja al-Xusayni tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan.

o'zi asli o'rta Osiyolik bo'lib, hindistonga borib, o'sha erda yashab, ijod qilgan mashhur tabiblardan yana biri— Shaxobiddin tabib ibn Abdulkarim edi. Tug'ilgan

va vafot etgan yili aniq emas. Shaxobiddin tabib dastlab xattotlik, kotiblik va boshqalarning kitobini ko'chirish bilan shug'ullangan. Dehqonchilik ham qilgan. Keyinchalik tibbiyotga qiziqib, unga oid ko'p kitoblar o'qigan. Sharq tib olimlarining asarlaridan tashqari Yunoniston va Rim olimlarining ham asarlarini qunt bilan o'rGANADI. Kasallarni sinchkovlik bilan ko'zdan kechiradi va tajribalar o'tkazadi, har xil dorilarni sinab ko'radi.

Bu tabib kambag'al va etim-esirlarni bepul davolagan. U juda jonkuyar odam edi.

Shahobiddin tabibdan unchalik katta ilmiy meros qolmagan. Bizga uning asosan "Kasalliklar davosi" nomli asari ma'lum. Bu asar nazm uslubida yozilgan. Keyinchalik u "Shaxobiy tabobati" deb atala boshlagan. Asar 1389 yilda yozib tugatilgan. Kitobda kasalliklarning sabablari, belgilari, ularni aniqlash usullari va davo tadbirlar bayon etilgan. Olim ichak parazitlarini ham yaxshi bilgan va ularni haydash usullarini ko'rsatgan. Nihoyat, olim salomatlikni saqlash tadbirlariga to'xtaladi. Bu masalada u dastlab ovqat rejimiga rioya qilishni tavsiya etadi. Ikkinci o'rinda jismoniy mashg'ulotlarni ko'rsatadi.

Shunday qilib, hozirgi o'zbekiston xududida temuriylar davrida tibbiyot ancha yuksak darajaga ko'tarildi. Shaharlarda kasalxonalar, tibbiy maktablar, kutubxonalar qurildi. o'nlab mashhur tabiblar etishib chiqdi. Ular bemorlarni davolash bilan bir qatorda tibbiy maktablarda talabalarni o'qitganlar. Tibbiyot boshqa fanlar singari Ulug'bek, va Xusayn Boyqaro zamonasida ayniqsa yuksak darajada rivojlandi.

Vazifa № 1 Tibbiyot tarixini «Klaster» grafik organayzer yordamida urganishni Temur va Temuriylar davrida tibbiyotni rivojlanishi mavzusida ishlab chikish

Vaziyatli masalalar

«qorbo'ron» usuli

Gurppa 2 ta guruhchaga bo'linadi va bitta muammo yoki vaziyatni muhokama qiladi. har bir to'g'ri javob ball sifatida ushbu guruhga «qorbo'ron» shaklida yozib boriladi. Eng yuqori ball to'plagan guruhga a'lo baho qo'yiladi.

1. Amir Temur, Ulug'bek, husayn Boyqarolarni shaxsiy tabiblari kimlar bo'lgan va ularni faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Amir Temur aholi o'rtasida har xil kasallikkarni tarqalishiga qarshi qanday tadbirlarni amalga oshirgan?
3. Ulug'bek davrida faoliyat ko'rsatgan Tojiddin hakim olamshumul ixtirosi va uning faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
4. Alisher Navoiy shirinso'zli tabiblar haqida qanday fikr-mulohaza yuritganlar?
5. Temuriylar davridagi tibbiyotni hozirgi davrdagi olimlar tomonidan o'r ganilishi qanday darajada olib boriladi?

Nazorat savollari

1. Amir Temur, Ulug'bek, husayn Boyqarolarni shaxsiy tabiblari kimlar bo'lgan va ularni faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
2. Amir Temur aholi o'rtasida har xil kasallikkarni tarqalishiga qarshi qanday tadbirlarni amalga oshirgan?
3. Ulug'bek davrida faoliyat ko'rsatgan Tojiddin hakim olamshumul ixtirosi va uning faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
4. Alisher Navoiy shirinso'zli tabiblar haqida qanday fikr-mulohaza yuritganlar?

5. Temuriylar davridagi tibbiyotni hozirgi davrdagi olimlar tomonidan o'rganilishi qanday darajada olib boriladi?

Mavzu: o'zbek xonliklari davridagi tibbiyotni rivojlanishi. Shayboniyxonlar va Ashtarkoniylar (XVI- XVII asr) va so'ngi o'zbek xonliklari davridagi (XVIII-XIX asrlar) tibbiyot.

Maqsad: Talabalarni o'zbek xonlari davrida faoliyat ko'rsatgan tibbiyot olimlari va tabiblar bilan tanishtirish. o'sha davr tibbiyoti rivojlanishidagi ijobiy va salbiy omillarni o'rgatishdan iborat.

Vazifalari (kutilgan natijalar)

- Shayboniylar davrida mamlakatni iqtisodiy – siyosiy ilm-fan, tibbiy - madaniy hayotini ko'tarish va rivojlantirish darajalarini o'rganish
- Shayboniylar davrida xakim va tabiblarga yaratilgan sharoitlarni o'rganish
- Ashtarkoniylar davrida Subxonqulixonni tibbiyotda tutgan o'rnnini o'rganish
- mazkur davrda kasalxona, hammom va sihatgohlar qurishdagi ahamiyatini o'rganish:
- Xorazm, qo'qon xonligi va Buxoro amirligi davrida tibbiyotni rivojlanishini o'rganish

Nazariy qism

Temuriylar sulolasi XV asr oxiriga kelib, tushkunlikka uchradi. Siyosiy hokimiyat zaiflashdi, iqtisodiy hayot izdan chiqdi. 1506 yilda oxirgi temuriylardan bo'lган husayn Boyqaro vafot etdi. Zahiriddin Bobur Vatanni tark etib, hindistonga o'tib ketdi. Movarounnaxrda yagona davlat tuzish qo'lidan keladigan kuch qolmadı. Toj-taxt uchun olib borilgan to'xtovsiz urushlar va cheki yo'q har xil soliqlardan tinkasi qurigan xalq oxirgi temuriylarni qo'llab-quvvatlamadi. XVI asr boshida Movarounnaxrnı Shayboniyxon qo'shinlari zabit etdilar.

Shayboniyxon odamlari o'zlarini biz o'zbeklarmiz, deb atardilar. Ular bu erdag'i mahalliy o'zbeklar (turkiy xalqlar) bilan aralashib ketib, yangi davlatni-o'zbek xonligini barpo etdilar.

Shayboniyxon Samarqandni o'z davlatining poytaxti, deb e'lon qildi. Buxoroni ukasi Mahmud Sultonga berdi. Toshkent va uning atrofidagi erlarni qarindoshlariga (Ko'chkunchi Sulton Va Suyinchi Xo'jaga) bo'lib berdi. So'ng u Xuroson va Xorazmni bosib oldi. Xurosonga o'z o'g'li Temur Sultonni hokim qilib qo'ydi. Shunday qilib, Shayboniyolar sulolasi paydo bo'ldi. Bu sulolaning asoschisi Shayboniyxon ancha bilimdon odam edi. U adabiyot va san'atga qiziqar, bu soha ahllarini qo'llab –quvvatlardi. Temuriylarga taqlid qilib, mamlakatda iqtisodiy hayot, fan va madaniyatni rivojlantirishga intildi. Bu borada u ba'zi tadbirlarni ham amalga oshirdi. Ammo temuriylar shon-shuhratga eta olmadi. Dastlabki yillarda esa harbiy to'polonlar natijasida mamlakat qo'shimcha vayronagarchiliklarga uchragan edi. Shayboniyxon askari bosib olingen shaharlarni talon-taroj qilardilar. Buning natijasida xalq xonavayron bo'lar, xalq o'rtasida turli kasalliklar tarqalib ketar, minglab kishilar xalok bo'lar edilar. Tarixda bu davrda bir necha bor epidemiyalar tarqalib ketganligi ma'lum.

Davlat barqaror topgandan keyin Shayboniyxon xo'jalik hayotini tartibga solishga qaratilgan ba'zi tadbirlarni amalga oshirdi. Sun'iy sug'orish inshooatlari tiklandi, erdan foydalanish qoidalari haqida mahsus qonun qabul qilindi. Vaqf erlari masalasi tartibga solindi. Bu tadbirlar aholiga bir qadar yangilliklar keltirdi, xalqning ahvoli yaxshilandi. Madaniy hayot yuksala boshladi. Bunda bir xodisa – o'lkada kog'oz ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilganligi katta rol o'ynadi. Samarqandda ishlab chiqariladigan «Sultoniy» va «Miribroximiy» markali kog'ozlar dun bozorida yuksak baholanardi.

Movarounnaxr boshqa qo'shni mamlakatlar bilan savdo-sotiq va madaniy aloqa o'rnatdi. Bu erda ishlab chiqilgan ip-gazlamalar. Gilamlar, qurollar chet ellarga sotilardi. Masalan, o'rtta Osiyo o'sha vaqtida Xitoy, hindiston Eron va qadimgi Rus davlati bilan savdo-sotiq ishlari olib borardi. Chet ellardan, xususan, Xitoy va hindiston oy, qora murch, har xil ziravorlar keltirilardi. Moskva davlatidan mo'yna, teri, mum, asal va ba'zi metall buyumlar keltirib sotilardi. o'sha davrda o'zbek xonliklari ayrim davlatlar bilan diplomatik aloqalar ham bog'lagan edilar.

Mamlakatda kattagina qurilish ishlari olib borildi. Ular qatorida karvonsaroylar, sardoblar, hammomlar, kasalxonalar ham bor edi. Bu qurilishlar mamlakatning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynadi. Muhimi shundaki, bu vaqtga

kelib, o'zbek tilida yozilgan kitoblar paydo bo'la boshladi. Bularidan birinchisi mashhur «Boburnoma» edi. o'zbek tilida mashhur olimlarning asarlari tarjima qilina boshladi.

Shayboniyalar hukmronlik qilgan davrda (XVI asr) mamlakatda tibbiyot anchagina rivojlandi. Deyarli har bir shaharda kasalxona, nogironlar uyi. Dorixona, tibbiy maktablar bo'lardi. Masalan, XVI asr o'rtasida Toshkentning ko'rkan chekkasida, «Chorbog» degan joyda mahsus kasalxona («Shifoxona») qurilganligi ma'lum. Bu erda bemorlar va yaradorlar davolanganlar. Kasalxonalarda tajribali tabiblar ishlardilar. Ular talabalarga tib ilmidan dars ham berardilar. Chuqur bilimli bu tabiblar tibga oid asarlar ham yozganlar.

Shayboniyalar davrida o'zbekiston xududida yashagan yirik tabiblardan bizga Muhammad husayn Miroqiy as-Samarqandiy, Shoh Ali ibn Sulaymon al –Kahhol, Sulton Ali Xurosoniy, toshkentlik Mullo Muhammad Yusuf tabib, Ubaydulla ibn Yusuf Ali al-Kahhol, Mir Muhammad husayn al-Oqiliylar ma'lum.

Muhammad husayn al-Miroqiy as-Samarqandiy 1545 yilda dorishunoslikka oid katta bir asar yozib, unda har xil shifobaxsh o'simliklarning xossalari, ularni izlab topish, dori tayyorlash va ishlatish usullarini batafsil bayon etgan. Kitobda turli dorivor o'simliklarning rangli rasmlari berilgan, dorixonada ishlatiladigan asbob- uskunalar, dori saqlanadigan idishlarning rasmlari ham keltirilgan.

Muhammad husayn Miroqiyning bu kitobi dorixona xodimlari uchun dastur rolini bajargan. Undan tabiblar ham foydalanganlar, chunki ular ko'pincha o'z bemorlariga dorini o'zlari tayyorlab berardilar.

Shoh Ali ibn Sulaymon al-Kahhol asli toshkentlik bo'lib, Kahhol, ya'ni ko'z tabibi edi. Bu sohada u eng ko'zga ko'ringan mutaxassis hisoblanardi.

Shoh Ali ibn Sulaymon ham ko'p tabiblarga o'xshab, o'z asarlarini she'riy uslubda yozgan. Masalan, uning «Kahholik san'atiga bag'ishlangan risola» asari she'riy usulda yozilgan. Asarda ko'zning tuzilishi, ko'z kasalliklarining kelib chiqishi, ularni aniqlash va davolash masalalari bayon etilgan va bu kasalliklar uchun mahsus dori tayyorlash usullari ham ko'rsatilgan.

Sulton Ali Xurosoniy Samarqand hokimi Abu Mansur Kuchkinaxon saroyida xizmat qilgan. Bu muallifning bizga ma'lum va mashhur asari «Davolash dasturi»dir. Asarda kishi organizmining barcha a'zolari kasalliklarini boshdan boshlab, oyoqqacha batafsil bayon etadi. Sulton Ali Xurosoniyning bundan boshqa

«Muqaddimai dastur ul-iloi» nomli asari ham bo’lgan. Bu asar ko’pincha oddiygina qilib «Muqaddima» deb atalib kelingan. Muallif «Muqaddima» ga oldingi asarga kirmay qolgan ba’zi masalalarni kiritgan. «Muqaddima»ning muhim tomoni shundan iboratki. Unda salomatlikni saqlash uchun qanday tadbirlarni amalgalashirib yurish usullari ko’rsatilgan.

Mulla Muhammad Yusuf tabib toshkentlik Kahhol bo’lgan. Bu tabib ko’z kasalliklaridan tashqari boshqa kasalliklarini ham yaxshi bilgan. Uni Samarcand xokimlaridan Abdullatifxon o’ziga shaxsiy tabib qilib tayinlagan. Muhammad Yusuf tabibning isitmali kasalliklarga bag’ishlangan «Isitmalarни aniqlash» «Tomir va peshob haqida risola» nomli asari ham ma'lum. Kitob ikki qismdan iborat bo’lib, birinchisida tomir urishining yil fasli. Kishining ruhiyati va kasallikning turiga qarab o’zgarishi bayon etilsa, ikkinchisida so’z peshobga qarab kasalliklarni aniqlash usuli bayon etiladi.

Muallifning ko’z kasalligiga bag’ishlangan «ko’z tabibining afzalligi» nomli kitobi ham mavjud asarda ko’z kasalliklari va ularning belgilarni tashqi tomondan turib belgilash usulini ko’rsatgan, davolash usullarini bayon etgan.

Ubaydulla ibn Yusuf Ali al-Kahhol ham toshkentlik ko’zga ko’ringan tabiblardan bo’lgan. Bu tabib Toshkent xokimi – Muhamad Darvish Baxodirxon saroyida xizmat qilgan.

Ubaydulla Ali al-Kahholning mashhur asari «Kasallarni davolash»dir. Asar ikki qismdan iborat bo’lib, birinchisida barcha a’zolarda uchraydigan kasalliklar bayon etilsa, ikkinchisi turli xil murakkab dorilarga bag’ishlangan.

Muhammad Oqiliy (Mir Muhammad husayn al-Oqiliy) ham tabiblar oilasidan bo’lgan. Asli o’zi Xurosonlik edi. Lekin Mashhadda yashagan. Muhammad Oqiliy o’z kasbini yaxshi egallagan mutaxassis tabib bo’lgan. Olimning tibga oid bir necha asari bor. Shulardan bizga ma'lumi «Dorilar hazinasi» va «Korabodin» (farmakopeya) nomli asarlaridir. Muallif «Dorilar hazinasi» asarida turli kasalliklar, ularning belgilari, diagnostika va davolash usullarini bayon etgan. Kitobda organlarning yunoncha, arabcha va turkcha (o’zbekcha) nomlari berilgan. «Farmakopeya» da esa har xil dori moddalari, ularning tayyorlash va ishlatalish yo’llari ko’rsatilgan. Muhammad Oqiliyning kitoblari o’zbekistonda keng tarqalgan edi.

XVI asrning oxiriga kelib o’zaro urushlar natijasida Shayboniyalar davlati zaiflashib qoldi. Bu vaqtida janubda Eron shohlari mamlakatga tahdid sola boshladilar.

Shimolda esa rus podshohidan madad olgan qozoq xonlari hujum boshladilar. Oxirgi shayboniylardan biri- Abdulmo'min mamlakatni birlashtirishga urinib ko'rdi. Ammo ayrim viloyatlarning beklari uni qo'llab-quvvatlamadilar. Aksincha, ular dushmanlar bilan kelishish yo'lini tutdilar. Abdulmo'min o'ldirildi. Bu bilan shayboniylar sulolasini ham tugadi.

H9 yilda Movarounnahrning xoni qilib, Koki Muhammad saylandi. U boshqa o'zbek qabilasidan- ashtarxoniylardan edi. Shunday qilib, Ashtarxoniyalar sulolasiga asos solindi. Bular ham mamlakatdagi parchalanib ketish jarayonini to'xtata olmadilar. Markazdan chetlanish tendentsiyasi kuchli bo'lib chiqdi. o'lka va viloyatlarning boshliqlari ko'pincha markaziy xukumatga bo'y sunishdan bosh tortar edilar. Bundan tashqari, davlat ishlarida ruxoniylar o'z ta'sirlarini borgan sari kuchliroq o'tkaza boshladilar. Markaziy xukumat boshlig'i shayx va ulamaolar hamda viloyat hokimlarining ishtirokisiz biror muhim ishini amalga oshira olmasdi. Shuning uchun mamlakatning iqtisodiy va madaniy hayotida ko'zga ko'rinarli o'zgarish yuz bermadi. Siyosiy hayotda o'zaro urushlar davom etdi.

Urushlar ko'p mablag' talab etar edi. Uni qoplash uchun fuqarolar yangi-yangi soliqlar solinardi. Oiladagi yigitlar askarlikka olib ketilardi. Dalalarda ekinlar ekilmay qolar, ekilganlari esa yig'ishtirilmay, qolib ketardi. Shularning hammasi aholini yanada qashshoqlashtirar, uning ahvolini og'irlashtirib, madorini quritardi. Buning natijasida organizm zaiflashib, turli kasalliklarga chalinardi. Biz yuqorida tez-tez epidemiyalar tarqalib turganligini yozgan edik. Bu hol Ashtarxoniyalar davrida ham davom etdi.

Shunday qilib, Ashtarxoniyalar hukmronlik qilgan davrda Movarounnahrda iqtisodiy va madaniy hayot sohasida unchalik siljish ko'rinnadi. Bundan tibbiyat istisno edi. Bu sohada zarurat bo'lganligi uchun ba'zi bir siljish alomatlari ko'rindi. Ayrim shaharlarda kasalxonalar barpo etildi, ularda bemorlarni davolash bilan birga talabalar ham o'qitilardi.

Bu vaqtagi ko'zga ko'ringan tabiblardan biri –Subxoqulixon (Sayyid Muhammad Subxonqulixon ibn Sayidnodir Muhammadxon) dir. Subxonqulixon Buxoro amiri edi. U har xil fanlar bilan qiziqsan, ayniqsa, tibbiyat bilan ko'proq shug'ullangan. Subxonqulixon saroyda tabiblarni yig'ib, tabobat borasida ilmiy anjumanlar o'tkazib turardi. Subxonqulixonning amaliy tibbiyat bilan shug'ullanigani ma'lum emas, ammo tibga oid ikkita asari borligi ma'lum. Bular «Subxon tibbiyoti» va «Subxonning hayotbaxsh tibbiyoti»dir. Bu kitoblar o'zbek (turkiy) tilda yozilgan.

«Subxon tibbiyoti» da muallif oson, tushunarli qilib har xil kasalliklarni aniqlash va davolash haqida so'z yuritadi. Kitob unchalik aniqlash va davolash unda tibbiyotning asosiy masalalari qisqa, lekin aniq bayon etilgan.

«Subxonning hayotbaxsh tibbiyoti» («Ix'yo ut-tibbi Subxoni») esa asosan dorilarga bag'ishlangan. Kitob 8 qismdan iborat. har bir qismda dorilarning sifati, tayyorlanishi va ishlatilishiga oid ayrim masalalar yoritilgan. Subxonqulixonning kitoblari o'zbek tilida yozilgan birinchi tibbiy asarlar sifatida tibbiyot tarixida muhim o'rinn tutadi. Kitobning o'zbek tilida yozilishi haqida muallif bunday deb yozgan edi: «o'tmishdagi tabiblar bizga arab va fors tillarida yozilgan asarlar qoldirganlar. Men turk (o'zbek) tilida yozilgan tibbiy kitob uchratmadim. Mahalliy aholini arab va fors tilida yozilgan kitoblardan foydalana olmaydi. Shuning uchun men o'z kitobimni turk (o'zbek) tilida yozdimki, undan o'zimizning odamlar foydalansinlar».

Subxonqulixon mamlakat boshlig'i sifatida fuqaro sog'lig'ini saqlash ishiga ma'lum darajada e'tibor bergen. Ma'lumki, o'rta Osiyo sharoitida yozning issiq kunlarida aholi o'rtasida ich ketish kasalligi ko'payadi. Shuning oldini olish uchun Subxoqulixon nonvoylar non yuziga kunjut urug'i sepib yopsinlar, degan farmon chiqardi. Kunjut avvalo o'zi xushbuy hidli, yoqimli, ikkinchidan esa u ich ketishini to'xtatadi. Farmon bilan boshlangan bu tadbir hozir odat tusiga kirgan.

Subxoqulixonning farmoni bilan 1682 yilda Buxoroda kasalxona barpo etildi. U «Shifo beruvchi manzil» deb atalardi. Kasalxona madrasa ko'rishinida qurilgan. U 18 hujra (palat) dan iborat bo'lган. Kasalxona kompleksiga tibbiy maktab va kutubxona ham kirgan. Kasalxona va tibbiy maktabga (madrasaga) o'sha zamonning ko'zga ko'ringan olimlaridan Mavlono Mirqosim hakim rahbarlik kilgan. Buxoro madrasasida tabiblardan yana Xoja Amin Rais. Oxund Mullo Abdug'afur hakim, Xoja Yoqublar xizmat qilar edilar.

Madrasa kutubxonasi kitobga juda boy bo'lgan. Aftidan, Subxonqulixonning o'zi ham kutubxonaga tez-tez kirib turgan bo'lsa kerakki, bu erdag'i kitoblarga juda qiziqib qolgan. U kutubxona xodimlariga kitoblarni tartibga solishni va ba'zi muhimlarini tarjima qilishni buyurgan. Shular qatorida mashhur olim Yusuf tabibning «Tibbi Yusufiy» va «Ne'matullox ibn Fahreddin Muborakshoh hakimning «Xosiyatlar dengizi» nomli kitoblari ham bor.

Kasalxona mablag'i davlat xisobidan ajratilgan. U vaqf erlar va boshqa manbalardan ta'minlangan.

Kichik shifoxonada yotib davolanishlari zarur bo'Imagan bemorlar davolangan. Kasalxona dorixonasi tabiblarning retsepti bilan bemorlarga dori tayyorlab bergen. Dorixonada ikki dorishunos xizmat qilgan. Tibbiy maktab talabalari madrasa xonakoxida yashaganlar. Ular maosh (stipendiyalar) bilan ta'min etilgan.

Kutubxonada tibga oid kitoblar ko'p bo'lgan. Shular jumlasidan Ibn Sinoning «Tib qonunlari» kitobi va boshqa mashhur tabiblarning asarlari bo'lgan.

Shunday qilib, Subxonqulixon tibbiyot ishini ancha rivojlantirdi.

o'zbekiston tibbiyoti tarixida yana bir davlat arbobi tib ilmi bilan shug'ullangan. Bu Xorazm xoni Abulg'ozixondir.

Abulg'ozixon (Abulg'ozzi ibn Abulmuhammadxon Xorazmiy 1605-1664) tarix, riyoyiyot, adabiyot va tibbiyot soxasida chuqur bilim va tajribaga ega bo'lgan. U o'zi hukmronlik qilgan davrda mamlakatda obodonchilik ishlariga katta ahamiyat bergen. Madrasalarda turli bilimlarni o'qitishni ancha yaxshilagan. o'zi ham tarix, adabiyotga oid bir qancha asar yozgan. Abulg'ozixonning tibga oid kitobi «Insonga foydali kitob» deb atalgan. Abulg'ozixon ham bu asarni o'zbek tilida yozgan, so'ng u fors tiliga tarjima qilingan.

Bu asar 4 qismdan iborat. Birinchi qismda oddiy dorilarning xossalari, ularni tayyorlash va ishlatish usullari bayon etilgan. Ikkinci qism- murakkab dorilarga bag'ishlangan. Bu qismda murakkab dorilarni tayyorlash, saqlash, ishlatish usullari yoritilgan. Uchinchi qismda tibbiyotda ko'p ishlatiladigan umumiylor haqida so'z yuritiladi.

Kitobning to'rtinchi qismi –tibbiyotning umumiylor nazariy va amaliy masalalarida boshqa tabiblarning fikr-mulohazalarini ham keltiradi va o'z fikr-mulohazalarini bilan xulosa chiqaradi. Abulg'ozixonning kitobi tabiblar o'rtasida keng tarqalgan va undan ko'p tabiblar foydalanganlar.

o'sha davrda Marvda Sayyid Muhammad Xasrat ismli shoir va tabib yashagan. U asli Mashxadlik edi. Shu erda bilim oldi, tarix, adabiyot va tibbiyotni o'rgandi. Xasrat ko'proq tibbiyotga moyil edi. U ko'p mashhur tabiblardan saboq olgan, ular qo'lida xizmat qilib, tajriba orttirgan. Ko'p mamlakatlarga sayohat qilgan. Masalan, u Turkiya, hindiston, Iraq kabi mamlakatlarda bo'lgan va Marv shahriga kelib, shu erda umrining oxirigacha yashagan.

Sayyid Muhammad Xasrat tibga oid bir necha asar yozgan. Ulardan eng mashhuri «Sihatlik nazmi» dir. Bu kitob o'z nomiga ko'ra, she'riy usulda yozilgan. Kitobda asosan mizojlar, xiltlar, ovqat mahsulotlari va ularning salomatlikka ta'siri bayon etilgan. Ovqat mahsulotlaridan: tuxum, go'sht, parranda go'shti haqida ma'lumot berilgan. Ovqatning kishi salomatligida qanday rol o'ynashi ko'rsatilgan. Bunda asosan uning «issiqlik» yoki «sovouqlik» xususiyati ko'rsatilgan. Sayyid Xasrat tabiblar bemorga dori va ovqat tavsiya etganlarida ularning qanday xususiyatga ega ekanligini hisobga olishi kerak, deydi. Bunga o'zi misol keltiradi. Masalan, tuxum haqida so'zlar ekan, eng yaxshi tuxum tovuq tuxumi ekanligini ko'rsatadi. Xasratning fikricha, tovuq tuxumining sarig'i «issiqlik», oqi esa «sovouqlik» xususiyatiga ega. Yong'ok «issiq» va «quruq» xususiyatga ega. Yong'oq jigar, taloq va me'da kasalliklarida yaxshi foyda keltiradi.

«Sihatlik nazmi» Marv xokimi Bayramxonga bag'ishlangan edi. Xasratning ikkinchi kitobi «Tuxfa i husayniy» Bayramxonning o'g'li husaynga bag'ishlangan. Bu kitobda oddiy (yakka) dorilar bayon etilgan, ularning «issiqlik va sovouqlik» xususiyatlari ko'rsatilgan.

Shunday qilib, Sayid Muhammad hasrat tibbiyat haqidagi o'z fikr va mulohazalarida boshqa tabiblar singari mizojlar nazariyasiga asoslanadi.

Subxonqulixon vafotidan keyin (1702 yili) mamlakat yanada kichikroq xonliklarga bo'linib ketdi. XVIII asrning boshida (1710 yil) Farg'onada (qo'qonda) mustaqil xonlik paydo bo'ldi. o'zbeklarning ming qabilasi boshlig'i Shohruhbiy yangi xonlik tuzdi. Balx viloyati va Buxorodan ajralib chiqdi. Xorazm ham yana mustaqillikka erishdi. Samarqand xokimi ham o'zini mustaqil deb e'lon qildi. Shunday qilib, XVIII asrga kelib, Mavarounnaxr va Xurosonda bir necha mustaqil xonliklar paydo bo'ldi. Shulardan uchtasi - qo'qon va Xorazm xonliklari va Buxoro amirligi hozirgi o'zbekiston xududida edi. Bular o'rtasida tez-tez to'qnashuvlar, urushlar bo'lib turardi. Buning natijasida mamlakatda tushkunlik, harobalik vujudga kelardi.

1753 yilda Buxoro xonligi o'zbeklarning mangit qabilasidan bo'lgan Muhammad Rahim qo'liga o'tdi. Buxoro asta-sekin fan va madaniyat markazidan diniy markazga aylana bordi. Ruhoniyalar davlat hayotining hamma sohalarini o'z qo'llariga ola boshladilar. o'qish-o'qitish va sud ishlari tamomila ular qo'liga o'tdi. Butun ma'naviy hayot shariat qoidalariga bo'ysundirildi. Madrasalardan dunyoiy fanlar olib tashlandi, faqat diniy o'qitish usuli saqlab qolindi, tibbiy ilmlar ham o'qitilmay qo'yildi. Shunday qilib, umumiy chekinish to'lqinida tibbiyat ham turg'unlikni boshidan kechira boshladi. Kasalxonalar yo'q bo'lib ketdi. Xon va

amirlar fuqaroni esdan chiqardilar. Ular aysh-ishratga berilib ketib, mamlakat hayoti, obodonchilik ishlari bilan shug'ullanmay qo'ydilar. Shunday qilib, mamlakatda iqtisodiy va madaniy hayotning hamma sohalarida, shu jumladan, tibbiyat sohasida ham sezilarli siljish bo'lindi. Aksincha, mamlakatning ilgarigi shon-shuhrat yo'qoldi.

XVIII asr o'rtalariga kelib, hozirgi o'zbekiston xududi va Turkmaniston, qirg'iziston hamda Tojikistonning ko'pgina qismi uch o'zbek xonligi _qo'qon, Xorazm xonliklari hamda Buxoro amirligi o'rtasida taqsimlab olingan edi. Bu xonliklar xududida yashovchi aholining ko'pchilagini o'zbeklar tashkil etardilar. Ayrim shaharlar va qishloqlarda tojiklar yashardilar. Xiva va Buxoro xonliklarining g'arbiy va Janubiy qismida turkmanlar joylashgan edilar. qo'qon xonligining shimalida qirg'izlar va qozoqlar, Orol dengizi atrofida esa qoraqalpoqlar yashardilar. Bundan tashqari, bu uchala xonlik xududida eronliklar, arablar, hindlar, yaxudiylar va boshqa xalqlar ham istiqomat ķildilar.

Ayrim xonlar mamlakat iqtisodiyotini ko'tarish, davlatni mustahkamlash va ba'zi bir obodonchilik ishlarini amalga oshirishga urinib ko'rdilar. Urushlar davomida vayron bo'lган sug'orish inshooatlarini qisman tiklardilar, yangi kanallar ham qazidilar. Masalan, Farg'ona vodiysida Shahrixon, Andijon va Yangiariq kanallari barpo etildi. Toshkent viloyatida 1822-1842 yillarda Xonarik kanali qazildi. Bunday ishlar Buxoro amirligi va Xorazm xonligida ham amalga oshirildi va o'z samarasini berdi. Mamlakatda biroz iqtisodiy ko'tarinkilik sezildi. Shaharlarda yangi karvonsaroylar, bozorlar, hammomlar, machitlar-madrasalar ko'rildi. 1884 yilda Buxoroda 38 karvonsaroy, 9 ta savdo rastalari, 45 ta bozor, 16 ta hammom bo'lgan. Toshkentda 15ta karvonsaroy, katta mehmonxona, 5 ta bozor, 11 ta hammom bo'lgan. Boshqa shaharlarda ham shunga o'xshash muassasalar mavjud edi. Masalan, Xiva xoni Muhamad Rahimning saroy tabibi- Ahmad Tabibiy bir necha asar yozdi. qo'qon xoni saroyida xizmat qilgan tabib va shoir –Fazliy ham ijod qilish bilan shug'ullangan. Ammo ko'pchilik tabiblar eski kitoblardan ko'chirma qilish bilan cheklanib qolar edilar.

XVIII-XIX asrlarda o'zbekiston xududida quyidagi ko'zga ko'ringan tabiblar yashaganlar. Junaydullo Xoziq, Ja'farxo'ja Xazoraspi, Mahmud Yayponiy, Tursunxo'ja hakim, Abdullo Xo'ja tabib, Boldaqli tabib, hakimcha tabib, Abdulvahob Ibodiy, Ahmadxo'ja tabib, qodir tabib, Xoji tabib, Atouollo tabib, Mannop tabib, Nurullo tabib va boshqalar.

Junaydullo Xoziq (Junaydullo ibn Islomshayx Xoziq) o'tgan asrning ko'zgu ko'ringan tabiblaridan bo'lган, o'zi asli Xirotlik edi. Tarix, adabiyot va tibbiyot sohasida chuqur bilimga ega bo'lган. XIX asrning boshlarida Buxoroga kelib, tabiblik ishi bilan shug'ullangan. U chuqur bilimi va etuk tajribasi tufayli kasalliklarni to'g'ri aniqlab, muvaffaqiyatli davolangan va xalq o'rtasida katta hurmatga sazovar bo'lган.

Junaydullo Xoziq tabiliklardan tashqari, badiiy adabiyot bilan ham shug'ullangan, she'rlar yozgan. Tarixiy mavzularda ham asarlar yaratgan. Xoziq o'z she'rlarida nodon ulamolarni tanqid ostiga olardi. U xatto Buxoro amiri Nasrulloxon sha'niga ham xonning g'azabiga duchor bo'ladi va Buxoroda yashay olmay, qo'qonga kuchadi. Bu erda bir oz vaqt yashagandan so'ng Xivaga ketadi. Ammo bu erda ham xon bilan kelisha olmaydi va qo'qonga qaytadi. 1842 yilda qo'qonni Buxoro amiri Nasrullo zabit etadi. qo'qon xoni Muhammad Alini qatl ettiradi. Buxoro xonining askarlari shaharni talon-taroj qiladilar, aholini talaydilar. Barcha hunarmandlar, naqqoshlar Buxoroga olib ketiladi. Junaydullo Xoziqni ham olib ketadilar. Lekin u Shahrисabzga qochadi. Ammo Nasrullo nayrang ishlatib, Xoziqni o'ldiradi.

Junaydullo Xoziqdan ba'zi asarlar qolgan. Shulardan biri tibbiyotga talluqlidir. Bu kitobni Xoziq «haqiqatni aniqlash va uni tekshirib ko'rish» deb atagan. Xoziq o'lkamiz tibbiyoti tarixida muhim o'rinnegallagan.

Ja'far Xo'ja Xazoraspiy (Ja'far Xo'ja ibn Nasriddin Xo'ja al-husayn Karvuki hazoraspiy) – oxirgi Xorazmlik olim tabiblardan biri edi. Ancha chuqur bilim va tajribaga ega bo'lган. Xazoraspiyning tibbiy fikrlari Sharq tibbiyotiga xos bo'lган mizoj tushunchasiga asoslangan edi. Olimning fikricha, har qanday kasallikning asosiy sababi organizmdagi suyuq moddalar (qon, shilliq o't, qora o't) ning o'zgarishidan kelib chiqadi. Bu o'zgarish miqdoriy va sifat o'zgarish bo'lishi mumkin. Bu o'zgarishning mohiyati shundan iboratki, noto'g'ri ovqatlanish natijasidpa, tabiat faktorlarining salbiy ta'sir etishi va shunga o'xshash zararli faktorlar ta'sirida suyuqliklardan biri oshib ketadi yoki uning sifati o'zgaradi. Buning oqibatida muvozanat buzilib, kasallik paydo bo'ladi. Shuning uchun Xazoraspiy bemorni muolaja qilishda unga dori berishdan oldin tanani ortiqcha xiltdan tozalash kerak, deydi. Shu maqsad uchun surgi dori berish yoki qayt qildirishni tavsiya etadi. qon olishni ham afzal ko'radi.

Xazoraspiy kasallikning oqibatini oldindan ko'ra bilish, ya'ni prognostikaga alohida ahamiyat bergen. Bu tabibning obro'si uchun ham juda muhim deydi. Tabib prognozni aniqlab so'ng, shunga qarab ish ko'rishi kerak.

Xazoraspiyning tibga oid asosiy kitobi «Tib bilimlari to'plami» deb atalgan. Mazmun jihatdan bu asar Ibn Sino «Tib qonunlari» ning uchinchi kitobiga o'xshaydi. Xazoraspiy ham Ibn Sino kabi odam organizmi kasalliklarini boshdan boshlab, oyoqqacha hamma organlari bo'yicha bayon qilgan. Bundan tashqari kitobda gjijalar, rishta, teri kasalliklari haqida ma'lumot berilgan. har xil zaharlanish va ularni davolash masalasiga ham to'xtalgan. Kitobda har xil dorilar, ularni tayyorlash va ishlatish usullari ham ko'rsatilgan. Nihoyat, ba'zi yuqumli kasalliklar, masalan, suvchechak haqida ham ma'lumot berilgan. Ja'far Xo'ja Xazoraspiyning «Tib bilimlari» kitobi Sharq tibbiyoti tarixida muhim rol o'ynagan.

Mahmud hakim Yaypaniy - qo'qondiy o'tgan asrning ikkinchi yarmi, XX asrning boshida yashagan yirik o'zbek tabiblaridan biri edi. U har xil fanlar sohasida chuqur bilimli olim va tajribali tabib bo'lган.

Mahmud hakim 1851 yil qo'qonga yaqin Yaypan qishlog'ida tavallud topgan. Yaypaniyning o'tmis avlodlari taniqli kishilar bo'lganlar. Uning bobosi xizmat kilgan. Otasi Badaliy ancha badavlat odam bo'lgan, savdo ishlari bilan shug'ullanangan, katta erlari ham bo'lgan.

Mahmud Yaypaniy yoshligidanoq juda zehnli bola bo'lgan va adabiyotga qiziqqan, ko'p o'qigan. U qo'qondagi «Mirzo qo'qondiy» madrasasida taxsil ko'rgan. Madrasada u vaqtda dunyoviy fanlar deyarli qonunlarini o'rganish bilan shug'ullanardilar. Faqat ayrim mudarrislar talabalarga ba'zi bir dunyoviy fanlar (tarix, jug'rofiya, astronomiya, riyoziyot) haqida boshlang'ich ma'lumot berardilar. qisman tibbiyot bilimi ham o'rgatilgan. Yaypaniy bu darslarni katta qiziish bilan o'rganadi va o'zi ham mustaqil ravishda kitoblar o'qib, o'z bilimini kengaytiradi. Yaypaniy arab, fors tilini tez va oson o'zlashtirib oladi. Lotin va rus tillarini ham o'rganadi. U qadimgi faylasuflar (Aristotel, Platon va tabiblar Gippokrat, Galen, Abu Bakr ar-Roziy, Ibn Sino)ning asarlarini qunt bilan o'rganadi. Buning natijasida katta olim va tabib bo'lib etishadi. Ammo bu vaqtga kelib, Ovrupo fani va tibbiyoti ancha ilgarilab ketgan edi. Sharq fani va tibbiyoti esa o'rta asr darajasida qotib qolgandi. Buni yaxshi tushungan Yaypaniy Ovrupo tibbiyotini mustaqil o'rgana

boshlaydi. Rus tilida chiqarilgan tibbiy kitoblarni o'qiydi, ovrupocha (lotincha) retsept yozishni o'rganib oladi.

Mahmud hakim Yaypaniy hayotda juda kamtarin kishi bo'lgan, kambag'al, beva - bechoralarga rahm - shavkat bilan qaragan, ularni bepul davolagan. Shuning uchun xalq o'rtasida juda katta hurmatga sazovor bo'lgan. Uning shurhati butun qo'qon xonligiga tarqaldi. Shunda qo'qon xoni Xudoyorxon Yaypaniyni Saroy tabibi vazifasiga taklif etadi. Ammo Yaypaniy bu taklifni qabul qilmaydi.

Yaypaniy fanning har bir sohalariga oid ko'pgina asarlar yozgan. Ammo bizga ularning hammasi ma'lum emas. Biz Yaypaniyning ikki asarini bilamiz. Biri «Bilim o'lchovi», ikkinchisi esa «Tabiblik qonuni».

«Bilim o'lchovi» Farg'ona va qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan.

«Tabiblik qonuni» tibbiyot ilmiga bag'ishlangan. Kitob arab tilida yozilgan. Yaypaniy o'z kitobida kasalliklarni aniqlash va ularni davolash masalalarini yoritgan. Bunda avvalo tashxis va davolash sohasidagi o'tgan olimlarning va o'z zamonasidagi tabiblarning fikrlari keltiriladi. So'ng muallif o'z fikr va tajribalarini bayon etadi. Yaypaniy kasallik sabablari masalasida mizoj tushunchasida turgan. Ammo bu masalada u boshqa tabiblarning fikridan boshqacharoq fikr yuritgan. Masalan, Yaypaniyning fikricha, mizoj o'zgarmas xususiyat emas, u sharoitga qarab o'zgarishi mumkin. Uning aytishicha, yil fasliga qarab, odamning mizoji o'zgarib turadi. Masalan, yoz faslida mizoj issiq, kishda esa sovuq bo'ladi.

Kasallik sababi haqida so'zlab, Yaypaniy organizmdagi suyuqliklarga alohida ahamiyat beradi. u bu suyuqliklar tashqi va ichki salbiy faktorlar ta'sirida o'zgaradi, deydi. Tashqi faktorlardan u yomon ovqat, iqlim va ob-havoning o'zgarishi, og'ir jismoniy mehnat hamda ruhiy kechinmalarni sanab o'tadi. Bulardan tashqari, tashqi muhitda kasallik paydo qiluvchi jonivorlar (parazitarlar) ham bo'lishini ko'rsatadi. Masalan, Yaypaniy rishta va bezgakni shunday jonivorlar (parazitarlar) paydo qiladi, deydi. Bundan ko'rinish turibdiki, kasallik sabablari masalasida Yaypaniyning fikrlari hozirgi zamon tushunchasiga yaqin bo'lgan. Sharq (o'zbekiston) tibbiyoti tarixida Yaypaniy muhim iz qoldirgan.

qo'qonda o'tgan asrda yana bir yirik tabib – hakimcha tabib o'tgan. hakimcha tabib hamza hakimzoda Niyoziyning otasi bo'lgan.

hamzaning o'zi ham tibbiy bilimga ega bo'lgan. Masalan, u Yusuf ibn Muhammadning «Tibbi Yusufiy» kitobini chuqur mutolaa qilgani ma'lum.

Samarqandda o'tgan asrning oxiri, XX asrning boshida mashhur Atoullo tabib yashagan. U asli Afg'onistonlik bo'lgan. o'tgan asr oxirlarida Samarqandga kelib, shu erda yashagan va tabiblik qilgan. Atoullo tabib bilimdon, xoziq odam bo'lgan. U bir necha tilni- arab, fors, turk. o'zbek va rus tillarini bilgan, mashhur Yunon, Rim va Sharq tabiblarining asarlarini chuqur o'rgangan. Ovrupo tibbiyoti bilan ham tanish bo'lgan. Masalan, u lotin tilida retsept yozishni bilgan va bemorlarga dorini ko'pincha o'zi tayyorlab bergan.

Atoullo tabib kasalliklarni aniqlashda tomirni ushlab ko'rish, eshitib ko'rish, palpatsiya qilish usullaridan foydalangan. U kichik jarrohlik bilan ham shug'ullangan. Masalan, og'riq tishni sug'urib olish, yiringlagan joyni kesish va h.k. Bu tabib ham tibbiyat tarixida sezilarli iz qoldirgan.

o'zbekiton shaharlarida boshqa mamlakatlardan kelgan tabiblar ham xizmat qilganlar. Masalan, Toshkentda afg'onistonlik Omonullo tabib, arabistonlik Abu Bakr tabib kabi tabiblar ishlaganlar. Abu Bakr tabib oilasiz, bir o'zi yashar edi. Uning bir xonali kichkina hovlisi bor edi va shu arning o'zida bemorlarni qabul qilar edi. Uy ichi har xil dorixona asboblari, shishalar bilan to'la edi. Uyning har xil tibbiy kitoblar tahlab qo'yilgan bo'lardi. Bunday o'qimishli tabiblar u vaqtida juda kam bo'lgan.

Shunday qilib, XIX asrning oxirlariga kelib, o'zbekistonda ilmiy tibbiyat o'zining so'ngi davrini kechirmoqda edi.

Vazifa №1

Shayboniyalar davrida shifoxonalar qurdirish

Vazifa №2

Mazkur davrda faoliyat ko'rsatgan olimlarni amaliy tibbiyatga qo'shgan hissalarini.

Vazifa №3

Abdulg'ozixonni tibbiyatda tutgan o'rni

Vazifa №4

Subxonqulixon tomonidan barpo etilgan «Davo maskani» shifoxonasi arxitekturasi va ahamiyati

Vaziyatli masalalar

«Ruchka stol o'rtasida» usuli

Barcha guruh talabalariga topshiriq beriladi. har bir talaba varaqga javoblarni yozib uni guruhdoshiga uzatadi va o'zining ruchkasini stol o'rtasiga surib qo'yadi.

Sulton Ali Xurosoniy «Davolash dasturi» kitobida tibbiyotni qaysi masalalari yoritilgan?

Ubaydulla al-Kahholning «Bemorlar muolajasi» asarida necha qismdan iborat va qaysi kasalliklarni davolashga bag'ishlangan.

Mir Muhammad Oqiliyni «Davo boyligi» asari va uning mohiyati nimalardan iborat.

Abdulg'ozixonni «kishilar uchun foydaliklar asari necha qismdan iborat va qaysi kasalliklarni davolash masalalari bayon etilgan?

Test savollari

1. Shaybonilar davrida qaysi joyda qanday kasalxona qurilgan?

- A) «Chorbog'»da
- B) Samarcanda
- V) Chortoqda
- G) Xumsonda

2. Subxonqulixonni qanday asarlarini bilasiz?

- A) Subxon tibbiyoti
- B) Subxon davosi

V) Subxoni hayotbaxsh

G) Subxon ilmi tib

3. Subxonqulixon farmoni bilan qanday kasalxona qurilgan?

A) Shifo beruvchi manzil

B) Shifoxiya

V) Xolisiya

G) Maskani Subxon

4. Abdulg'ozixonni tibbiyotga oid asari qanday nomlandi?

A) Insonga foydali kitob

B) Sihatlik nazmi

V) Tibi Abdulg'oziy

G) ichki kasalliklar

D) Xirurgik kasalliklar

5. So'ngi o'zbek xonliklari davrida qaysi olimlar o'tgan?

A) Xoziq, Xazaraspiy, Yaypaniy,

B) Attika, Yusuf, Jurjoni

V) Yusuf, Attika, Ataullo

G) Xazaraspiy, Gurlaniy, Iokiy

D) Abdulg'ozixon, Xazaraspiy, Yaypaniy.

Kontrol savollar

Sulton Ali Xurosoniy «Davolash dasturi» kitobida tibbiyotni qaysi masalalari yoritilgan?

Ubaydulla al-Kahholning «Bemorlar muolajasi» asarida necha qismdan iborat va qaysi kasalliklarni davolashga bag'ishlangan.

Mir Muhammad Oqiliyni «Davo boyligi» asari va uning mohiyati nimalardan iborat.

Abdulg'ozixonni «kishilar uchun foydaliklar asari necha qismdan iborat va qaysi kasalliklarni davolash masalalari bayon etilgan?

Ja'far Xazaraspiyning qanday asarlarini bilasiz va ularni mazmuni nimalardan iborat?

Mahmud Yaypaniyni tibbiyotni qaysi sohasi bilan shug'ullangan va qanday asarlarini bilasiz?

Ataullo tabib va uning tabiblik faoliyati haqida hikoya qilib bering?

Xonliklar davridagi tibbiyot nima uchun Evropa tibbiyotidan orqada qolib ketdi, uning asosiy sabablari nimalardan iborat edi:

Mavzu : o'zbekiston Pediatriya rivojlanish tarixi. Pediatriya sohasi o'z hissalarini qo'shgan o'zbekistonlik olimlar faoliyati.

Maqsad: Talabalarni kelajakdagi o'z kasblariga mehr-muhabbat uyg'otish va Pediatriya sohasi ulkan hissa qo'shgan olimlarni ilmiy- amaliy faoliyatları bilan tanishtirish.

Vazifalari (kutilgan natijalar)

- o'zbekiston xududida zamonaviy Pediatriyaning rivojlanish bosqichlarini o'rGANISH
- Turkiston davlat universiteti tibbiyot fakulteti tarkibida ilk bora Pediatriya kafedralarini tashkil etish tarixini o'rGANISH
- o'zbekistonlik Pediatr olimlarining bolalar kasalliklarini davolashdagi samaradoriligini o'rGANISH;
- o'zbekistondagi tibbiyot institutlari Pediatriya kafedralarini tashkil qilinish va ilmiy yutuqlari tarixini o'rGANISH.

Nazariy qism

o'zbekistondagi pediatriya olimlari. o'rta asrlarida Osiyoda ancha rivoj topgan tabobat ilmi XU111-X1X asrlarga kelib feodal jamiyati ta'sirida juda orqadi qoldi. Bu davrlarga kelib tabobat maktablari yo'q bo'ldi. Tibbiyot tarixi mutaxasislarning yozishlariga xalq tabobati uyushmagan holda bo'lib tabiblar o'z sa'atlarini onadan bolaga meros kilib qoldirishgan sir - asrorlarini boshqalardan pinxoq saqlashar edi.

o'rta Osiyoda 1861 yildan boshlab rus harbiylari va bu erga o'zlashtirish uchun kelgan boylar sog'lig'ini saqlash uchun tibbiyot shahobchalar tashkil qilina boshladi: Bularda asosan harbiy gorizontlarning soldat va ofitserri zadagonlar va ularning xizmatchilari mahaliy boylar davanardi. Toshkentda 1920 yilda Turkiston davlat dorilfununi uning tarkibida esa tibbiyot fakulteti tashkil etilib mahaliy tibbiyot xodimlari tayyorlash yo'lga qo'yildi. Samarqand tibbiyot

oliyogohida dastlabki bolalar kasalliklari kafedrasi 1933 yilda davolash fakulteti qoshida tashkil etilgan bo'lib uni tajribali hakim Roziovskiy , 1935 yildan 1950 yilga qadar esa prof Ivanovlar boshqargan edilar. Ana shu kafedrada 1949 yilda bolalarda bezgak kasalligida norman suvlari va pigment almashinuvi borasida ilmiy tadqiqot ishlarini B.X. qoraxo'jaev olib bordi va shu mavzudagi tibbiyat fanlari nomzodligi uchun disertatsiyani muvafaqiyatli yoqladi. Keyinchalik B.X. qoraxo'jaev (1950 -1977 i) mazkur kafedrada uzoq yillar davomida mudir bo'lib ishladi. Bu davrda kafedra xodimlari tomonidan o'sha vaqtida bolalarda keng tarqalgan peyileanioz kasalligi, keyinchalik esa revmatizim, kichik yoshdagi bolalarda moddalar almashinuvining surinkali buzilishi sohasida qoraxo'jaev rahbarligida bir qator ilmiy izlanishlar berishdi. Samarqand tibbyot oliyogohining pediatriya maktabini yaratishda, bu sohada milliy ilmiy pedagogik xodimlarni tayyorlashda qoraxo'jaevning xizmatlari katta Koraxujaevning shogirtlari safida hozirgi davrda faol, faoliyat ko'rsatayotgan olimlar prof, A.A.Xamraev , J.Eshqobulov , X.M Mamatqulov , M.R. Rustamovlarni aytish mumkin. Anidijok davlat tibbiyat oliyogohining ochilishi (1955), Farg'ona vodiysida nohiyalarni hakimlar bilan ta'minlanishi ancha yaxshilandi. 1965 yili ushbu oliyogohda pediatriya kuliyoti tashkil etiddi. Ushbu oliyogohda tashkil etilgan dastlabki bolalar kassalliklari kafedrasi mudiri prof K. Mirzaev hozirda yuqumli kasalliklar, ularning oldini olish tadirlari sohasida o'z shogirtlari bilan hamkorlikda katta ishlar olib bormoqda.

1942 yilda o'zbekiston Davlat Sog'lijni saqlash xalq komissariyatining onalik va bolalikni muhofaza qilish tajribali ilmiy xodim S.N. Yo'Idoshiva tayinlandi. o'zda ayollardan birinchi pediatr - prof. S.N Yo'Idosheva o'zbekistonda bolalarga pediatriya yordamini ko'rsatish, tibbiy tarmoqlarini yaratish ilmiy mutaxasislar tayyorlashga katta hissa qo'shgan olima edi.

o'z.Pediatriyasining buyuk nomoyondagi bo'lган Sayffitdin Shamsievich Shamsiev - Namangan shahrida etikdo'z oilasida tavallud topgan. Etimlik og'ir yoshlik yillarini boshidan kechirgan S.Shamsiev 1931 yilda ToshDav Tibbiyat oliyogohining o'sha davrida onalik va bolalik muhofazasi deb yuritilgan fakultetga o'qishga kiradi va uni tugatgach prof R.S. Geretsenovich rahbarligida bolalarda yurak kasalliklari va ularni davolash borasida muxim ilmiy tekshirish ishlarini boshlab yubordi. Keyinchalik 1945 51 yillarda prof E.I. Speranskiy rahbarligida doktorlik desirtatsiyasini tugallab Toshkentga kaytib keladi. S.Shamsiev hozirda bolalarni kardiologiya, me'da - ichak kasalliklari, zotiljam va boshqa bir qator pediatriyaning dolzarb muammolari bilan muntazam shug'ullanib kelmoqdi.

o'zbekistonda bolalar jarrohlik xizmatini tashkil qilish va jarrohlik mакtabalarini yaratilishda ko'plab olimlarning xizmatlari tаhsinga loyiqdir. Ana shu olimlardan biri. Karim Xojievich Toxirov hisoblanadi. K.X.Toxirov 1907 yilda Toshkent shahrida tugildi. 1928 yilda o'rta Osiyo universitetining tibbiyot fakultetiga kirib o'qiy boshladi. U 1933 yilda institutni imtiyozli diplom bilan bitirgach, shu yili topografik anotomiya va operativ jarrohlik kafedrasiga aspiranturaga qabul qilindi. 1934 yilda zaruriyat tufayli Termiz shahrida 75 o'rинli okrug gospitalining jarrohlik bo'limi mudiri bo'lib ishlardi. 1936 yilda aspranturani tugatgach, o'rta Osiyo tibbiyot institutining fakultativ jarrohlik kafedrasiga asisentlikka qabul qilindi. Shu yildan boshlab o'zining butun umrini ilmiy-amaliy jarrohlikka bag'ishladi. o'sha yillarda "Vestik xirurgii" jurnalining 7- sonida "Tashqi jinsiy a'zolar gangrenasi" deb nomlanuvchi maqolasi e'lon qilindi. 1939 yilda esa "Za sotsialisticheskoe zdrovoxranenie Uzbekistana" jurnalida "Oysimon suyakning chiqishi" maqolasi ham chop etildi. Mohir jarroh 2chi jahon urishi yillarda harbiy gospitallarda faoliyat ko'rsatdi. Keyin Toshkentga qaytgach 1942 yilda "Erta yoshdagi bolalarda ayrisimon bezning joylashuvidagi xususiyatlari" mavzusida nomzodlik desirtatsiyasini yoqladi va t.f.n. ilmiy jaradasini olishga sazovar bo'ldi. 1943-1945 yillarda K.X.T. sobiq ittifoqda birinchilardan bo'lib bolalarda olatni qayta tiklashning plastik operatsiyasining amalga oshirdi. 1947 yilda K.X.Toxirov tashabbusi bilan o'rta Osiyoda 1-chi va sobiq ittifoqda 7-bo'lib ToshMI pediatriya fakultetini tarkibida bolalar jarrohligi kafedrasini tashkil qiladi, va ushbu kafedraning mudiri etib saylanadi. Bolalar jarrohligi kafedrasи mudiri K.X.Toxirov tomonidan "A'zolarning teskari joylashuvi" nomli ishi yozilib, xirurglar jamiyatini yig'ilishida ma'ruza qilardi va "Xirurgiya" jurnalida chop etish uchun jo'natiladi. o'zbekistonda bolalar jarrohligini yanada rivojlantirish ilmiy - amaliy jarrohlik ishlarini taqsimlashtirish va ularni tadbiq qilish maqsadlarida Toxirov 1949yllar Moskvaga borib sho'rolar davlatida bolalar jarrohligiga asos solgan.

Mashhur jarroh, FA si muxbir a'zosi S. Ternovskiydan ko'p narsalar o'rgandi va tavsiyalar oldi. Operatsiya xonasida gaz bilan ishlaydigan apparatlarning portilab ketganligi sababli boshqalarga o'rnak bo'lishi maqsadida olim jarrohlik jurnalining 1957 i 11 - sonida "Gazli narkoz paytida apparatning portlash xodisasi" nomli maqolasini chop ettirdi. Bolalar anesteziologiyasini rivojlanishi nihoyatda zarur ekanligini hisobga olib, 1955 -65 yillarda respublika bosh xirurgi bo'lib ishlagan chog'larida ko'p e'tibor berdi. Shuning bilan ham Toxirov rahbarlik qilgan kafedradan mohir jarrohlarning deyarli barchasi anesteziologiya muassalarini bilan shug'llanganlar. Jumladan, A.S Zarzyar E.M. Xodiev, I.I. Iskanjonov,

R.A.Olimjonov, E.N.Xegay, E.I. Ilyosov, M.M. Aliev, T.S. A'zamxo'jaev, J.B. Beknazarov, N.I Utsinov va boshqalar. Prof . Toxirov klinikasida amaliy ishlar rejali ravishda olib borish vazifalarini ham belgilaydi. Klinikada xirurgik infektsiya, rejali bo'lim va shoshilinch yordam kurslari bo'limlari alohida tashkil etildi. Klinikalik bolalar urologiyasi bo'limi ham faoliyat ko'rsata boshlardi. Ilmiy ishlar asosslari 4 ta yo'nalishda olib boriladi :

1. Bolalarda buyrak tosh kasalligi
2. Bolalarda xirurgik infektsiyani kompleks davolash usullarini takomillashtirish.
3. Bolalarda exinokonnoz kasaligi
4. Bollarda me'da - ichak yo'lining tug'ma va orttirilgan kasalliklar Bunda tashxis qo'yish va davolash usullarini takomillashtirishga katta hassa qo'shdi.

K.X Toxirov shogirdlaridan K.X.qayumov, M.A.Romanov, R.K, Karimov, X.A. Baxromjonov, O.I. Ikromov va boshqalar jarrohligi faniga salmoqli hissa qo'shdilar.

K.X. Toxirov o'zbekitonda bolalar jarrohligiga asos soldi. Sobiq ittifoqda 1- lardan bo'lib bolalarda olatni qayta tiklash plastik operatsiyasini amalga oshirgan. Bolalar jarrohligining o'pka ko'krak qafasi, bolalar urologiyasi, jigar jarrohligi sohalarini dastlab rivojlantirgan, shogirdlar etishtirish borasida esa hurmat va e'tiborga loyiq olim bo'lib, o'zbekiston tibbiyotini tarixida o'z o'rnnini topgan jarrohdir.

Talabalarga mazkur davrda zamonaviy tibbiyotning kirib kelishi va davolash ishlarida yangi usullarni qo'llanilishi mahaliy xalq ichida olimalarni etishib chiqilganligi va ularni etishiga qo'shgan ulkan hissalarini bilan tanishtirish.

o'zbekiston xududida Rossiya istilosidan avvalgi tibbiyotda o'ziga yarasha spetsifik tomonlari bo'lган. Bulardan biri, asosan xalqning tibbiyot xodimlari va tabiblaridan foydalanganligidir. Xalq tibbiyotning va tabiblarning vakilari ko'p kasallarini to'g'ri topib, natijalik davolaganlar. Ular asosan o't va boshqa o'simliklardan kilingan dorilardan foydalanganlar.

Tabiblar asosan ichki kasallikarni (oshqozon - ichak kasalliklari, jigar kasalliklari, o'pka xastaliklari) davolardilar. Jarrohlik vazifasini kisnae sartoroshlar bajarardilar . Ular soch - soqlol olishdan tashqari bemor kishidan qon olardilar, zuluk solardilar, og'riq tishlarini sug'urardilar. Chiqqan - singanlarni esa muxsus tabiblar davolardir.

Bulardan tashqari maxsus qon oluvchilar, siloqchilar, doya xotinlar va rishta chaqiruvchilar bo'lardi.

o'rta Osiyoda xalq tibbiyotidan tashqari - tabiblar boshqa yana kinnachililar va folbinlar vositasida davolash usullari ham keng yoyilgandi. Bu kishilar kasallarni gap va turli xil tumorlar bilan davolay edilar. Eski vaqtdan qolgan metodlar bilan doirada chalish, o'qitish, tumorlar osish va boshqa aldamchi yo'llar bilan pul olar edilar. "Kasalning asosiy sababi -odamning ichiga zahar, johillik, ruhining kirish" dyor edilar. Shu ruhni odam a'zosidan chiqarilsa, kasal tuzaladi, der edilar. Shu ahvol XIX asrning oxirida va XX asrning boshigacha davom etgan edi. Chunki bu davrda xalq tibbiyotni xodimlari va tabiblar ancha kam bo'lgan edi. Sog'lioni saqlash sohasida ishlovchilar soni kam va aholi sog'lig'ining juda past darajada edi. Xalqning ko'pchiligi kinachilarga va folbunlarga murojat qilishiga majbur bo'lardilar. XIX asrning 60 yillarda chor xukumati o'rta Osiyoni, shu jumladan hozirgi o'zbekiston territoriyasini bosib oldi. Buning natijasida bu erda siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar yuz berdi. Siyosiy jihatdan Turkiston xonliklari o'z mustaqilliklarini yo'qotdilar. qo'qon xonligi butunlay tugatildi. Xiva xoni bilan Buxoro amiri vassal "xokimlar" ga aylantirildi. Turkiston mustamlaka mamlakat bo'lib qoldi. Iqtisodiy jihatdan Turkiston ekonomikasiga katta zarar etkazildi. Masalan, mamlakatdagi boyliklarga rus kapitalistik xo'jayin bo'lib oldilar. Paxta , ipak qora ko'l teri va er osti boyliklari. Rossiyadagi sanoat korxonalariga olib ketila boshladi. Aholi ikki tomonlama (mahaliy boylar va rus kapitalistlari) ekspluatatsiyaga uchrab qashshoqlana bordi, uning yashash sharoiti og'irlashib salomatligiga zarar etdi. Xalq o'rtasida turli kasalliklar keng tarqalib ketdi. har yili yuqumli kasallikklardan o'ng minglarda kishilar xalok bo'lib ketadilar. Xonlar va va amirlar , so'ng esa chor xukumati xukumdorligining oqibati shunday natijalarga olib keladi. Ammo o'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shilishi ma'lum darajada ijobjiy ahamiyatga ham ega bo'ladi. Masalan, Rossiya orqali o'rta Osiyoga hozirgi zamon fan va texnikasi kirib keldi. Mamlakatlar unchalik katta bo'lmasa ham, kichikroq zavod va fabrikalar ko'rila boshladi, temir yo'l o'tkazildi. Tibbiyot sohasida ham birmuncha ijobjiy o'zgarish yuz berdi. Turkiston Rossiyaga qo'shib olinganidan keyin shahar va qishloqlarga rus harbiy garnizonlari joylashtirildi. Chor xukumatining Turkistondagi harbiy ma'muriyati mahaliy aholiga zamonaviy yordam tashkil qilishni o'ylab ham ko'rди. Lekin shunday bo'lsa ham Turkistonda zamonaviy tibbiy muassasalarning paydo bo'lishi ijobjiy xodisa edi. 1870-1880 yillarda rus vrachlarning tashabbusi bilan Toshkent, Samarkand, Jizzax, Dushanbe shaharlarida mahaliy aholi uchun bir necha ambulotoriya ochildi. 1874 yilda

Toshkentda birinchi zamonaviy dorixona ochildi. Shunisi qiziqliki, Turkistonda zamonaviy dorixona paydo bo'lishi bilan mahalliy tabiblar kasallarga shu dorilardan ishlata boshladilar. 1868-1870 yillardan boshlab kasalxonalar barpo etila boshladi. o'sha vaqtda o'zbekistonning territoriyasida 976 o'rinni kasalxonalar, 8 dorixona, 10 feldsher va akusherlik bo'limlari bo'lgan. 141 vrachdan 102 tasi sog'liqni saqlash sohasida ish olib borar edi. o'rta ma'lumotli tibbiyat xodimlaridan 234 kishi ishlagan. o'sha davrda har bir odamning sog'lig'ini saqlash uchun xarajat miqdori 13 tiyinni tashkil etardi. Turkistonni Rossiya zabt etgach, shu kuni xokimiyat Toshkent ishchi va saldat deputatlari Sovet qo'liga o'tdi. Toshkent Sovet butun Turkiston xukumati vazifasini bajara boshladi. Turkiston xukumati o'z faoliyatining birinchi kunidan boshlab, boshqa siyosiy va iqtisodiy vazifalar bilan bir qatorda xalq sog'lig'ini saqlash masalalari bilan shug'ullana boshladi. Shunday qilib Turkistonda sovet tibbiyatiga asos solindi. 1919 yil 13 martda sog'liqni saqlash xalq komissarligi "Turkiston respublikasi davolash muassasalarini boshqarish haqidagi Nizomni tasdiqladi. 1920 yil 7 sentyabrda V.I.Lenin Turkistonda (Toshkent shahrida) dorilfunun ta'sis qilish haqidagi dekretga qo'l qo'ydi. Dorilfunun tarkibida tibbiy fakultet ham kiritilgan edi. Tibbiy fakultetning ochilishining ahamiyati mahaliy aholi orasidan yuqori malakali mutaxasislar tayyorlash edi. Shu yo'l bilan mahaliy millat vakillarilan oliy ma'lumotli mataxasislar tayyorlash problemasi hal etildi. o'sha vaqtda xalq Komissaritaning asosiy vazifalaridan biri o'tkir yuqumli kasalliklarga kurashish, sanitaryaning tozaligining yo'lga qo'yilishini nazorat qilish, propaganda ishlari, onalar va bolalarga tibbiy yordamni ko'rsatish va mutaxassislarni tayyorlash kabi ishlarda iborat edi. Shu vazifalarni bajarilish uchun kasalxonalar va shifoxonalar ko'rila boshladi.

1922 yilda Turkistonda birinchi tibbiyat xodimlari yig'ilishi bo'lgan. Shu yig'ilishda yuqumli kasalliklarga qarshi kurash olib borish yo'llari muhokama etildi. Bu yig'ilishda ayniqsa bezgak vao'utkir yuqumli kasalliklarga qarishi kurashini yo'lga qo'yishi katta ahamiyat berilgan edi. Sog'liqni saqlash Xalq Komissarligining avvalgi boshlig'i Baranskiy, keyin Uspenskiy bo'lgan. 1918 yildan boshlab, milliy erli aholi vakillaridan Xo'jaev, keyinchalik Reskulov qo'yilgan edi. Soglikni saklash Xalk Komissariatiga o'sha vaqtda Turkistonda ishlashgan olimlar, kollegiya a'zosi bo'lib kirgan edilar. Bularning orasida I.Orlov, Xalq komissariatining maorifi, kollegiya a'zosi A.Grekov, N.Tixomirov, Samarqandan A.Spiridonov, olim shifokorlardan R.S. Gershinovich, Maqsudov va boshqalar bo'lgan.

Tibbiyot va sog'liqni saqlash ishlarini yaxshilash uchun avvalo, bu soha xodimlari bilimdon va yuqori malakali bo'lishlari lozim. o'zbekistonda Oktyabr revolyutsiyasidan keyin tibbiyot sohasida mataxassislar tayyorlash uchun oliy o'quv yurtlari ochila boshlagan. Asosan, Toshkent tibbiyot oliy o'quv yurtining olimlari o'lka patologiyasini o'r ganib, ilmga ko'plab yangiliklar kiritganlar. 1920 yillardan boshlab o'zbekiston da ko'plab mashhur, xizmat ko'rsatgan olimlar faoliyat ko'rsatdilar. Ularning nomlari barchaga ma'lum bo'lgan Terapevt vrachlar - A.Kryukov, M.Slonim, A.Asqarov, T. Najmetdinov, E.Otaxonov, R.Xudoyberdiev va boshqalar. 1972 yilda Toshkent shahrida o'rta Osiyo bolalarni davolash oliy bilimgohi ochilgan. hozirgi vaqtida 34 doktorlik unvoniga ega bo'lgan va uch yuz elik tibbiyot fanlari nomzodi ishlaydi. Shularning orasida nomlari faqat jumhuriyatimizdagina emas, balki boshqa respublikalarga ham mashhur bo'lgan V.V.Vohidov, U.O.Oripov, K.A.Zufarov, S.A.Dolimov, M.M.Xaqberdiev, A.I.Nikolaev va boshqalar pediatr olimlaridan M.Nuritdinov, M.Mirzamuxamedov, S.Yuldasheva, M. Abdullaxodjaev. S.Shamsiev . I.Bodnya va boshqa olimlar ishlaydilar. o'zbekistonda inqilobdan avval tibbiyot va sog'liqni saqlash sistemasining ahvoli o'ta og'ir ahvolda bo'lgan. Yuqumli kasalliklar ko'p bo'lganligi sababli xalqlar o'rtasida o'lim juda ko'p bo'lgan. Inqilobdan keyin tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasida ham ancha rivojlanish bo'la boshagan. Mutaxasislar tayyorlab beruvchi oliy bilimgohlar ko'plab ochilgan. Ilmiy - tekshirish institutlari o'zbekistonda hozirgi vaqtida ancha ko'paygan. o'n oltita ilmiy tekshirish ilmgoh maskanlarida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Lekin shunga qaramay sog'liqni saqlashning ahvolani yaxshilish uchun hali ko'p ishlar qilinishi talab etiladi. hali oldinda qilinadigan ishlar va hal etilishi lozim bo'lgan masalalar juda ko'p. Shulardan biri o'limni kamaytirish va insonlar umrini uzaytirishdan iboratdir.

1991 yilda o'zbekiston mustaqillikka erishdi. 1991 yil 31 avgustda bo'lib o'tgan o'zbekiston Oliy kengashining o'n ikkinchi chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida qatnashgan deputatlar Respublika davlat mustaqilligi to'g'risida bayonat qabul qildilar. Shu kuni Oliy kengash o'zbekiston respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi qonunni qabul qildi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng respublikada hayotning hamma sohalarida tiklanish davri boshlandi. Tibbiyot sohasida ham yangi davrga qadam qo'yildi. Sho'rolar tuzumidan jiddiy nuqson va kamchiliklari bo'lgan sog'liqni saqlash tizimi qolgan edi. Respublika sog'liqni saqlash tashkilotlari bu kamchiliklarni tugatish va sog'liqni saqlash ishini yangi yuqori bosqichga ko'tarish choralarini amalga oshirishga kirishdilar.

Birinchi jiddiy kamchilik shundan iborat ediki "Sotsialistik sog'liqni saqlash", deb atalgan eski tizimda tibbiy xodimlar moddiy manfaatdor emas edilar. Bu esa aholiga tibbiy yordam ko'rsatish, ishiga salbiy tasir etardi. Ammo tibbiy muassasalar davlat mulki hisoblanardi. Tibbiy xodimlar o'z mehnatlari uchun belgilab qo'yilgan maoshdan tashqari hech qanday daromad manbaiga ega emas edilar.

Tibbiy xodimlarga mehnat haqi to'lashda har bir vrachning tajribasi va bilim darajasi hisobga olinmay, shu vrach ishlayotgan sohadagi tibbiy xodimlar uchun belgilab qo'yilgan darajada maosh to'lanardi. Bu ham vrachlarda ichki norozilik paydo qilardi. Shuning uchun tibbiy xodimlarda o'z kasblariga qiziqish va bu sohada yangi kashfiyotlar qilishga intilish kam edi. Shu sababdan bizning tibbiyotimiz g'arbiy Ovrupo tibbiyotidan ancha orqada qolgandi.

Sho'rolar davrida tibbiyat ko'proq biryoqlama rivojlangan edi. U asosan yuqumli kasalliklarga qarshi choralarini amalga oshirish bilan chegaralanardi. Buning o'z tarixi bor. Yuqorida aytib o'tganimizdek XIX asrning 60-chi yillarda Chor xukumatining qo'shinlari Turkiston o'lkasini bosib olganlaridan so'ng, bu erdag'i har bir shahar va kattaroq qishloqlarda xalqni itoatda saqlash uchun rus askarlarining garnizonlarini barpo etdilar. o'sha vaqtida Turkistonda ma'lum kasalliklardan tashqari o'lkaza xos kasalliklar (bezgak, rishta, leyshmanioz va b.) ham ko'p tarqalgan edi. Bu kasalliklar rus soldatlari o'rtasida ham tarqala boshladi. Bundan xavfga tushib qolgan harbiy boshliqlar qismlardagi vrachlarga bu kasalliklarni tekshirish vazifasini yukladilar. Shunday qilib, yuqumli kasalliklar ustida tadqiqot ishlari olib borila boshladi. Bu ish sho'rolar davrida ham davom ettirildi. Asosiy e'tiborni yuqumli kasalliklarga qaratib, tibbiyotning boshqa sohalari etarlicha rivojlanmay qolgan edi. Xususan, klinik tibbiyat etarli rivojlanmagan edi. Evropa mamlakatlarida esa klinik tibbiyat juda rivojlanib ketgan edi.

Sho'rolar davridagi Sog'liqni saqlash tizimida tuzilishi (struktura) jihatidan ham kamchilik bor edi. Masalan, mamlakatda Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli tibbiy muassasalardan tashqari bir qancha vazirliklarning o'z mustaqil sog'liqni saqlash tashkilotlari bor edi. Chunonchi Mudofaa vazirligining o'z tibbiy tashkilotlari, Temir yo'l transporti vazirligining o'z tibbiy tashkilotlari, ichki ishlar vazirligining o'z tibbiy tashkilotlari va h.k. Bular Sog'liqni saqlash vazirligiga tobe bo'lmay, o'zlari mustaqil ish olib borardilar. Ularning ishlari Sog'liqni saqlash vazirligining rejalarini bilan etarli darajada uyg'unlashtirilmasdi. Bu xolat mamlakat

miqyosida sog'liqni saqlash ishini bir markazdan turib boshqarishni qiyinlashtirardi.

Sho'rolar tuzumi davrida tibbiyat ilmini rivojlantirish va uning erishgan natijalarini turmushga tadbiq qilish juda sekinlik bilan amalga oshirilardi. har bir kashfiyat u amalda qo'llanishdan oldin juda ko'p instantsiyalardan o'tish kerak edi.

Mamlakatimizda tibbiy-ilmiy muassasalar (institutlar) ko'p edi. Ularda ko'p sonli, yuqori maosh oluvchi ilmiy xodimlar ishlardilar. Lekin, bu institutlarda olib borilayotgan ilmiy ishlar va ularning natijalari etarli darajada turmushga tadbiq qilinmasdi. Shularning hammasi moddiy manfaatdorlikning natijasi edi.

Tadqiqotchi o'z kashfiyoti uchun moddiy jihatdan etarli darajada rag'batlantirilmasdi.

Respublikamizda sog'liqni saqlash ishlarining bunday sekinlik bilan rivojlanishining asosiy sabablaridan biri shu ediki, biz boshqa sohalarda bo'lganidek, bu sohada ham Moskvadagi markaziy xukumatga qaram edik. Bu xukumatning ruhsatisiz biror ish qilinmasdi.

Mamlakatimiz shifobaxsh o'simliklar va ma'danlarga juda boy. Lekin, ulardan keragicha foydalanmasdik. Chunki, yuqorida bu ish uchun etarli mablag' ajratmasdi.

Mamlakatimizda ilmiy-nazariy tibbiyat ham etarli darajada rivojlanmagan edi. Buning asosiy sababi shuki, biz sobiq ittifoqning tarkibida bo'lган vaqtimizda jahon ilmiy tibbiyoti erishgan natijalari bilan to'g'ridan-to'g'ri tanishish imkoniyatiga ega emasdik. Biz tashqi dunyodan butunlay ajralgan holda yashardik. Respublikamizga jahon ilmiy tibbiyotining yangiliklari kechikib kelardi. Bu yangiliklarning ko'pi umuman bizgacha etib kelmasdi. Faqat mamlakatimiz mustaqillikga erishganidan so'ng tibbiyotimiz to'g'ridan-to'g'ri chet el tibbiyoti bilan bog'lanish imkoniyatiga ega bhldi. Chet el tibbiy muassasalari bilan xamkorlikda ishlay boshladilar.

Mustaqillikga erishganimizdan so'ng boshqa sohalarda bo'lganidek, tibbiyot sohasiga ham alohida e'tibor berildi. Sog'liqni saqlash ishini tubdan yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirila boshladi. Bu masalada birinchi bo'lib, 1992 yilning 3 iyulida o'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning o'zbekiston Respublikasining "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida" o'onuni qabul qilindi. Mazkur qonundan asosiy maqsad sanitariya epidemiya masalalarida aholining xotirjamligini va radiattsiya xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ishtimoiy

munosabatlarni tartibga solish, odamni qulay atrof muxitga ega bo'lish xuquqini hamda u bilan bog'liq boshqa xuquqlarni va ularni amalga oshirish kafolatlarni mustahkamlashdan iborat. Shuningdek sanitariya qonunlarni buzilishini oldini olish, aniqlash va ularga chek qo'yishga qaratilga sanitariya epidemiologiya xizmatining faoliyatini takomillashtirish iborat bo'Igan. 1996-yil 29 avgustda "o'zbekisgon fuqarolarining sog'lig'ini saqlash to'g'risida" maxsus Davlat qonuni qabul qilindi. Bu xujjatda davlat ahamiyatiga ega bo'Igan quyidagi uchta muxim masala qonunlashtirib qo'yildi:

Fuqarolarning sog'lig'ini saqlashga doir xuquqlarining davlat tamonidan kafolatlanishini ta'minlash.

Fuqarolarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish.

Mamlakatdagi barcha davlat va ommaviy jamoa tashkilotlarning fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatini xuquqiy jihatdan tartibga solish.

Mazkur qonunda fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy tamoyillari belgilab qo'yildi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

sog'liqni saqlash sohasida inson xuquqlariga riosa qilinishi
aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamidan bahramand bo'la olishi
profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi
sog'lig'ini yo'qotgan fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi
tibbiy fanlarning amaliyot bilan birligi.

"qonun"da o'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining strukturasi va vakolatlari ham belgilab berildi. Bundan tashqari qonun aholini sanitariya-epidemiologiya jihatidan havotirsizligini ta'min etishni ham belgilab qo'ydi. o'zbekiston fuqarolarining sogligini saklash to'g'risidagi qonun aholining har bir toifasining xuquqlarini belgilab qo'ydi. Bemor kishining xuquq va imtiyozlari ham ko'rsatilgan.

o'zbekiston mustaqillikga erishganidan so'ng sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan ikkinchi muhim tadbir sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish bo'ldi. Bu haqda mamlakat prezidenti 1998 yilning 10 noyabrda "o'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash tizimini isloh qilish davlt dasturi tugrisida" maxsus farmon chikardi. Bu farmonga muvofiq, sog'liqni saqlash tizimida xizmat qiluvchi

mutaxassislar, olimlar, xuquqshunoslar va bu ishga dahldor tashkilotlar ishtirokida o'zbekisgon Respublikasi sog'lig'ini saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturini ishlab chiqdilar. Bu dastur Respublika Sog'liqni saqlash vazirligining kollegiyasi va o'zbekiston Vazirlar Mahkamasida muhokama qilinib, sog'liqni saqlash tizimini isloh, qilishning asosiy dasturi sifatida tavsiya etilgan edi.

Farmonda ta'kidlanishicha, aholining malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va ijtimoiy ximoyaga doir konstitutsiyaviy xuquqlarini ta'minlash, shuningdek, tibbiy xizmatning sifatini yaxshilash uchun tashkiliy, iqtisodiy va xuquqiy shart-sharoitlarni yaratish, sog'lom avlodni tarbiyalash, sog'liqni saqlash tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq holga keltirishga qaratilgan.

Dasturda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning quyidagi kontseptsiyasi tavsiya etildi: bepul tibbiy yordam ko'rsatadigan va byudjetdan molijalanishi lozim bo'lgan davolash-profilaktika muassasalarining ro'yxatini tuzish, qishloq vrachlik punktlari tarmog'ini rivojlantirish, yuksak tajribali shifokor kadrlar va o'rta tibbiy xodimlar tayyorlash, shu maqsadda tibbiyot bilim yurtlarini kasb-xunar kollejlariga aylantirish va h.k. Dasturda tez tibbiy yordam tizimini yuksak darajaga ko'tarish maqsadida bir qancha tibbiy tashkilotlar (Toshuyjoyinvest qurilishi korporatsiyasining tibbiy-sanitariya qismi, Toshkent shahar tez tibbiy yordam stantsiyasi, respublika va Toshkent viloyat sanitariya aviatsiyasi) negizida Respublika shoshilinch tibbiy yordam Markazini mintaqaviy filiallari bilan tashkil etish ko'zda tutilgan. Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazining tuzilmasi va Respublika shoshilinch tibbiy yordam Markazi to'g'risidagi Nizom ham tasdiqlandi.

Farmonda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish Markazi va uning joylardagi filiallarini yuqori malakali mutaxassislar bilan to'Idirilsin, deyilgan.

Farmonda Nodavlat davolash muassasalari, xususan aholiga pulli tibbiy xizmat ko'rsatuvchi xususiy davolash muassasalari ma'lum imtiyozga ega bo'lgan bemorlarga 20 foizga qadar bepul tibbiy xizmati ko'rsatishlari kerakligi ta'kidlangan.

Farmonga ko'ra oliy tibbiy o'quv yurtlari qoshida 3 yil o'qish muddati bilan oliy malakali tibbiyot hamshiralari (reanimatologlar, anestezistlar, jarrohlik hamshiralari, tug'ruqxona akusherkalari) tayyorlash bo'limlarini ochish ko'zda tutilgan.

1998-2005 yillarda o'zbekistan Respublikasi o'zbekiston sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturini amalga oshirishga doir asosiy chora-tadbirlar tasdiqlandi. Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturini amalga oshirilishini nazorat qilib turish uchun maxsus Respublika Komissiyasi tuzildi. Bu komissiyaga quyidagi vazifalar yuklatildi: Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni amalga oshirish bilan aloqador vazirliklar, idoralar, muassasalarining faoliyatini muvofiqlashtirish, sog'liqni saqlash tizimining amaldagi xuquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqish hamda yangilash.

Farmonda xalqaro tashkilotlar, xorijiy sarmoyadorlar, jamg'armalar va jamoat tashkilotlarining mablag'larini ham sog'liqni saqlash tizimiga jalb qilish ko'zda tutilgan.

Farmonga muvofiq, o'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining markaziy apparatida davlat tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va ajratilayotgan byudjet mablag'laridan o'rinli foydalanishni muvofiqlashtiruvchi 9 kishidan iborat Bosh boshqarma tashkil etildi.

Farmonda o'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga o'zbekiston Respublikasida Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturini amalga oshirishni moliyaviy jihatdan ta'minlash, shu maqsadda xorijiy sarmoyalarni ham jalb qilish yuklandi.

Farmonda xususiy tibbiyot muassasalarini barpo etishni rag'batlantiruvchi bir qancha tadbirlarni amalga oshirish ham ko'zda tutilgan. Chunonchi xususiy tibbiyot muassasalari tashkil etilgan paytdan boshlab 2 yil muddatga ularni barcha turdag'i soliqlardan ozod qilish, xususiy davolash muassasalarini barpo etish uchun er maydonlari ajratish, yangi tashkil etilayotgan xususiy tibbiy muassasalarini moliyalash uchun kredit liniyalari ochish va h.k.

Mazkur Farmonni bajarish yuzasidan 1999-yil 14 yanvarda o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "o'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimida boshqarishni takomillashtirish to'g'risida" qaror qabul qildi.

qarorda o'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi va uning joylardagi organlarining asosiy vazifalari belgilab berilgan. Bu vazifalar quyidagilardan iborat: sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturiga muvofiq sog'liqni saqlash sohasida davlat siyosatini amalga oshirish; aholiga tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning davlat tamonidan kafolatlangan darajasi va sifatini ta'minlash; aholiga shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini tashkil etish va mustahkamlash; davolash-profilaktika muassasalarining bosqichma-bosqich pullik

xizmat ko'rsatishga o'tkazish; jahon standartlariga javob beradigan zamonaviy klinikalarini barpo etish. Shuningdek, qarorga muvofiq sog'liqni saqlash vazirligi tizimida Nazorat inspeksiyasi tashkil etildi.

Vazirlar Mahkamasi sog'liqni saqlash vazirligining markaziy apparati va uning ma'muriy boshqaruvi tizilmalarini tasdiq etdi. o'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining markaziy apparati Sog'liqni saqlash vaziri va uning 4 nafar o'rinnbosari (shulardan bittasi birinchi o'rinnbosar) sifatida belgilandi. Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmasining boshlig'i o'z lavozimiga ko'ra sog'liqni saqlash vazirining o'rinnbosari, deb hisoblanadigan bo'ldi.

Vazirlar Mahkamasi o'z qarori bilan sog'liqni saqlash xududiy organlarining namunaviy nizomi hamda uning tuzilmasini belgiladi.

Bundan tashqari sog'liqni saqlash tuzilmasini tashkil etish haqida ham ko'rsatma berdi. Chunonchi, tuman (shahar) markaziy kasalxonasi to'g'risida Nizomni ishlab chiqish topshirildi. Bunda markaziy tuman kasalxonasi o'ziga birkitilgan xudud aholisiga shoshilinch tibbiy yordam berish hamda dastlabki tibbiy-sanitariya xizmati ko'rsatish vazifalarini bevosita xal qilish nazarda tutishi kerakligi ta'kidlandi.

o'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'zining 1999 yil 4 yanvardagi qaroriga ilova sifatida "o'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi to'g'risida Nizom" ham chiqardi. "Nizom"da o'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligining maqomi, vazifalari, vakolatlari va uning faoliyatining tashkiliy asoslari belgilab berilgan. Unda ta'kidlanishicha Sog'liqni saqlash vazirligi o'z faoliyatida o'zbekiston Respublikasining amaldagi Konstitutsiyasi, o'zbekiston Oliy majlisining qarorlari, Prezidentning farmonlari va boshqa davlat xujjalrliga amal qiladi.

Aholi sog'lig'ini saqlash, xususan yuqumli kasalliklarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik sanitariya-epidemiologiya xizmati bilan bog'liq. Bunda sanitariya nazoratini to'g'ri tashkil qilish va uni aniq, ham tezkorlik bilan amalga oshirish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuni hisobga olib, respublika prezidenta 1992-yil 3 iyulda "Davlat sanitariya nazorati to'g'risidagi" qonunga qo'l qo'ydi. Unda sanitariya-epidemiologiya nazoratining asosiy printsiplari aniqlab berilgan.

Xususan, salomatlik uchun qulay atrof muxit sharoitini, shu jumladan radiatsiya havfsizligini ta'minlash ustidan nazorat olib borish; tashkilotlar, muassasalar va ayrim shaxslar tomonidan sanitariya qoidalari buzilganligi uchun javobgarlikni

